Olimpiya o'yinlarining paydo bo'lishi. Hozirgi kunda olimpiada o'yinlari.

**17-mavzu: Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Misr ehromlari, Bobil osma bog'lari, Olimp xudosi, Zevs haykali, ma'buda Artemida ibodatxonasi, Quyosh xudosi, Gelios haykali, Aleksandr mayog'i, Galikarnasdagi maqbara.

**18-mavzu: O'zbekistonning tarixiy – me'moriy obidalari. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat)**

Qo'yqirilganqal'a. Tuproqqal'a, Afrosiyob.

**19-mavzu: O'zbekistonning tarixiy – me'moriy obidalari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Ismoil Somoniy maqbarasi. Minorai Kalon, Registon majmuasi, Oqsaroy, Ichanqal'a.

**20-mavzu: Dunyoning tarixiy obidalari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Jahon madaniyatining mumtoz namunalari: Peza minorasi. Tauer ko'prigi.

**21-mavzu: Dunyoning tarixiy obidalari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Toj Mahal maqbarasi, Eyfel minorasi, Ozodlik haykali.

**22-mavzu: Tarixni o'rganishda muzeylarning o'rni. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Jahonning mashhur muzeylari. Mamlakatimiz muzeylari.

**23-mavzu: Muzeylar tarixdan saboq beradi (amaliy mashg'ulot). (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

#### **IV BOB. SAVDO VA ALOQA**

**(A1: 4 soat, A1+: 8 soat)**

**24-mavzu: Tangalar tarix guvohi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Dastlabki tangalar. Tangalar tarixdan guvohlik beradi. Qadimiy va zamonaviy tangalarda ramzlarning aks etishi.

**25-mavzu: Savdo yo'llari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Qadimgi savdo yo'llari. Buyuk ipak yo'li. Savdo aloqalari. Savdo yo'llaridagi xizmat ko'rsatish shahobchalari.

**26-mavzu: Dengiz yo'llarining kashf etilishi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Dengiz yo'llariga ehtiyoj. Dengiz savdo yo'llari. Jahon savdo aloqalarining vujudga kelishi.

#### **V BOB. OZODLIK UCHUN KURASH QAHRAMONLARI**

**(A1: 14 soat, A1+: 24 soat)**

**27-mavzu: To'maris va Shiroq jasorati. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Ahamoniylarning O'rta Osiyoga kirib kelishi. To'maris va Shiroq jasorati.

**28-mavzu: Spitamenning qahramonligi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

O'rta Osiyo xalqlarining Aleksandr Makedonskiyning bosqinchiligiga qarshi kurashi. Spitamenning qahramonligi.



**29-mavzu: Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashlari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Muqanna qo'zg'oloni.

**30-mavzu: Jaloliddin Manguberdi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Mo'g'ullarga qarshi mardonavor kurash. Jaloliddin Manguberdi jasur va mohir sarkarda.

**31-mavzu: Temur Malik jasorati. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Mo'g'ullar bosqiniga qarshi Xo'jand mudofaasi. Temur Malik faoliyati.

**32-mavzu: Amir Temur jasorati va uning davlati. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Amir Temur hayoti va faoliyati. Amir Temur davlati.

**33-mavzu: Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Amir Temur – Movarounnahr, Osiyo va Yevropa xalqlarining xaloskori.

**Nazorat ishi. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

**O'quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:**

**Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:**

**A1**

tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

hijriy yilni milodiy, milodiy yilni hijriy yilga o'gira oladi;

arxeologiya, etnografiya. Moddiy va ma'naviy madaniyat. sivilizatsiya, tarixni davrlashtirish va xronologiya, manzilgoh, me'morchilik, hunarmandchilik. madaniy aloqalar, fir'avn, kohin, ibodatxona, piramida, sfinkslar. ierogrif, zardushtiylik, sak va massagetlar, Artimediya, Geolis, eyfel, Toj mahal, eftallar, ark, temuriylar, Movarounnahr kabi tarixiy atamalar mazmunini biladi;

Kirill va Medofiy, Yuliy Sezar, Zardusht, Doro III, Aleksandr, Xammurapi, Ashoka, Firavn Xeops, Fidiy, Gerodot, Doro I, Kir II, To'maris, Shiroq, Spitamen, Yuliy sezar, Grigoriy, Muhammad Rasululloh, Ptolemey, Muqanna, Chingizxon, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bibixonim, Boyazid, Sayyid Baraka, Klavixo kabi tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera oladi;

Quyidagi tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi:

1991-yil 31-avgust. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qildi.

1 sentabr – Mustaqillik kuni.

2009-yil – Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi.

Ml. avv. 46-yil Rim davlati hukmdori Yuliy sezar o'z nomi bilan ataluvchi Yuliy kalendarlarini joriy etgan.

622-yil – hijriy birinchi yil.

Ml. avv. III asr – Qadimgi Gresiyada Yerning kattaligini ancha aniq o'lchandi.

X asr – Samarqandda Mirzo Ulug'bek rasadxonasida o'z davri uchun yanada mukammalroq globus yaratildi.

Ml. avv. 40-12 mingyilliklar oralig'ida yashagan odam suyaklari Fransiyaning Kramonon g'oridan topilgan.

Ml. avv. 15-8 mingyilliklar Altamir, Kapova, Lasko g'orlarida qoyatosh suratlarini kromonyon odamlari yaratganlar.

Ml. avv. 2 mingyillik o'rtalarida qadimgi finikiyaliklar yaratishdan va "Finikiya yozuvi" deb atalgan.

Ml. avv IV-III asrlarda lotin alifbosi yaratildi.

Milodning IV asrida esa arab alifbosi yaratilgan.

IX asrda aka-uka Kirill va Mefodiyalar eski slavyan alifbosini yaratganlar.

Ml. avv. 32 mingyilliklarda Kritda davlat tashkil topgan.

Ml. avv. 2 mingyillik Miken shahri qurilgan.

Ml. avv. 2 mingyillikda Mesopotamiyada Bobil davlati tashkil topgan.

Ml. avv. 2 mingyillikda Xitoyning Xuanxe daryosi etaklarida dastlabki davlatlar vujudga kelgan.

Ml. avv. VII asrda Bobil shahrida tarixga "Semiramida osma bog'lari" nomi bilan kirgan bog' bunyod ettirilgan.

Ml. avv. 304-yilda Rodos aholisi Quyosh xudosi Geliosning haykalini yaratishgan.

Ml. avv. 283-yilda Aleksandr mayog'i bunyod etilgan.

Ml. avv. VII asrda Xorazm va Baqtriya davlatlari vujudga kelgan.

Ml. avv. IX-VIII asrda Qadimgi Xorazm diyorida zardushtiylilik vujudga keldi.

1996-yilda buyuk bobomiz Amir Temur yubileyining 660 yilligi munosabati bilan oltin suvi yuritilgan 100 so'mlik zarb etildi.

2001-yilda "Avesto"ning 2700 yilligi nishonlandi.

### **Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.**

#### **A1**

Tarixiy ilustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi.

Quyidagi tarixiy joylarni xaritadan ko'rsata oladi: Sharqiy va Janubiy Afrika, Yava oroli, Xitoy, Farg'ona vodiysi, Seleng'ur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Altamir, Lasko g'orlari, Misr, Nil, Mesopotamiya, Shumer va Akkad, Bobil, Eron, Hindiston, Qadimgi Xorazm va Baqtriya. Afrosiyob, Ko'zaliqir, Qadimgi Yunoniston, Afina, Sparta, Ellada, Makedoniya, Parfenon, Baqtriya, So'g'diyona, Qadimgi Xorazm, Qang', Dovon, Jonbosqal'a Kushon, Qadimgi Rim, Italiya.

**Takrorlash. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

**35-mavzu: Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi kurshgan xalq qahramonlari. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

Aliquli, Po'latxon, Qurbonjon dodxoh, Dukchi Eshon.

**36-mavzu: Sovetlarga qarshi kurashgan qo'rboshilar. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Madaminbek, Shermuhammadbek, Ibrohimbek, Katta va kichik Ergash.

**37-mavzu: Jadidlar. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Jadid g'oyalalarining paydo bo'lishi. Mahmudho'ja Behbudiy. Abdulla Avloniy. Fitrat. Munavvar Qori Abdurashitxonov.

**38-mavzu: Sovetlar davrida ilm-fan, madaniyat sohasiga munosabat. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

1933-39-yillarda Sovetlarning qatog'onlik siyosati. 1953-1956-yillardagi ziyolilarga qarshi harakatlar. 1980-yilarning ikkinchi yarmi "Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" siyosati.

**39-mavzu: Mustaqillik yillarida Xotira xiyobonining qad ko'tarishi. (amaliy mashg'ulot, virtual ekskusiya darsi). (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

## **VI BOB. JAHON ILM-FAN TARAQQIYOTI.**

**(A1: 6 soat, A1+: 10 soat)**

**40-mavzu: Maktab – ilm o'chog'i. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Insoniyat hayotida maktablarning o'rni. O'rta Osiyoda ta'lim. Ma'mun akademiyasi.

**41-mavzu: Yurtimiz allomalari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Aniq va tabiiy fanlarning rivoji. Muso Xorazmiy. Ahmad Farg'oniy..

**42-mavzu: Yurtimiz allomalari. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. Mirzo Ulug'beklarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi.

**43-mavzu: Yurtimiz mutafakkirlarining ilmiy merosi (amaliy dars). (A1+: 1 soat )**

**44-mavzu: Buyuk daholar kashfiyotlari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Nikolay Kopernik kashfiyotining jahonshumul ahamiyati. Jordano Bruno va Galileo Galileylarning astronomiya faniga qo'shgan hissalar.

**45-mavzu: Buyuk ixtirolar. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Transport vositalarining kashf etilishi. Bug' mashinalari. Jahonda temir yo'llarning qurilishi. Samolyot, telegraf, telefon, radioning kashf etilishi.

## **VII BOB. INSONIYAT TARIXIDAGI JAHON URUHLARI**

**(A1: 8 soat, A1+: 13 soat)**

**46-mavzu: Birinchi jahon urushi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari. Birinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlar. Urushning insoniyat va Turkiston uchun keltirgan fojeali oqibatlari.

**47-mavzu: Ikkinchi jahon urushi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Fashizm nima? Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlar. Urushning fojeali oqibatlari. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

**48-mavzu: Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga o'zbek xalqining qo'shgan hissasi. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

O‘zbek xalqining frontga yordami. O‘zbekiston bag‘rikeng diyor. Qariyalar va bolalarga ko‘rsatilgan muruvvat.

**Takrorlash. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

**49-mavzu: Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi va uning bugungi kundagi maqsad va vazifalari.

**50-mavzu: Xotira maydoni. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

Mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining e‘zozlanishi. Xotira maydoni. Xotira kitobi.

**51-mavzu: Xotira abadiy inson qadri ulug‘dir (o‘lkashunoslik darsi). (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Ikkinchi jahon urushi va mehnat fahriylari bilan uchrashuv.

## **VIII BOB. O‘ZBEKISTON MUSTAQIL TARAQQIYOT YO‘LIDA (A1: 13 soat, A1+: 22 soat)**

**52-mavzu: O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti. O‘zbekiston mustaqilligining e‘lon qilinishi. Dunyo mamlakatlari tomonidan O‘zbekiston mustaqilligining tan olinishi. O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar a‘zosi.

**53-mavzu: Islom Karimov Mustaqilligimiz asoschisi. Manbalar bilan ishlash. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning faoliyati. (Video va foto lavhalar namoyishi.)

**54-mavzu: O‘zbekistonning davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

**55-mavzu: O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yutug‘lar. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

Avtomobil sanoati. Temir yo‘llarning qurilishi. Zamonaviy yo‘llarning qurilishi.

**56-mavzu: O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yutug‘lar. (A1: 1 soat, A1+: 1 soat )**

Biznesning rivojlanishi. Zamonaviy uy joylarning qurilishi. Akfa, Artel, Imzo brendlarining paydo bo‘lishi.

**57-mavzu: Barkmol avlod yurt tayanchi. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Ta‘lim va tarbiya sohasining rivojlanishi. Zamonaviy ta‘lim muassasalari. Ta‘lim sohasida erishilgan yutuqlar.

**58-mavzu: Dunyo xavfsizligiga tahdid. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

O‘zbekistonning tinchlik uchun kurashi. O‘zbekistonning tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari.

**59-mavzu: Ekstremizm va terrorizm. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Ekstremizm va terrorizmning barqaror taraqqiyotga ta'siri.

**60-mavzu: Ma'naviy va ma'rifiy yuksalish.(A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo totuvlik, diniy bag'irkeglik.

**61-mavzu: Ma'naviy va ma'rifiy yuksalish. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Madaniyat va sportning rivojlanishi. Jahon maydonidagi yutuqlar.

**62-mavzu: O'zbekistonning zamonaviy me'morchilik obidalari. (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Mustaqillik maydoni me'morchiligi. "Elyurt tayanchi", "Ko'hna va va boqiy Buxoro" monumenti, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi.

**63-mavzu: Mening Vatanim (o'lkashunoslik darsi). (A1: 1 soat, A1+: 2 soat)**

Oila shajarasi. Mahalla tarixi. Yashab turgan hududi tarixi haqida.

**Takrorlash. (A1: 2 soat, A1+: 1 soat )**

**Nazorat ishi. 1 soat**

**O'quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:**

**Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchilikda tushuntira olish kompetensiyasi.**

**A1**

Quyidagi tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera oladi: Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Imom at Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ismoil Somoniy, Shohjahon, Aleksandr Eyfel, Sh.Shomahmudov, Dmitriy Medvedev, Xu Szin Tao, Li yon Bak, Xillari Klinton, Abdulla Oripov, Abu Iso at Termiziy, Moturidiy, Pan Gi Mun, Alfred Nobel, aka-uka Uilber va Orvill Raytlar, Abdurauf Fitrat. Aliquli, Po'latxon, Qurbonjon dodxoh, Dukchi Eshon. Madaminbek, Shermuhammadbek, Ibrohimbek, Katta va kichik Ergash, Mahmudho'ja Behbudiy. Abdulla Avloniy. Fitrat. Munavvar Qori Abdurashitxonov. Nikolay Kopernik, Jordano Bruno va Galileo Galiley, Islom Karimov;

Quyidagi tarixiy sanalarda bo'lgan voqealar haqida hikoya qila oladi:

Ml. avv. VII asrda hozirgi O'zbekiston hududida Xorazm va Baqtriya davlatlari vujudga kelgan.

1994-yil 1-iyulidan O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'm muomalaga kiritilgan.

2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yilligiga atab 100 so'mlik tanga pul zarb etildi.

Ml. avv. 32 mingyilliklarda Qadimgi karvon savdo yo'llaridan biri "La'l yo'li" deb atalgan yo'l ochilgan.

Ml. avv. II asrda uzunligi 12000 km bo'lgan Buyuk Ipak yo'li ochilgan.

Milodning XV asr oxiri XVI asr boshlarida Yevropa qit'asi davlatlarida yangi dengiz savdo yo'llariga ehtiyoj yanada kuchaygan.

1492-yilning yozida X.Kolumb boshchiligidagi 3 ta kema Atlantika okeani orqali harakatni boshladi.

1498-yilda Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'lini portugaliyalik sayyoh Vasko da Gama ochishga muvaffaq bo'lgan.

1806-yilda bug' mashinasi yaratildi.

1819-yilda birinchi marta paroxod Atlantika okeanidan suzib o'tib, 26 kunda Amerikaga yetib borgan.

1885-yilda ikkita bug' dvigateli o'rnatilgan birinchi samalyot yaratildi.

MI. avv. 776-yilda Dastlabki olimpiada o'yinlari Olimpiya shahrida o'tkazilgan.

783-yil Al-Xorazmiy Xorazmning Xiva shahrida tug'ilgan.

861-yilda Ahmad al Farg'oniy Misrga kelib Nil daryosi suvining sathini o'lchovchi qurilma yaratgan.

973-1048-yillar Abu Rayhon Beruniy yashagan yillar.

1004-yilda mamlakat poytaxtida "Dorul hikma va maorif" – ilm-fan markazi tashkil etilgan.

1336-yil 9-aprelda Amir Temur (hozirgi Yakkabog' tumanidagi) Xoja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.

1370-yil Amir Temur Movaraunnahr hukmdori deb e'lon qilindi.

1441-yil 9-fevralda Alisher Navoiy Hirot shahrida tug'ilgan.

1394-yilda Mirzo Ulug'bek tug'ilgan.

1647-yilda Yan Geveliy tomonidan nashr qilingan "Selenografiya" kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan atalgan.

1876-yilda Dastlabki telefon apparatildi.

1895-yilda dunyoda birinchi radioni rus olimi A.S.Popov ixtiro qilgan.

1902-yilda amerikalik aka-uka Uilber va Orvill Raytlar dunyoda birinchi shunday (olimlar va konstruktorlar dvigateli yonilg'i (benzin, kerosin) bilan ishlaydigan samalyot yaratish ustida ham bosh qotirganlar) samolyot yaratganlar.

1914-1918-yil – Birinchi jahon urushi.

1939-1945-yil – ikkinchi jahon urushi.

BMT 1989-yilda "Bolalar huquqlari to'g'risida" deb ataluvchi xalqaro Konvensiyani qabul qildi.

1990-yilning 24-martida O'zbekiston tarixida birinchi bor Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi.

1990-yilda qabul qilingan "Mustaqillik Dekloratsiyasi" katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

1990-yilda 21-mart Navro'z – milliy xalq bayrami hamda dam olish kuni deb belgilandi.

1991-yilning 29-sentabrida Islom Abdug'anievich Karimov muqobillik asosida mustaqil O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

1991-yil 18-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasdiqlandi.

1992-yil 2-iyulida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasdiqlandi.

1992-yil 10-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

1992-yilning 2-mart kuni O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi.

1993-yilda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMTning 48-yalpi majlisida ilk bor qatnashdi va nutq so‘zladi.

1994-yilda yurtimizda va xalqaro miqyosda buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi nishonlandi.

1996-yil 26-mart kuni Yurtimizda birinchi avtomobil ishlab chiqarildi.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

1997-yilda Xivaning 2500 yilligi nishonlandi.

1999-yilda Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi.

2000-yilda davlatimizning oliy harbiy mukofotlaridan biri – “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’ sis etildi.

2000-yilda yurtimizda YuNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi nishonlandi.

2006-yil Yurtimizda Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.

2007-yilda Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyi nishonlandi.

2007-yilda YuNESKO “Aristotel” va “Buyuk Ipak yo‘li” oltin medallarini ta’ sis etgan. Islom Karimov YuNESKOning ana shu oltin medallari bilan mukofotlangan.

2007-yil Misr poytaxti Qohira shahrida Ahmad al Farg‘oniyga haykal o‘rnatildi.

2009-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ulug‘bek sharafiga “Xalqaro astronomiya – yili” deb e’lon qilingan.

2016-yil 2-sentyabr O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov vafot etdi.

**A1+**

tarixiy jarayonlarni ko‘rgazmali tushuntira oladi.

### **Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A1, A1+**

Tarixiy ilustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi, fikrini bayon qilishda tarixiy atlaslardan foydalanadi, yozuvsiz xaritalar bilan ishlay oladi.

Tarixiy ilustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi, fikrini bayon qilishda tarixiy atlaslardan foydalanadi, yozuvsiz xaritalar bilan ishlay oladi.

Quyidagi tarixiy joylarni xaritadan topa oladi. Misr, Nil, Qadimgi Xorazm va Baqtriya. Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Qadimgi Yunoniston, Baqtriya, So‘g‘diyona, Qadimgi Xorazm, Qang‘, Dovon, Jonbosqal’a, Kushon, Hindiston, Germaniya, Rossiya, O‘zbekiston Respublikasi.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

**A1**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

**A1+**

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A1, A1+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va h.k.) hurmat qilish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, diniy e'tiqodi, milliy xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A1, A1+**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'zfo'zini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

tarixda yil hisobini o'qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o'qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o'qiy oladi. Miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o'rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

**A1+**

hijriy yilni milodiy yilga aylantira oladi.

**Jami o'rganilidagan mavzular soni - 63 ta**

**Nazorat ishi - (A1: 2 soat, A1+: 2 soat)**

**Takrorlash. (A1 3 soat, A1+: 4 soat)**

**Jami soatlar: (A1: 68 soat, A1+: 102 soat)**

**6-SINF**

**TARIX**

**(68 soat, haftasiga 2 soatdan)**

**(A2: 68 soat, haftasiga 2 soatdan, A2+: 136 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**A2**



o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib o‘ savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish.

**A2+**

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2, A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an‘analar va h.k.) hurmat qilish;

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, diniy e‘tiqodi, milliy xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma‘naviy va intellektual kamolotga intilish;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

tarixda yil hisobini o‘qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o‘qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o‘qiy oladi.

miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o‘rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

**A2+**

hijriy yilni milodiy yilga aylantira oladi.

## **1-BOB. ENG QADIMGI TUZUM**

**(A2: 9 soat A2+: 15 soat)**

### **1-mavzu: Kirish. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Qadimgi dunyo tarixi haqida. Darslik bilan ishlash.

### **2-mavzu: Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Qadimgi tarixni o‘rganish. Qadimgi tarix bo‘yicha manbalar. O‘zbekiston va jahon sivilizatsiyasi. Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya.

### **3-mavzu: Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Eng qadimgi odamlar. Eng qadimgi odamlarning mashgʻulotlari. Diniy eʼtiqodlarning vujudga kelishi.

**4-mavzu: Urugʻchilik jamiyati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Soʻnggi paleolit davr. Mezolit davri. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi. Tarixni davrlashtirish va xronologiya.

**5-mavzu: Eneolit va bronza davri. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Metall davrining asosiy xususiyatlari. Patriarxatning boshlanishi. Bronza davri manzilgohlari.

**6-mavzu: Temir davriga oʻtishda Oʻrta Osiyoning rivojlanishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Temirdan foydalanish. Ijtimoiy tuzum. Harbiy demokratiyaga oʻtish. “Avesto”- eng qadimgi yozma manba.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

## **2-BOB. QADIMGI SHARQ VA OʻRTA OSIYO**

**(A2: 21 soat A2+: 32 soat)**

**7-mavzu: Nil vodiysi va uning aholisi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Misr Nil inʼomi. Misrliklarning mashgʻulotlari. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Misr davlatining vujudga kelishi. “Nom”larning vujudga kelishi.

**8-mavzu: Qadimgi Misr. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Misr Firʼavnlarning harbiy yurishlarining boshlanishi. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi, hududi, chegaralari, davlatning boshqaruv shakli. Firʼavnlarning bosqinchilik yurishlari va ularning natijalari.

**10-mavzu: Qadimgi Misrda din. (A2: 2 soat, A2+: 2 soat)**

Misrliklarning olam toʻgʻrisidagi tasavvurlari. Misrliklarning xudolari.

**11-mavzu: Piramidalar va dahmalar. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Piramidalar va zamon. Sfinkslar. Tutanxamon. Moʻmiyolash. Muqaddas hayvonlar.

**12-mavzu: Qadimgi Misr madaniyati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Yozuv. Ierogriflar. Nazariy bilimlarning vujudga kelishi. Adabiyot ravnaqi.

**13-mavzu: Mesopotamiya sivilizatsiyalari. (A2: 2 soat A2+: 2 soat)**

Geografik joylashuvi, hududi, chegaralari, Mesopotamiya aholisining mashgʻulotlari. Mesopotamiya davlatning boshqaruv shakli.

**14-mavzu: Bobil podsholigi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Bobil “Xudolar darvozasi”. Hamurappi qonunlari.

**15-mavzu: Yangi Bobil podsholigi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Bobil madaniyati. Din, rassomchilik, arxitektura va sanʼat.

**16-mavzu: Old Osiyo davlatlari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Xett davlati. Ossuriya podsholigi.

**17-mavzu: Old Osiyo davlatlari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Urartu davlati. Finikiya va Falastin. Hududi, georgafik joylashuvi, davlat boshqaruvi.

**18-mavzu: Ahamoniylar davlati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Ahamoniylar davlati aholisi. Eron hududidagi qadimgi davlatlar. Fors podshohligining paydo bo'lishi. Doro I islohotlari. Qadimgi forslar madaniyatining rivojlanishi.

**19-mavzu: Hindiston sivilizatsiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi. Hindistonning eng qadimgi sivilizatsiyalari, diniy e'tiqodi. Kastalar.

**20-mavzu: Miloddan avvalgi I mingyillikda Hindiston. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Hindiston davlati. Chandragurta "Xudosiz din". Ilm va madaniyatning rivoji. "Mahobxorot", "Ramoyana" va "Panchatantra".

**21-mavzu: Xitoy sivilizatsiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Xitoyda sivilizatsiyaning vujudga kelishi. Aholi mashg'ulotlari. "ko'ppodsholiklar davri" davrida Xitoy.

**22-mavzu: Miloddan avvalgi III mil-II asrlarda Xitoy. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Markazlashgan davlatning tashkil topishi. Buyuk Xitoy devori. Xitoydagi xalq qo'zg'olonlari. Sin davlati hukmronligiga qarshi boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari. Qadimgi Xitoy madaniyati.

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

**Nazorat ishi. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**O'quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:**

**Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:**

**A2**

tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

anemizm, totemizm, fetishizm, arxeologiya, antropologiya, etnografiya. Moddiy va ma'naviy madaniyat. sivilizatsiya, tarixni davrlashtirish va xronologiya, irq, urug'chilik jamiyati. Mezolit, neolit, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, eneolit bronza, patriarxat, ziroatchilar, manzilgoh, me'morchilik, hunarmandchilik, madaniy aloqalar, qo'shni jamoasi, "nom", fir'avn, kohin, ibodatxona, piramida, sfinkslar, mo'miyolash, tanah, tavrot, talmud, ierogrif, nazariy bilimlar, hamurappi qonunlari, zabur, kastalar kabi tarixiy atamalar mazmunini biladi;

Tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera oladi: Gerodot, Strabon, Kvint Kursi Ruf, Jak Fransua Shampanion, Arrian, Odam, Menis, Tutanxamon. Gilgamish, Muso, Dovud, Sulaymon, Tutmos II, Tutmos III, Hammurappi, Sargon I, Kir II, Doro I, Kserks, Chandragupta, Konfutsiy, Chjan Xen;

Quyidagi tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi:

mil.avv. 1 million100 mingyilliklar – ilk paleolit davri.

mil.avv. 100-40 mingyilliklar – o'rta paleolit davri.

mil.avv.. 40-12 mingyilliklar – O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri.

mil.avv. 12-7 mingyilliklar – O'rta Osiyoda mezolit davri.

mil.avv. 6-4 mingyilliklar – O'rta Osiyoda neolit davri.

mil.avv. 4-3 mingyilliklarning o'rtalari – eneolit davri.

mil.avv. IX-VIII asrlar – O‘rta Osiyoda temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari mavjud bo‘lgan.

mil.avv. 40–12 mingyilliklar – so‘nggi paleolit davri.

mil.avv. 12–7 mingyilliklar – mezolit davri. (ayrim adabiyotlarda 15-7 mingyillik?)

mil.avv. 6–4 mingyilliklar – neolit davri.

mil.avv. 4–3 mingyillikning o‘rtalari – eneolit davri.

mil.avv. 4 mingyillik Mesopotamiyada shumer va akkadlarning manzilgohlari, Uruk, Eridu, Lagash. Ur shaharlarining vujudga kelishi.

mil.avv. 4 mingyillik boshlarida – Nil qirg‘oqlarida manzilgohlarning vujudga kelishi.

mil.avv. 3000 mingyilda Quyi va Yuqori Misr davlatlari o‘rtasida urush bo‘lib, Misr hukmroni Menes g‘alaba qozondi va u birinchi fir‘avn bo‘ldi.

mil.avv. 3000 mingyilda yagona birlashgan Misr davlati poytaxti Memfes shahri paydo bo‘ldi.

mil.avv. 3000 mingyillikning ikkinchi yarmida Sargon I Akkadni va Shumer shaharlarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirdi.

mil.avv. 2000 mingyillikning boshlarida Shummer-Akkad davlati ko‘chmanchi qabalalar zarbasidan parchalandi.

mil.avv. 2000 mingyillikda Bobil podsholigi Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi.

mil.avv. 2600-yil – Misrda Xeops (Xufu) piramidasi qurilishi.

mil.avv. XVIII asrda Bobil podshosi Xammurami butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirdi.

mil.avv. 539-yilda Bobilga forslar bostirib kirdi.

mil.avv. 3 mingyillik – Hind daryosi vodiysida katta shaharlar vujudga kela boshladi, biroq bu shaharlar mil avv. XVIII asrda vayronaga aylandi.

mil.avv. 2 mingyillikdan boshlab, quyosh xudosi Amoon Ra firavnlarning bosh ilohi va homisi hisoblangan.

mil.avv. 2 mingyillikda Old Osiyo hududida Ossuriya, Xett, Mitanni kabi davlatlar, Finikiya shahar-davlatlari vujudga keldi.

mil.avv. 2 mingyillik – Muso payg‘ambar yashagan davr.

mil.avv. 1000-970-yillar Dovud podshoh hukmronlik qilgan yillar.

mil.avv. 969-93-yillar Sulaymon podshohlik qilgan yillar.

mil.avv. 605-yil – Ossuriya podshohligining Bobil va Midiya tomonidan qulatildi.

mil.avv. XVIII asrda Kichik Osiyo markazida Xetlar degan shimolliq xalq o‘z davlatiga asos soldi.

mil.avv. IX-VIII asr boshlarida Urartu davlati gullab yashnadi.

mil.avv. X asrda Finikiyada 22 undosh xarfdan iborat bo‘lgan alifbo yaratildi.

mil.avv. XI asrda Falastin hududida Isroil podsholigi qujudga keldi.

mil.avv. VI asrda Fors podsholigi vujudga keldi.

mil.avv. VII-VI asrlarda Hindistonda Magadha, Kashala, Malla kabi davlatlar vujudga keldi.

mil.avv. 558-yil – Fors podsholigining tashkil topishi (Kir II).  
mil.avv. 545–540-yillar – Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriyani Kir II tomonidan bosib olinishi.  
mil.avv. 539-yil – Bobilning forslar tomonidan bosib olinishi.  
mil.avv. 327-yil – Makedoniyalik Aleksandrning Hindistonga, Panjob o‘lkasi hududiga bostirib kiradi.  
mil.avv. III asrda podsho Ashoka hukmronligi davrida Mauriya rivojlandi.  
mil.avv. 318-yil – Chandragupta tomonidan yunon-makedonlarning Hindistondan quvib chiqarilishi.  
mil.avv. VII-VI asrlar Xitoyda ko‘p podsholiklar davri nomini olgan.  
mil.avv. 246–210-yillar – Xitoyda Sin Shixuandi hukmronligi.  
mil.avv. 206-yil – Xitoyda Sin sulolasiga qarshi qo‘zg‘olon.  
mil.avv. IV asr Buyuk Xitoy devori qurilishi boshlangan davr.  
mil.avv. I asr – Xitoyda qog‘oz ixtiro qilingan.  
III asr – Xitoyda Xan davlati uchta podsholikka parchalanib ketdi.  
II asr – Xitoyda “Sariq ro‘mollilar qo‘zg‘oloni” bo‘ldi.  
II asr – Astronom va matematik olim Chjan Xen tomonidan 124 ta yulduz turkumi, 2500 ta yulduzlarning nomini eslatib o‘tilgan.  
1822-yil Jak Fransua Shampanion qadimgi misr qabr toshlarini o‘qidi.

### **Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A1**

Tarixiy ilustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi;

Quyidagi tarixiy joylarni xaritadan ko‘rsata oladi:

Kirmonshoh shahri, Amudaryo, Sirdaryo, Farg‘ona, Zarafshon, Surxondaryo vohasi, Sharqiy va Janubiy Afrika, Zinj vodiysi, Yava oroli, Xitoy, Farg‘ona vodiysi, Seleng‘ur, Ko‘lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat, Ispaniyadagi Altamir, Fransiyadagi Lasko g‘orlari, Bo‘zsuv, Obishir, Machay, Zarutsoy, Sopollitera, Jarqo‘ton, Zamonbobo manzilgohlari, Misr, Memfis, Qohira, Rozett, Xattusa, Mitanni, Urartu, Kichik osiyo, Nil, Liviya cho‘li, Fiva, Falastin, Nubiya, Suriya. Old Osiyo, Suriya, Finikiya, Mesopotamiya, Shumer va Akkad, Bobil, Armaniston, Lidiya, Suza, Ekbatana, Eron, Hindiston, Mohenjodaro, Xarappa, Magadha, Malla, Panjob, Pataliputra, Xitoy, Chjou davlati.

#### **A2+**

fikrini tarixiy xaritalar va qo‘shimcha tarixiy materiallar yordamida hozirgi kun bilan bog‘lay oladi;

Mavzuga oid bo‘lgan tarixiy voqeyilikni bayon qilishda tarixiy atamalar, sanalar, shaxs nomlari, toponimik atamalarni sharhlay oladi.

### **24-mavzu: O‘zbekiston hududidagi ilk davlatlar. (A2: 2 soat, A2+: 4 soat)**

O‘zbekiston hududida qadimda aholining joylashishi. Miloddan avvalgi asrlarda xo‘jalikning rivojlanishi.

Ilk davlat birlashmalari – Qadimgi Xorazm va Baqtriya. So‘g‘d, Qiziltera. Yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Ko‘zaliqir.

**25-mavzu: Zardushtiylik. (A2: 2 soat (A2+: 4 soat)**

Zardushtiylikning vujudga kelishi tarixi. Zardusht. Zardushtiylikning tarqalishi. Ahuramazda, Mitra, Anaxita, Ahriman. "Avesto" zardushtiylik marosimlari.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

**3-BOB. QADIMGI YUNONISTON  
(A2: 12 soat, A2+: 24 soat)**

**26-mavzu: Antik tarixning boshlanishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Qadimgi Yunonistonning geografik joylashuvi, chegaralari, davlat boshqaruvi, aholining mashg'ulotlari. Minoy sivilizatsiyasining vujudga kelishi. Yunonlarning dengiz sayohatlari.

**27-mavzu: Qadimgi Yunonistonning yuksalishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Yunon polislari. Shahar davlatlar. Afina davlati. Sparta davlati. Yunon koloniyalari.

**28-mavzu: Buyuk yunon koloniyalashtirishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Yangi hududlarni o'zlashtirish sabablari. Yunon koloniyalarining tashkil topishi. Mil.avv. VIII-VII asrlar – yunon koloniyalarining tashkil topishi. Olviya, Xersones, Pantikapey koloniyalari.

**29-mavzu: Afinada demokratiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Afinada demokratiyaning shakllanishi. Drakont qonunlari. Salon islohotlari. Afinada demokratiya ravnaqi. "Prekl asri".

**30-mavzu: Yunon-fors urushlari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Ellada va Eron. Marafon jangi. Fermopol jangi. Salamin jangi.

**31-mavzu: Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Yunonistonning qulashi sabablari. Demosfen. Xeroney yaqinidagi jang. Yunoniston Makedoniya tarkibida.

**32-mavzu: Qadimgi Yunoniston madaniyati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Fuqarolar tarbiyasi. Olimpiya o'yinlari. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari. Yunonistonda teatr. Arxitektura va haykaltaroshlik. Fidiy va Dedal. Parfenon ibodatxonasi.

**33-mavzu: Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Qadimgi Yunonistonda ilm-fan. Geraklit, Demokrit, Diogen, Gerodot, Aristotel, Arximed, Afinalik donishmandlar. Platon, Sokrat.

**34-mavzu: Qadimgi Yunoniston afsonalari. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Qadimgi yunon afsonalarining qahramonlari. Qadimgi yunonlarning xudolari.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

**4-BOB. O'RTA OSIYO (TURON)  
(A2: 9 soat, A2+: 18 soat )**

**35-mavzu: O‘rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari. Doro I ning saklar ustiga yurishlari. To‘maris va Shiroq jasorati.

Ahamoniylar hukmronligi davrida davlatning boshqarilishi. Satraplik. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda madaniyat taraqqiyoti. Madaniyat.

**36-mavzu: O‘rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Turon xalqlarining qurollari va harbiy san‘ati. Spitamenning Makedoniyalik Aleksandr bosqinchiligiga qarshi kurashi.

Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga bostirib kirishining oqibatlari.

**37-mavzu: Salavkiylar davlati va Yunon Baqtriya podsholigi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Baqtriya va So‘g‘diyona Salavkiylar davlati tarkibida. Yunon Baqtriya davlati. Iqtisodiyot, madaniyat va xalqaro savdo aloqalarining rivoj topishi.

**38-mavzu: Qadimgi Xorazm. Qadimgi Dovon. Qadimgi Qang‘. (A2: 2 soat (A2+: 3 soat)**

Xorazm tarixi va madaniyati. Ko‘zaliqir, Jonbosqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a. O‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni. Qadimgi Dovon davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Dovon davlatining tashqi aloqalari. O‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni. Qadimgi Qang‘ davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Madaniy aloqalari. O‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni.

**39-mavzu: Qadimgi Kushon podsholigi. (A2: 2 soat (A2+: 3 soat)**

Kushon podsholigining tashkil topishi. Geografik joylashuvi. Kudzula, Kadfiz, Vima, Kanishka. Iqtisodiyotning rivojlanishi. Yozuv. Diniy e‘tiqodlar. Arxitektura va san‘at.

**40-mavzu: Buyuk ipak yo‘li. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Buyuk ipak yo‘lining vujudga kelishi, uning shaxobchalari va yo‘nalishlari. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 2 soat)**

## **5-BOB. QADIMGI RIM ( 10 soat, A2+: 20 soat)**

**41-mavzu: Italiya va uning aholisi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Italiyaning hududi va tabiiy sharoiti. Rimga asos solinishi. Qadimgi Rimda davlat boshqaruvi.

**42-mavzu: Rim Respublikasi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Respublikani boshqarish. Senat. Respublika. Diktator. “12 jadval qonunlari”.

**43-mavzu: Rim Respublikasi hayoti. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Rim shaharlarida hayot. Qadimgi rimliklarning xudolari. Diniy marosimlar va qohinlar.

**44-mavzu: O'rta yer dengizida hukmronlik uchun kurash. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Rim armiyasi. Puni urushlari. Karfagenning vayron etilishi. Rim provinsiyalari.

**45-mavzu: Qullar va gladiatorlar. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Rimda qullarning ahvoli. Gladiatorlar janji. Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon.

**46-mavzu: Rimda Respublikaning qulashi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Respublika qulashining sabablari. Sezar diktaturasi. Hokimiyat uchun kurash va uning oqibatlari.

**47-mavzu: Rim imperiyasining qulashi va zavlga yuz tutishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linishi. Imperiyaning qulashi. Varvarlar. Gotlarning Rimni ishg'ol etishi. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

**48-mavzu: Qadimgi Rim madaniyati. (A2: 2 soat (A2+: 3 soat)**

Rim quldorlari va kambag'allarning turmushi. Ta'lim. Arxitektura, haykaltaroshlik. Iso Masih, Xristianlikning muqaddas kitobi. Xristianlikning yo'yilishi.

**Takrorlash. (A2:1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:**

**Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:**

**A2**

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi:

Avesto, zardushtiylik, Turonning eng qadimgi davlatlari, sak va massagetlar, ilk shahar va davlatlar, satraplik, yunon polislari, minoy sivilizatsiyasi, shahar davlatlar, yunon koloniyalari, Afinada demokratiyasi, demos, demokratiya, respublika, senat, diktator, injil, bibliya, qul, gladiator;

Tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera oladi: Zardusht, Minoy, Drakont, Solon, Salavka, Diodot, Demetriy, Kudzula Kadfiz, Kanishka, Perikl, Demosfen, Gomer, Fidiy, Dedal, Geraklit, Demokrit, Diogen, Gerodot, Aristotel, Arximed, Platon, Chjan Xen, Suqrot, To'maris, Shiroq, Makedoniyalik Aleksandr, Spitamen, Iso, Spartak, Sezar, Oktavian, Trayan, Romul, Alarix, Attila;

Quyidagi tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi:

mil.avv. 1 mingyillik – zardushtiylikning tarqalishi.

mil.avv. IX-VIII asrlarda Avestoning ilk qismi paydo bo'lgan.

mil.avv. III asrda Zardusht vazlari matnlarining hammasi 21 ta kitobga jamlangan.



mil.avv. VII–VI asrlar – so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazimliklar ellatlari hamda sak va massaget qabilalari yashaganlar, qadimgi shaharlarda hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdo rivojlangan.

mil.avv. VII asr – Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi.

mil.avv. VII–IV asrlar – Qizilpeta, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Ko‘zaliqir shaharlarining rivojlanishi.

mil.avv. 530-yil – Kir II ning malika To‘maris tomonidan mag‘lubiyatga uchrashi va halok bo‘lishi.

mil.avv. 519-yil – Doro I qo‘shinlarining Shiroq tomonidan mag‘lub qilinishi.

mil.avv. 329-yil – Spitamen tomonidan Zarafshon daryosi qirg‘oqlarida bo‘lgan jangda yunon-makedon qo‘shinlarining tor-mor qilinishi.

ml.avv.. 328-yil – Spitamenning halok bo‘lishi.

ml.avv. 312-yil – Salavka hukmronligining boshlanishi.

ml.avv. 250-yil – Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi.

ml.avv. III asr – Qang‘ davlatining tashkil topishi.

ml.avv. III asr – Dovon davlatining tashkil topishi.

ml.avv. III asr – Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishi.

ml.avv. 140 yoki 130-yillar – Yunon-Baqtriya davlatining yuechji (kushon)lar tomonidan bosib olinishi.

milodiy II-III asrlar – Xorazmdagi Tuproqqal’a shaharining qurilishi.

305-yil – Xorazm davlati poytaxtining Tuproqqal’adan Katga ko‘chirilishi.

ml.avv. 3 mingyillik – Elam davlatining vujudga kelishi.

miloddan avvalgi 776-yil – Olimpiya o‘yinlarining birinchi bor o‘tkizilishi.

ml.avv. 753-yil – Rimning tashkil topishi.

ml.avv. VIII asrda Midiya qudratli davlatga aylandi.

ml.avv. 621-yil – Drakont qonunlarining qabul qilinishi.

ml.avv. 594-yil – Afinada Solon islohotlarining o‘tkazilishi.

ml.avv. 522-yil – Doro I ga qarshi Frada qo‘zg‘oloni.

ml.avv. 509-yil – Rimda Respublika e’lon qilinishi.

ml.avv. 490–449-yillar – Yunonfors urushlari.

ml.avv. 490-yil – Marafon tekisligidagi jang.

ml.avv. 480-yil – Fermopil jangi (300 spartalik jasorati).

ml.avv. 480-yil – Salamin jangi.

ml.avv. 443–429-yillar – Afinada strateg Perikl hukmronligi.

ml.avv. 338-yil – Xeronya yaqinidagi jang – makedoniyaliklar tomonidan yunonlarning tor-mor qilinishi.

ml.avv. 337-yil – yunon shaharlarining shahardavlatlar Ittifoqiga birlashishi.

ml.avv. 334-yil – Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi.

ml.avv. 330-yil – Makedoniyalik Aleksandr tomonidan Ahamoniylar saltanatining zabt etilishi.

ml.avv. 329-yil – Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedonlar tomonidan Maroqandani bosib olinishi.

ml.avv. 216-yil – Kann yaqinida Rim armiyasining tor-mor qilinishi.

I asrda qadimgi Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf “Aleksandr Makedonskiy tarixi” nomli asar yozgan.

### **Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

Quyidagi hududlarni xaritadan ko‘rsata oladi:

Qadimgi Xorazm va Baqtriya. Qiziltepa. Yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Qadimgi Yunoniston, Afina, Sparta, Ellada, Marafon, Fermopol, Salamin, Makedoniya, Parfenon, Baqtriya, So‘g‘diyona, Qadimgi Xorazm, Qang‘, Dovon, Ko‘zaliqir, Jonbosqal‘a, Qo‘yqirilganqal‘a, Tuproqqal‘a, Kushon, Qadimgi Rim, Italiya, Karfagen.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

##### **A2**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya oladi va javob beradi;

##### **A2+**

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi;

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

##### **A2, A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an‘analar va h.k.) hurmat qiladi;

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiqlik, diniy e‘tiqodi, milliy xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qiladi; jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi;

#### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

##### **A2, A2+**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantiradi, ma‘naviy va intellektual kamolotga intiladi;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholaydi, o‘zini nazorat qila oladi, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘ladi.

#### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

##### **A2**

tarixda yil hisobini o‘qiy oladi, tarixiy davrlarga oid chizmalarni o‘qiy oladi, rim raqamida yozilgan raqamlarni o‘qiy oladi.

miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o‘rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

##### **A2+**

hijriy yilni milodiy yilga aylantira oladi.

**O‘rganish uchun ajratilgan mavzular soni – 48 ta**

**Ajratilgan soat: (A2: 68 soat, A2+: 136 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - (A2: 2 soat, A2+: 2 soat)**

**Takrorlash uchun - (A2: 8 soat, A2+: 16)**

## **7-SINF**

### **O‘ZBEKISTON TARIXI**

**(A2: 51 soat, A2+: 68 soat)**

**(o‘quv yilining birinchi yarim yilligida bir soat,  
ikkinchi yarim yilligida ikki soat o‘qitiladi)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**A2**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

**A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni shontira bilish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

**A2+**

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholash:

**A2+**

fanga oid tanlovlarda ishtirok etish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2, A2+**

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

**1-mavzu: Kirish. “Diyorimiz jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri”**

**(A2, A2+: 1 soat)**

Kursning asosiy maqsad va vazifalari. Mamlakatimiz hududida yashagan aholining hayotidagi tub o‘zgarishlar haqida. O‘rganiladigan davrning o‘ziga xos xususiyatlari.

**I BOB. O‘RTA ASRLARDA YERGA EGALIK QILISH  
MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI  
(A2: 8 soat, A2+: 9 soat)**

**2-mavzu: Ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar. (A2, A2+: 1 soat)**

Qadimgi Turon. Yirik sug‘orish tarmoqlarining qazib chiqarilishi. Yerga egalik qilishning yangi shaklining qaror topishi va uning rivojlanishi. Qishloq jamoasining dehqon va unga qaram kadivar, koranda tabaqalarga ajralishi.

**3-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda. Xorazm. Xioniylar. Kidariy davlatlari. (A2, A2+: 1 soat)**

Xorazm davlati. Ko‘chmanchi chorvador, xioniy va kidariylarining kirib kelishi. Xioniylar. Kidariy. Davlat hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi. Aholining mashg‘ulotlari.

**4-mavzu: Eftallar davlati. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. (A2, A2+: 1 soat)**

Eftallar davlatining tashkil topishi, hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi, inqirozinining sabablari. Aholining mashgʻulotlari. Aholining hoʻjalik hayoti. Yer egaligi. Savdo va pul mumomalasi, til va madaniy aloqalar.

**5-mavzu: Oʻrta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida. (A2, A2+: 1 soat)**

Turk xoqonligining tashkil topishi, kengayishi, hududi. Turk xoqonligining boshqaruvi. Xoqonlikning boʻlinishi. Xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

**6-mavzu: Gʻarbiy Turk xoqonligi. (A2, A2+: 1 soat)**

Gʻarbiy Turk xoqonligining hududi, davlat boshqaruvi, tudunlar, yabgʻular, teginlar faoliyati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

**7-mavzu: Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Soʻgʻd ixshidlari, Tohariston yabgʻulari, Choch tudunlari, Iloq dehqonlari, Fargʻona ixshidlari boshqargan davlatlar. Boshqaruv maʼmuriyati, shaharlar meʼmorchiligi.

**8-mavzu: VI-VII asrlarda madaniy hayot. (A2, A2+: 1 soat)**

Yozuv va savod. Diniy eʼtiqod. Shaharlar. Musiqa va sanʼat.

**Takrorlash. (A2, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

## **II BOB. ARAB XALIFALIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR**

**(A2: 5 soat, A2+: 7 soat)**

**9-mavzu: Movarounnahrda arab xalifaligining oʻrnatilishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Movarounnahr hududi, geografik joylashuvi. Gʻarbiy Turk xoqonligining tugatilishi. Movarounnahr hududini arablar tomonidan zabt etilishi.

Arablar davrida oʻlkamizda mavjud boʻlgan yerga egalik shakllari.

**10-mavzu: Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Islom dinini qabul qilgan aholiga imtiyozlarning berilishi. Jizya, zakot, xiroj, ushr soliqlarning joriy etilishi.

**11-mavzu: Halifalikka qarshi xalq noroziligi. (A2, A2+: 1 soat)**

Xalifa Umar ibn Abdulazizning yerli xalqlar bilan kelishish siyosati. Gʻurak va Divashtich harakatlari. “Oq kiyimlilar” qoʻzgʻoloni, uning oqibatlarini.

**12-mavzu: Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Ummaviylar siyosatiga qarshi noroziliklarning vujudga kelishi. Abu Muslim. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Aholining mashgʻulotlari. Abbosiylar davrida Movarounnahrning boshqaruv usullari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

**Takrorlash. (A2, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

## **III BOB. MOVAROUNNAHRDA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI**

**(A2: 16 soat, A2+: 19 soat)**

### **2-mavzu: Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniy munosabatlari. (A2 1soat, A2+: 2 soat)**

Boburning siyosiy faoliyati. Shayboniyxonning Movarounnahr uchun kurashlarga qo'shilishi. Samarqand uchun kurash. Saripul jangi va uning ahamiyati. Boburning Movarounnahrni tark etishi. Bobur va Shayboniyxonlarning o'zbek davlatchiligidagi o'rni.

### **3-mavzu: Movarounnahrda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Shayboniyxonning Movarounnahrni egallashi. Xorazm va Xuroson uchun kurash. Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o'rtasidagi kurash. Bobur va shayboniylar o'rtasidagi kurash. Ko'li Malik va G'ijduvon janglari va uning ahamiyati.

### **Takrorlash. (A2, A2+: 1 soat)**

### **Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

## **II BOB. BUXORO XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO (A2: 11 soat, A2+: 18 soat)**

### **4-mavzu: Buxoro xonligining tashkil topishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Ubaydullaxon va Shayboniylar davlatining tiklanishi. XVI asrning 40-50-yillarida Shayboniylar o'rtasida o'zaro kurashlar. Toshkent, Samarqand, Balx va Buxoro xonliklari o'rtasidagi kurashlar. Navro'z Ahmadxon.

### **5-mavzu: Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Abdullaxon II ning hokimiyatga kelishi. Shayboniylar va Movarounnahrning birlashtirilishi. Harbiy siyosiy islohotlar. Buxoro shahrining poytaxt sifatida yuksalishi. Abdullaxon II ning ichki va tashqi siyosati. Shayboniylar sulolasining inqirozi.

### **6-mavzu: Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Ashtarxoniylar sulolasi va ularning Buxoroga kelishi sabablari. Shayboniylar inqirozi va Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi. Imomqulixon davrida hokimiyatning mustahkamlanishi. Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida ichki nizolar va Xiva xonligining Buxoroga hujumlari. Subxonqulixon davrida Xivaning bo'ysundirilishi. Ubaydullaxon II ning ichki siyosati. Uning pul islohoti. Islohotga qarshi g'alayonlar. Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Samarqandda Rajabxon isyoni. Hakimbiy Mang'it Otaliqning kuchayishi. Eron shohi Nodirshoh bosqini. Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiy Mang'itning hokimiyatga kelishi. Ashtarxoniylar inqirozi.

### **7-mavzu: Buxoro xonligida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Shayboniylar davrida markaziy va mahalliy boshqaruv: mansab va unvonlar, harbiy boshqaruv, qo'shin tuzilishi. Boshqaruvdagi an'analar va o'zgarishlar. Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvidagi ayrim o'zgarishlar. Xonlikning hududi, aholisi. Ijtimoiy iqtisodiy hayot. Qishloq xo'jaligi. Shayboniylar o'tkazgan islohotlar. Iqtisodiy hayot. Yer egaligi. Soliq va majburiyatlar.

### **8-mavzu: Buxoro xonligida madaniy hayot. (A2, A2+: 1 soat)**

Madaniy hayot. Ilm-fan, Maktab va madrasada o'qish, tarixnavislik, adabiyot va san'at, me'morchilik.

### **9-mavzu: Buxoro xonligining tashqi siyosati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Buxoro xonligining hududi, geografik joylashuvi. Buxoro xonligining tashqi siyosati: Buxoro xonligi – Usmonli turklar munosabatlari. Buxoro va Eron munosabatlari. Buxoro – Rossiya munosabatlari. Buxoro - Hindiston munosabatlari. Elchiliklar. Tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari.

### **10-mavzu: Buxoro amirligining tashkil topishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Ashtarxoniylar inqirozi. Muhammad Raximxon Mang'itning hokimiyatga kelishi. Markaziy davlat hokimiyatining mustahkamlanishi va viloyatlarning bo'ysundirilishi. Doniyolbiy davrida ichki nizolar. O'zbek urug'lari amirlarining

isyon va qo'zg'olonlarning kuchayishi. Shohmurodning hokimiyatga kelishi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Qarshi shahri nufuzi ortishi. Amir Haydar davrida siyosiy keskinlik va qo'zg'olonlar.

Xiva xonligining Buxoroga hujumlari. Buxoroning chegara hududlar uchun Qo'qon xonligi bilan urushlari. Amir Nasrullo davrida harbiy islohotlar va davlat hokimiyatining mustahkamlanishi. Buxoroning hududiy yaxlitligi tiklanishi. Qo'qon xonligining bosib olinishi. Buxoro – Xiva munosabatlari. Shahrisabz – Kitob beklilari.

**11-mavzu: Buxoro amirligining tashqi siyosati. (A2, A2+: 1 soat)**

Amirlikda tashqi savdo va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari. Antoniy Jenkinsonning O'rta Osiyoga kelishi. Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston, Qozoq juzlari va O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqlari. Mintaqada Angliya-Rossiya raqobatchiligi. Raqobat sabablari. Ingliz ekspeditsiyalari.

**12-mavzu: Buxoro amirligining davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Davlat tuzumi va ma'muriy boshqaruvi harbiy islohotlar. Mamlakatning ma'muriy bo'linishi. Davlat lavozimlari. Buxor xonligi hududi. Aholining etnik tarkibi. Qishloq xo'jaligi. Suv inshootlari va sug'orish tizmi. Buxoro xonligida yer egaligi. Dehqonlar va chorvador aholining ahvoli. Yirik markaziy shaharlar Buxoro, Samarqand va Toshkentning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda tutgan o'rni. Jo'ybor xo'jalarining mavqei. Hunarmandchilik ichki va tashqi savdo. Buxoro xonligida pul munosabatlari va islohotlari. Davlatning soliq siyosati.

**13-mavzu: Buxoro amirligida madaniy hayot. (A2, A2+: 1 soat)**

Tarix ilmi, adabiyot, san'at, me'morchilik va musiqaning rivojlanishi.

**Takrorlash. (1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (1 soat)**

### **III BOB. XIVA XONLIGI**

**(A2: 9 soat, A2+: 15 soat)**

**14-mavzu: Xiva xonligining tashkil topishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Safaviylarga qarshi Vazir va Urganch shaharlaridagi kurash. Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. XVI asrda Xiva-Buxoro munosabatlari.

**15-mavzu: XVII-XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Siyosiy parokandalik. Inoqlar. Xiva – Buxoro munosabatlari. Xiva xonligida chet davlatlar manfaatlarining to'qnashuvi. Abulg'ozixon va Anushaxon davrida Buxoro – Xiva o'rtasidagi urushlar. Shohiniyozxon va Sherg'ozixon davrida Xiva – Rossiya munosabatlari. Elbarsxon davrida Eron shohi Nodirshoh hujumi.

**16-mavzu: Xiva xonligiga qo'ng'irotlar hukmronligi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Xivada siyosiy parokandalik. Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Qo'ng'irot inoqlarining hokimiyatga kelishi (1770-1920). Muhammad Raximxon I davrida Xiva xonligining birlashtirilishi. Islohotlar. Kengash (Devon) ta'sis etilishi. Oллоhquli davrida Xiva xonligi.

**17-mavzu: Xiva xonligida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Saroy unvonlari: harbiy ma'muriy va diniy amaldorlar. Xonlikning ma'muriy tuzilishi va ijtimoiy tizimi. Harbiy, sud va soliq tizimi. Xonlikning hududi va aholisi. Mamlakatning ma'muriy boshqaruv tizimi. Yer egaligi. Soliq va majburiyatlar. Shahar va shaharliklarning turmush tarzi. Vazir, Ko'hna Urganch, Yangi Urganch va Xiva Xorazm poytaxtlari sifatida. Hunarmandchilik va chorvachilik. Ichki va tashqi savdo.

**18-mavzu: Xiva xonligining tashqi siyosati. (A2, A2+: 1 soat)**

Xiva xonligining qo'shni davlatlar – Buxoro, Eron, Usmonli va Rossiya davlatlari bilan munosabatlari. Rossiya va Angliyaning Xiva xoligiga uyushtirgan ekspeditsiyalari va uning maqsadlari.

**19-mavzu: Xiva xonligida madaniy hayot. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Adabiyot va tarixnavislik. Ilm-fan. Madrasa ta'limi. Me'morchilik. Yevropa sayohatchilari tomonidan yozib qoldirilgan asarlar.

**20-mavzu: XVI-XIX asr birinchi yarmida qoraqalpoqlar. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Qoraqalpoq urug'larining joylashuvi. Qoraqalpoqlar Xiva xonligi tarkibida. Qoraqalpoqlarning xo'jalik hayoti. XIX asrning 20-40-yillarida qoraqalpoqlar va ularning ruslar bilan munosabati. Qoraqalpoqlarning o'z mustaqilligi uchun kurashi. Savdo va hunarmandchilik. Chorvachilik va dehqonchilikning kuchayishi. Qoraqalpoq xonligining tashkil topishi. Qoraqalpoqlarning Rossiya va Xiva bilan munosabatlari.

**21-mavzu: Qoraqalpoqlarda madaniy va ma'naviy hayot (A2, A2+: 1 soat)**

Qoraqalpoqlar hayoti. Ilm-fan. Xalq turmushi. Shaharsozlik. Yozma adabiyot. Xalq og'zaki ijodi, folklor.

**Takrorlash. (1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

#### **IV BOB. QO'QON XONLIGI**

**(A2: 9 soat, A2+: 11 soat)**

**22-mavzu: Qo'qon xonligining tashkil topishi. (A2, A2+: 1 soat)**

Ashtarxoniylar Ubaydullaxon davrida Farg'onada mustaqil davlatning tuzilishi. Minglar sulolasining hokimiyatga kelishi. Shohruhbiy va uning vorislari davrida Qo'qon xonligi hududi kengayishi.

**23-mavzu: XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy holat. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Toshkent bekligi. Toshkent Rossiya aloqalari. Erdonobiy va Norbo‘tabek davrida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Olimxon davrida Qo‘qonning siyosiy mavqei kuchayishi. Toshkent bekligining bo‘ysundirilishi. Umarxon davrida Qo‘qonning yuksalishi. Qo‘qon-Buxoro munosabatlarining keskinlashuvi. Xudoyorxon davrida qipchoqlarning kuchayishi va Musulmonqul faoliyati. Qipchoqlar qirg‘ini. Rossiyaning Qo‘qon xonligiga qarshi hujumlari.

**24-mavzu: Qo‘qon xonligining tashqi siyosati. (A2, A2+: 1 soat)**

Qo‘qon – Xitoy munosabatlari. Qo‘qon va qo‘shni davlatlar munosabatlari. Qo‘qon-Rossiya munosabatlari.

**25-mavzu: Qo‘qon xonligining davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. (A2, A2+: 1 soat)**

Qo‘qon xonligining davlat boshqaruv tizimi va ma‘muriy tuzilishi. Ijtimoiy tabaqalar. Harbiy-ma‘muriy amaldorlar. Yer egaligi, soliqlar va majburiyatlar. Hunarmandchilik va savdo. Shaharlar hayoti. Qo‘qon, Andijon, Namangan, Toshkent.

**26-mavzu: Qo‘qon xonligida madaniy hayot. (A2, A2+: 1 soat)**

Umarxon va madaniy muhitning shakllanishi. Maxmur va Gulxaniy. Uvaysiy, Nodira, Mashrab. Tarixnavislik, san‘at va me‘morchilik.

**Takrorlash. (A2, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

**O‘lkashunoslik darsi. (A2, A2+: 2 soat)**

**Nazorat ishi. (A2, A2+: 1 soat)**

**O‘quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:**

**Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:**

**A2**

tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

mazkur davrni o‘rganish orqali o‘quvchilar tarix fanining o‘rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi:

Dashti qipchoq, To‘lg‘ama, Ro‘jalar, mubayin, naqib, miyonqol, parokandalik, Dor ush-shifo, xarvor, tanob, maqom, noib, g‘ozi, inoq, lavvoh, sahhof, Muzahhib, Ichan qa‘la, Deshon qa‘la, marsiya, bakovulboshi, daftardor, Dashti Qipchoq, Poloveslar yeri, Kumanlar, Qipchoqlar, «O‘zbek ulusi», To‘lg‘ama, Konigil, Ko‘li Malik, G‘ijduvon, «Bog‘i Orom», «Bog‘i Kalon», «Bog‘i Bobur», «Boburnoma», «Mubayyin», Bobur milliy bog‘i», «Bobur va jahon adabiyoti», Shayxulislom, Buxoro xonligi, «O‘zbek». Dargoh, devonbegi (bosh vazir), naqib, otaliq, parvonachi, Dodoxoh, Ko‘kaldosh, shikog‘aboshi, Shayxulislom, Qozikalon, muhtasib (rais), miroxur, shig‘ovul, akovulboshi, qo‘rchiboshi, jarchi, tavonchi, Mirzaboshi, Munshiy, Mehtar, xiroj, ixrojot, iftixor ul-atibbo (tabiblar iftixori), «Abdullanoma» («Sharafnomayi shohiy»), tarixi Rashidiy», «Tarixi Toshkand», «Badoe ul-vaqoe», «Shayboniynoma», «Sharhnomayi shohiy», «Mehmonnomayi Buxoro», Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Shayboniyxon madrasasi, Baroqxon madrasasi, Ko‘kaldosh

madrasasi, Parokandalik, Miyonqol, Mulki sultoni, suyurg'ol, Mulki xurri xolis, vaqf mulki, «Xoqonga foydali maslahatlar», «Baxr ul-asror» («Sirlar dengizi»), «Ubaydullanoma», «Muhit ut-tavorix», «Abulfayzxon tarixi», «To'rt unsur», «Irfon», Abulma'oniy», «Ma'nolar otasi»), «Zafarnoma», «Dor ush-shifo», Sherdor madrasasi, Tillakori madrasa-masjidi, Labihovuz ansambli, Nodir devonbegi madrasasi;

Quyidagi shaxslar haqida ma'lumot bera oladi: Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko'chkinchixon, Ubaydullaxon, Jonibek Sulton, Abdullaxon II, Abdulmo'min, Pirmuhammadxon, Boqi Muhammadxon, Vali Muhammadxon, Nodir Muhammadxon, Abdulazizxon, Subxonqulixon, Ubaydullaxon II, Abulfayzxon, Muhammad Rahimbiy. Amir Shohmurod, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Elbarsxon, Arab Muhammad, Abulg'ozzi Bahodirxon, Sherg'ozixon, Muhammad Amin inoq, Nodirshoh, Muhammad Rahimxon I, Ollohqulixon, Muravyov, Sialkovskiy, Perovskiy, Danilevskiy, Oydo'stbiy, Berdaq, Ajiniyoz. Kunxo'ja, Otash Olshinboy, Shohruxbiy, Abdurahimbiy, Abdukarimbiy, Erdonabiy, Norbo'tabiy, Olimxon, Amir Umarxon, Muhammad Alixon, Maxmur, Gulxaniy. Uvaysiy, Nodira, Mashrab, Antoniy Jenkinson, Petr.

Quyidagi tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi:

**1428-1468-yillar** «O'zbek ulusi»da Abulxayrxonning hukmronligi.

**1428-yil** Abulxayrxon Sharqiy Dashti Qipchoqni egallab, alohida davlatga asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat «O'zbek ulusi» (o'zbeklar mamlakati) deb ham ataladi.

**1447-yil** Xuroson hukmdori Shohrux vafot etishi va Xuroson davlatining parchalanishi.

**1468-yil** Abulxayrxon vafot etishi bilanoq, «O'zbek ulusi» parchalanib ketdi.

**1469-1506-yillar** Xurosonda Sulton Husayn Boyqaroning hukmronligi.

**1483-yil 14-fevral – 1530-yil 26-dekabr** Bobur Mirzoning yashagan yillari.

**1493-1529-yillar** Bobur «Boburnoma»da bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi.

**1494-1495-yillar** Movarounnahrda Sulton Mahmudning hukmronligi.

**1494-yil** Bobur Mirzoning amakisi Sulton Ahmad Mirzo Farg'ona ustiga yurish.

**1495-1497-yillar** Movarounnahrda Boysung'ur Mirzoning hukmronligi.

**1496-yil 17-iyun** Bobur Mirzo birinchi marta Samarqandga yurishi.

**1497-yil noyabr oxiri** Bobur Mirzo Samarqand taxtini egallaydi.

**1499-yil** Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etishni boshlashi.

**1500-1556-yillar** yetuk tarixchi olim Mirza Muhammad Haydar yashagan yillar.

**1500-yil kuz** Bobur Mirzo Samarqandga yurish boshladi. Bobur Mirzo Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi.

**1501-yil** Muhammad Shayboniyxon Samarqandni uzil-kesil egalladi.

**1501-1601-yillar** – Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi.



**1503-yil** Shayboniyxon tomonidan Toshkent va Shohruxiya shaharlari egallanadi.

**1504-yil** Farg‘ona zabt etildi. Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilandi.

**1504-yil sentabr** Bobur Mirzo Kobulga borib, bu yerda hokimiyatni qo‘lga kiritdi.

**1505-yil** Muhammad Shayboniyxon Urganch shahrini bosib oldi.

**1506-1509-yillar** Shayboniyxon tomonidan Xuroson zabt etildi.

**1506-yil** Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi.

**1507-yil** Shayboniyxon tomonidan pul islohoti o‘tkazildi.

**1510-yil** Shayboniyxon va Eron hukmdori shoh Ismoil qo‘shini to‘qnashdi. Marv yaqinida bo‘lgan jangda Muhammad Shayboniyxon qo‘shinlari yengildi.

**1511-yil kuzi** Bobur Eron shohi Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo‘lga kiritdi.

**1526-1858-yillar** Boburiylar saltanati 332-yil hukmronlik qildi.

**1533-1540-yillar** Movarounnahrda Ubaydullaxon hukmronligi.

**1534-1598-yillar** Abdullaxon II hayot faoliyat ko‘rsatgan yillar.

**1540-1541-yillar** Buxoro xonligida Abdullaxon I ning hukmronligi.

**1556-yil** Ivan Grozniy Hojitarxon (Astraxan, Ashtarxoniylar) xonligini bosib oldi.

**1556-yil** Muhammad Islomning ko‘magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi.

**155-1561-yillar** – Buxoro xonligida Pirmuhammadxon I ning hukmronligi.

**1558-yil** «Moskva savdo kompaniyasi» vakili Antoniy Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan Buxoroga yuboriladi.

**1578-yil** Abdullaxon II Samarqandni, 1583-yil Toshkent va Farg‘onani, 1584-yil Badaxshonni zabt etdi.

**1598-1601-yillar** – Buxoro xonligida Pirmuhammadxon II hukmronligi.

**1598-yil fevral** Shayboniy Abdullaxon II vafot etgach, taxtni uning o‘g‘li Abdulmo‘min egalladi.

**1601-yil** Pirmuhammadxon bilan ashtarxoniy Jonibek Sultonning o‘g‘li Boqi Muhammad o‘rtasida Samarqand yaqinidagi Bog‘i Shamol mavzeyida jang bo‘ladi.

**1799-1880-yillar** qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Kunxo‘ja Ibrohim yashagan yillar.

**1809-yil** Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo‘ysundirildi.

**1810-1811-yillar** Yangidaryo (Janadaryo) atrofida yashovchi qoraqalpoqlar ham tobe etildi. Shu tariqa qoraqalpoqlarni Xiva xonligiga bo‘ysundirish nihoyasiga yetkazildi.

**1824-1878-yillar** qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri Ajiniyoz Qo‘siyob o‘g‘li (taxallusi Zevar) yashagan yillar.

**1827-1900-yillar** qoraqalpoq xalqi adabiyotining asoschisi Berdaq (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li) yashagan yillar.

**1710-1721-yillar** – Farg‘ona vodiysida Shohruxbiyning hukmdorligi davri.

**1710-yil** Qo‘qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi.

**1733-1750-yillar** – Qo‘qon xonligida Abdulkarimbiy hukmdorligi. U Eskiqo‘rg‘on qal‘asi yonida hozirgi Qo‘qon shahriga asos solib, o‘z poytaxtini Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qon shahriga ko‘chiradi. Shahar atrofini devor bilan o‘ratadi.

**1784-yil** to‘rt hokimlik tugatilib, yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi natijasida mustaqil Toshkent hokimligi tashkil topdi.

**1787-1822-yillar** – Umarxon yashagan yillar.

**1798-1810-yillar** – Olimbekning davrida Qo‘qonning siyosiy mavqeyi yanada kuchaydi. U Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirdi.

**1799-yil** Toshkentni bo‘ysundirish maqsadida Qo‘qon xoni Olimxon qo‘shinlari Toshkentga yurish boshlaydilar. Yunusxoja ularga qarshi o‘z qo‘shini bilan chiqib, Chirchiq bo‘yidagi Qorasuv mavzeyida ularga zarba beradi.

**1800-yil kuzi** Qo‘qon xonligi va Toshkent qo‘shinlari o‘rtasidagi asosiy jang Sirdaryo bo‘yidagi G‘urumsaroy (Namangan viloyatiga qaraydi) yaqinida bo‘lgan. Bu jangda Toshkent qo‘shini yengilgan.

**1805-yil** Olimbek o‘z davlatini rasman Qo‘qon xonligi deb, o‘ziga esa «xon» rutbasini oldi va uni Olimxon deb atay boshlashdi.

**1809-yil** Toshkent Qo‘qon xonligiga qo‘shib olinadi. Shu tariqa, Toshkent mustaqilligi butunlay barham topdi.

**1810-1822-yillar** Umarxon hukmdorligi davri.

**1819-1822-yillar** Namangan aholisi kuchi bilan katta Yangi ariq kanali qazilib, shaharning suv ta‘minoti yaxshilangan.

**1822-1842-yillar** Muhammad Alixon (Madalixon) davrida Qo‘qon xonligining hududi ancha kengaydi.

**1842-1845-yillar** Namangan shahri baland devor bilan o‘ralgan.

**1842-yil** Amir Nasrullo qo‘shinlari Qo‘qonga yurish qiladi. Qo‘qon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi.

**1619-yil** Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi.

**1700-yil** Xiva xoni Shohniyoz Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so‘ragan.

**1715-yil** «Buxgols ekspeditsiyasi».

**1717-yil** Bekovich Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi Xiva xonligi hududida bo‘ladi.

**1717-yil** Buxoro xoni Peterburgga o‘z elchisini yuboradi.

**1721-1725-yillar** Rossiya hukumati elchisi Florio Benevening Buxoradagi faoliyati.

**1825-yil fevral** Murkford ekspeditsiyasi Buxoroga yetib keldi.

**1826-yil** Rossiya hukumati polkovnik F. Berg boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyoga boradigan yo‘llarni yanada aniqroq belgilab oldi.

**1831-yil** inglizlar Markaziy Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenanti Aleksandr Byorns boshchilik qildi.

**1832-yil** Pekinda Xitoy-Qo‘qon shartnomasi imzolangan.

**1839-yil** Rossiya Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenburg gubernatori V.A. Perovskiy rahbarlik qilgan edi.

**Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

Quyidagi hududlarni xaritadan ko‘rsata oladi:

Movarounnahr, Xuroson, Dashti Qipchoq, Xorazm, Eron, Buxoro xonligi, Samarqand, Buxoro, Xiva xonligi, Ko‘hna Urganch, Vazir shahri, Ichanqal‘a, Dishanqal‘a, Qo‘qon xonligi, Toshkent bekligi, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Toshkent, Afg‘oniston. Balx, Miyonqol, Marv, Shahrisabz, Yangi Urganch, Axxi, Tepaqo‘rg‘on, O‘sh, O‘zgan.

**A2+**

mavzuga oid o‘rganilgan qabilalar va davlatlari hududlarini zamonaviy xaritadan ko‘rsata oladi.

mavzuga oid ma‘lumotlarni tarixiy, ilmiy badiiy manbalardan mavzuga oid qismlarini topa oladi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:  
Kommunikativ kompetensiya:**

**A2**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya oladi va javob beradi;

ijtimoiy moslashadi, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi.

**A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila biladi, uni ishontira biladi;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqara oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana oladi.

**A2+**

media vositalardan zarur bo‘lgan (tarixiy, ilmiy, badiiy) axborotlarni izlab topa oladi, saralaydi, qayta ishlaydi, uzatadi, saqlaydi, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qiladi.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib boradi, jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholay oladi.

**A2+**

fanga oid tanlovlar va tadbirlarda ishtirok etadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi, unga rioya qiladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2, A2+**

orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi,

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) biladi, unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi;

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qiladi;

xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy oladi va foydalana oladi;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladi.

**(A2)**

Mavzularni o‘rganish uchun – 26 soat

Nazorat ishlari uchun – 1 soat

Takrorlash uchun – 3 soat

Manbalar bilan ishlash – 4 soat

Jami: 34 soat

**(A2+)**

Mavzularni o‘rganish uchun – 52 soat

Nazorat ishlari uchun – 2 soat

Takrorlash uchun – 6 soat

Manbalar bilan ishlash – 8 soat

Jami: 34 soat

**8-SINF**  
**JAHON TARIXI**  
**(A2: 34 soat, A2+:51 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**A2**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

**A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni shontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

**A2+**

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholash.

**A2+**

fanga oid tanlovlarda ishtirok etish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**

**A2, A2+**

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2, A2+**

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**Kirish. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

“Yangi tarix” tushunchasi. Osiyoda yangi jamiyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Yangi davr tarixini davrlashtirish. Yangi tarixning birinchi va ikkinchi bosqichlari. Yangi tarixning asosiy manbalari.

## **I BOB. XVI-XVIII ASRLARDA YEVROPA, AMERIKA VA OSIYO DAVLATLARI**

**(A2: 12 soat, A2+: 20 soat)**

**2-mavzu: Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Texnikaning rivojlanishi: buyuk ixtirolar, metallurgiya va metallga ishlov berishning takomillashuvi, harbiy texnikaning rivojlanishi, uning oqibatlari. Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablari.

Yevropalik sayyohlarning dengiz sayohatlaridan maqsadlari. Beruniy ilmiy xulosalarining isbotlanishi.

Yevropa uchun geografik kashfiyotlarning oqibatlari. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi. Ispan, portugallarning talonchilik, bosqinchilik siyosatlarini. Bosib olingan yerlarning mustamlakaga aylantirilishi. Qul savdosi.

**3-mavzu: Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar. Savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar. Ishlab chiqarishning vujudga kelishi. Sanoat korxonalarining rivojlanishi. Shaharlarning rivojlanishi.

**4-mavzu: Yevropada reformatsiya. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Katolik cherkovi va unga qarshi umumiy norozilik. Germaniyaning siyosiy jihatdan tarqoqligi. Dehqonlarning katta yer egalari qarshi kurashi. Germaniyada katolik cherkovi. Reformatsiya. Germaniyada reformatsiya va dehqonlar urushining ahamiyati. Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishi. Katolik cherkovining reformatsiyaga qarshi kurashi.

**5-mavzu: Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. XVII asrda Angliya burjua inqilobi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Mutlaq monarxiya. XVI asrning Angliya tarixidagi o'rnini. Kontreformatsiya. Angliya Yelizaveta I hukmronligi davrida. Yengilmas armadaning mag'lub etilishi. Dengiz hukmronligi uchun kurash. Ingliz burjua inqilobining boshlanish sabablari. Angliyada sotsial-iqtisodiy sharoit. Feodal tartiblarning jamiyat taraqqiyotiga to'sqinligi. Inqilobning asosiy sabablari, inqilobning boshlanishi.

Fuqarolar urushi va uning oqibatlari. Armiyadagi islohot. Neyzbi jangi. Parlamentning mo'tadil burjua islohotlari. Agrar qonunlar. Armiya va parlament ixtiloflari. Levellerlar harakati. Respublikaning e'lon qilinishi. Ingliz burjua inqilobining xarakteri va tarixiy ahamiyati. Anliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi. Davlat tuzumi. Tashqi siyosat. Qishloq xo'jalidagi o'zgarishlar. Sanoat. Sanoat inqilobining yuz berishi va natijasi.

**6-mavzu: Angliyada Parlament islohotlari (manbalar bilan ishlash). (A2+: 1 soat)**

**7-mavzu: Fransiyada mutlaq monarxiya. Fransiya burjua inqilobi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Fransiyada agrar munosabatlar. Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi. Dehqonlarning ahvoli. Manifaktura va savdoning rivojlanishi. Fransiyada burjuaziya va dvoryanlar, ularning daromad manbai. Rishelening mamlakatni idora qilishi. Ichki va tashqi siyosat. Fransiyada mutlaq monarxiyaning kuchayishi, dehqonlar ahvoli. Yakobinchilarning hokimiyat tepasiga kelishi. Yakobinchilarning ichki siyosati. Yakobinchilar partiyasi. Direktoriya. 1799-yil 19-noyabrdagi davlat to'ntarishi. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyati.

**8-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

XVI-XVII asrlarda Rossiyadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat. Dvoryanlarning kuchayishi. Rossiyaning tashqi siyosati. Qozon va Sharqiy Sibirning bosib olinishi. Astraxan xonligining bo'ysundirilishi. Boltiq dengiziga chiqish uchun kurash. Rus xalqining polyak va shved bosqinchilariga qarshi kurashi. Moskvaning egallanishi. Bosqinchilarning haydab chiqarilishi. Barshchina xo'jaligi. Yangi iqtisodiy islohotlar. Manufakturaning vujudga kelishi. Butun Rossiya bozorining shakllanishi. Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanish jarayoni. Ichki va tashqi siyosat. Qora dengizni egallash uchun urinish.

**9-mavzu: Yevropada Uyg'onish davri madaniyati. (A2: 2 soat, A2+ 3 soat)**

Uyg'onish davri madaniyatining yuksalish sabablari. Antik madaniyatga bo'lgan qiziqish. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Italiya uyg'onish davrining san'ati va uning namoyandalari. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael. Germaniya, Gollandiya, Ispaniyaning buyuk san'at ustalari, ularning san'at asarlarida hayotiy haqiqatlarning aks etishi.

Gumanist insonparvar yozuvchilar: Tomas Mor, Shekspir, Servantes, Fransua Rable asarlarida insoniy his-tuyg'ular, insonparvarlik g'oyalarning aks etishi.

Ilm-fan taraqqiyoti. Tabiat fanlari sohasidagi buyuk yangiliklar. Fanning taraqqiyoti. Matematika, astronomiya, tibbiyot, tasviriy san'at, me'morchilik. Nikolay Kopernik, uning ta'limoti. Jordano Bruno, Galileo Galiley kashfiyotlari.

**10-mavzu: Yevropada gumanistik adabiyot (manbalar bilan ishlash). (A2+: 1 soat)**

**11-mavzu: XVIII asrlarda Shimoliy Amerika. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Shimoliy Amerikaning tub aholisi bilan kelgindilar o'rtasidagi munosabat. «Mustaqillik deklaratsiyasi». AQShning tashkil topishi. AQSh Konstitutsiyasi, Mustaqillik uchun olib borilgan urushning natijalari, ahamiyati va saboqlari.

**12-mavzu: AQShning mustaqillik deklaratsiyasi (manbalar bilan ishlash). (A2+: 1 soat)**

**13-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Iqtisodiy ahvol. Siyosiy tuzum. Germaniyaning xalqaro ahvoli. Prussiya qirolligining tashkil topishi.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

## **II BOB. XVI-XVIII ASRLARDA OSIYO MAMLAKATLARI**

**(A2: 6 soat A2+: 8 soat)**

**14-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Hindiston. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. Imperiyadagi ichki va tashqi siyosat. Ijtimoiy-iqtisodiy Angliya va Hindiston munosabatlari.

**15-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Xitoy. (A2: 1soat, A2+: 1 soat)**

XVI asrda Xitoydagi siyosiy hayot. Ichki siyosiy kurash. Manjurlar hukmronligi. Min sulolasining halokati. Bosqinchilik siyosati.

**16-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Yaponiya. (A2: 1soat, A2+: 2 soat)**

XVI asrda Yaponiyadagi siyosiy ahvol. Yevropaliklarning kirib kelishi. Yaponiyani birlashtirish uchun kurashning davom etishi. Yaponiyani birlashtirishning tugallanishi. O'zini o'zi ajratib qo'yish. Yosimune islohotlari.

**17-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Usmonli Turklar imperiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Imperiyaning yuksalishi. Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. Ichki va tashqi siyosat.

**18-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Eron. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Safaviylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Shoh Abbos I hukmronligi davri. Safaviylar davlatining barham topishi. Afg'onlar istilosi. Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Xojarlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**



### III BOB. 1800-1870-YILLARDA YEVROPA DAVLATLARI

(A2: 7 soat, A2+: 9 soat)

#### **19-mavzu: 1800-1870-yillarda Buyuk Britaniya. (A2: 1soat, A2+: 1 soat)**

XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Sanoatdagi o'zgarishlarning yuksalishi. Angliyaning dunyo ustaxonasiga aylanishi. Angliyaning siyosiy o'sishi va mustamlakachilik siyosati. Parlament islohoti. Tashqi siyosat. "Oq koloniyalar".

#### **20-mavzu: 1800-1870 -yillarda Fransiya. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

XIX asrning boshlarida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Fransiya birinchi imperiya. Istilochilik urushlari. Imperiyaning zaiflashuvi. Fransiya-Rossiya urushi. Imperiyaning qulashi. Burbonlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Vena kongressi. "Muqaddas ittifoq". Fransiya ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi. Iyul monarxiyasi. Iyul monarxiyasi inqirozi. 1848-yil inqilobi, sabablari va uning natijasi. Ikkinchi imperiya.

#### **21-mavzu: 1800-1870-yillarda Germaniya va Italiya. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Germaniyada inqilobning sabablari va maqsadlari. Germaniyaning birlashuvi. Otto fon Bismark faoliyati. Italiyaning birlashtirilishi. K.B.Kavurning faoliyati.

#### **22-mavzu: 1800-1870-yillarda Rossiya. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Samaderjavie va krepostnoylikka qarshi kurash. Nikolay I hukmronligi va boshqaruvi. Krepostnoy huquqining yemirilishi. Islohotlarning tarixiy ahamiyati. Tashqi siyosat .

#### **23-mavzu: 1800-1870-yillarda Amerika. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Amerika Qo'shma Shtatlari. AQShning iqtisodiy taraqqiyoti. Plantatsiya xo'jaligi. Abolitsionistlar. Quldorlar isyoni. Fuqarolar urushi. Fuqarolar urushining natijalari.

#### **21-mavzu: Lotin Amerikasi xalqlarining milliy ozodlik kurashi. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. Meksikada mustaqillik urushi. Venesuela, Peru, Braziliya, Argentina, Urugvay mustaqilligi. Mustaqillik yo'lidagi urushlarning tugashi.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

### IV BOB. 1800-1870-YILLARDA OSIYO VA AFRIKA

#### MAMLAKATLARI

(A2: 9 soat, A2+: 12 soat)

#### **22-mavzu: 1800-1870-yillarda Hindiston. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Ingliz mustamlakachilik tartibi. Sipohiyalar qo'zg'oloni. Boburiylar sulolasining tugatilishi. Hind ziyolilarining faoliyati.

#### **23-mavzu: 1800-1870-yillarda Xitoy. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Sin imperiyasi qudratining zaiflashuvi. Birinchi “af’yun urushi”. Ikkinchi “af’yun urushi”. Dehqonlar urushi va taypinlar davlati. Taypinlar mag’lubiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.

**24-mavzu: 1800-1870-yillarda Yaponiya. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Yaponiyaning kuch bilan “ochilishi”. “Ma’rifatli boshqaruv” davrining boshlanishi. Meydzi islohotlarining boshlanishi. Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari.

**26-mavzu: 1500-1870-yillarda Koreya. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Choson davlati, Yanchjon islohotlari. Manchjur va yapon bosqinchilariga qarshi kurash. 30-60-yillarda Koreya.

**26-mavzu: 1800-1870-yillarda Usmonli turklarimperiyasi. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Davlat tuzumi. “Sharq masalasi”. Sharq masalasining keskinlashuvi. Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi.

**27-mavzu: Eron va Afg’oniston. (A2: 1 soat, A2+: 2 soat)**

Mustaqillik uchun kurash. Afg’oniston-Eron munosabatlari. Afg’oniston davlatining tashkil topishi. Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Afg’oningliz urushi. Afg’oniston 1842-1870-yillarda xalqaro munosabatlarda. Eronning xalqaro ahvoli. Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Bobiylar qo’zg’oloni, uning yengilish sabablari. Eron-Buyuk Britaniya urushi.

**28-mavzu: 1800-1870-yillarda Afrika xalqlari. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

Afrika qit’asining o’ziga xos xususiyatlari. Afrikaning bo’lib olinishi. Liberiya. Efiopiya. Janubiy Afrikaning mustamlakaga aylanishi. Fransiya mustamlakalari.

**Takrorlash. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Manbalar bilan ishlash. (A2+: 1 soat)**

**Nazorat ishi. (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**O’quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Tarixiy voqeiylikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:**

**A2**

tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

mazkur davrni o’rganish orqali o’quvchilar tarix fanining o’rganilayotgan davriga oid quyidagi asosiy tushuncha, atamalar va tarixiy sanalar, shaxs nomlari bilan bog’liq voqealarni biladi;

Quyidagi tarixiy shaxslar haqida qisqacha ma’lmot bera oladi, suratdan tanib oladi: Xristofor Kolumb, Vasko da Gama, Ameriko Vespuchi, Martin Lyuter, Yelizaveta I, Lyudvik XIV, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Rembrand vander Veyn, Tomas Mor, Shekspir, Servantes, Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Oliver Kromvel, Karl 1, Jorj Vashington, Sin Simon, Simon

Bolivar, Idalgo, Pyotr I, Bobur, Xumoyun, Akbarshoh, Avrangzeb, Yosimune, Tahmasb, Shoh Abbos I, Nodirshoh, Otto fon Bismark, Meydzi, M.V. Lomonosov, Daniel Defo, J.Svift, Onore de Balzak, A.S.Pushkin, Mosart, Bax, Betxoven. Napaleon Bonapart III.

Quyidagi tarixiy voqealar haqida ma'lumot bera oladi:

1492-yil 12-oktabr Amerika qit'asi kashf etildi.

1498-yil Hind Okeaniga boradigan dengiz yo'li ochildi.

XIV-XVII asrlar Yevropada Uyg'onish davri.

1502-yil Eronda Safaviylar sulolasi hukmdorligi o'rnatildi.

1517-yil Germaniyadar reformatsiyaning boshlanishi.

1521-yil Rusni yagona davlatga birlashtirish nihoyasiga yetkazildi.

1526-yil Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solindi.

1588-yil "Yenlima Armada"ning halokati.

1600-yil Ost Indiya kompaniyasi tashkil etildi.

1605-yil Avstraliya kashf etildi.

1609-yil Niderlandiya mustaqillikka erishdi.

1613-yil Rossiyada Romanovlar sulolasi o'rnatildi.

1636-yil Xitoyda manjurlar hukmronligi o'rnatildi.

1642-yil Angliyada Burjuaziya inqilobi boshlandi.

1653-yil O.Kromvel protektorati o'rnatildi.

1684-yil Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi "Muqaddas Liga" tuzdi.

1688-yil Angliyada monarxiya qayta tiklandi.

1700-yil Berlin Fanlar akademiyasiga asos solindi.

1716-yil Angliyada professional parlament tuzildi.

1721-yil Rossiya imperiyasi tashkil etildi.

1733-yil Dunyoda birinchi to'quv mashinasi yaratildi.

1736-yil Eronda Nodir shoh hokimiyati o'rnatildi.

1747-yil Afg'oniston Davlati tashkil etildi.

1757-yil Xitoyni chet davlatlardan, ayniqsa, G'arbiy Yevropa davlatlaridan ajratib olish siyosati joriy etildi.

1776-yil AQSh tashkil topdi.

1789-yil Buyuk faransuz inqilobi boshlandi.

1796-yil Eronda xojalar sulolasi hukmronligi o'rnatildi.

1799-yil Napolyon Bonapart I konsul etib tayinlandi.

1804-yil Fransiya imperiyasi tashkil topdi.

1812-yil Fransiya va Rossiya o'rtasida urush boshlandi.

1814-1815-yillar Vena kongressi "muqaddas ittifoq" tuzildi.

1819-yil Venisuela davlati tashkil topdi.

1821-yil Meksika mustaqilligi e'lon qilindi.

1822-yil Braziliya mustaqilligi e'lon qilindi.

1825-yil Rossiyada dekabristlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

1826-yil Argentina tashkil topdi.

1830-yil Urugvay tashkil topdi.

1830-yil Fransiya Jazoirni bosib oldi.

1838-yil Angliya-Afgʻon urushi boshlandi.  
 1846-yil Neptun sayyorasi kashf etildi.  
 1847-yil Liberiya Respublikasi tashkil topdi.  
 1848-yil Eronda bobiyalar qoʻzgʻoloni.  
 1850-yil Xitoyda taypinlar qoʻzgʻoloni.  
 1852-yil Fransiya ikkinchi marta imperiya deb eʼlon qilindi.  
 1854-yil AQSh Yaponiyani chet elliklar uchun ochilishiga majbur etdi.  
 1855-yil ingliz – afgʻon doʻstlik shartnomasi imzolandi.  
 1857-yil – buyuk Britaniya va Afgʻoniston oʻrtasida harbiy shartnoma tuzildi.  
 1857-yil Buyuk Britaniya va Eron oʻrtasida Parij tinchlik shartnomasi imzolandi.  
 1857-1859-yillar Hindistonda mustamlakachilarga qarshi qoʻzgʻolon.  
 1861-yil Rossiyada Krepostnoylik huquqi bekor qilindi.  
 1861-65-yillar AQSh da fuqarolar urushi.  
 1861-yil Italiya qirolligi tashkil topdi.  
 1863-yil AQShda qulchilik bekor qilindi.  
 1867-yil Yaponiyada Medzi inqiloi yuz berdi.  
 1869-yil Kuba mustaqil davlat deb eʼlon qilindi.  
 1869-yil D. Mendeleev elementlarning davriy jadvalini yaratdi.

### **Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.**

#### **A2**

Quyidagi hududlarni xaritadan koʻrsata oladi:

Joy nomlari: Buyuk gegerafik kashfiyotlar, Fransiya, Prussiya, Parij, Germaniya, Angliya, AQSh, Meksika, Braziliya, Argentina, Markaziy Amerika, Gvatemala, Kosta Rika, Nikaragua, Gaiti, Dominikan, Kuba, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Chexiya, Italiya, Bolqon davlatlari, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Hindiston, Bengaliya, Bombay, Eron, Afgʻoniston, Sudan, Liviya, Misr, Jazoyir, Marokash, Senegal, Kamerun, Liberiya.

#### **A2+**

mavzuga oid oʻrganilgan qabilalar va davlatlari hududlarini zamonaviy xaritadan koʻrsata oladi;

mavzuga oid maʼlumotlarni tarixiy, ilmiy badiiy manbalardan mavzuga oid qismlarini topa oladi.

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

#### **A2**

oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan toʻgʻri qoʻya oladi va javob beradi;

ijtimoiy moslashadi, oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi.

#### **A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila biladi, uni ishontira biladi;  
turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqara oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana oladi.

**A2+**

media vositalardan zarur bo'lgan (tarixiy, ilmiy, badiiy) axborotlarni izlab topa oladi, saralaydi, qayta ishlaydi, uzatadi, saqlaydi, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qiladi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib boradi, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;  
o'z xatti-harakatini adekvat baholay oladi.

**A2+**

fanga oid tanlovlar va tadbirlarda ishtirok etadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;  
o'zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi, unga rioya qiladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2, A2+**

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qiladi;

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) biladi, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladi;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qiladi;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy oladi va foydalana oladi;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – (A1: 30 soat, A2+: 39 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - (A2: 1 soat, A2+: 1 soat)**

**Takrorlash uchun – (A1: 3 soat, A2+: 3 soat)**

**Manbalar bilan ishlash – (A2+: 5 soat)**

**Jami: (A1: 34 soat, A2+: 51 soat)**

## **8-SINF**

### **DUNYO DINLARI TARIXI**

**(A1: 34 soat, haftasiga 1 soatdan)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

tarixi manbalar, moddiy manbalar, yozma manbalar, xronologiya, o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi;

dastlabki va zamonaviy xaritalar haqida ma’lumot bera oladi. Globusning yaratilishini tushuntirib bera oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

Vatanni sevis, Vatan tarixini o‘rganish, tarixiy xotira xalq ma’naviyatining asosi ekanligini anglash.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

dars jarayonida faol ishtirok etish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

yillarni o‘qiy oladi. Milodiy va miloddan avvalgi tushunchalarini biladi. Tarixiy yillarning hisobini tushunadi.

**Kirish.**

Dinlar tarixining o‘rganishning ahamiyati.

## **I BOB. DINNING PAYDO BO‘LISHI VA UNING MOHIYATI**

**1-mavzu: Din va uning mohiyati. (1 soat)**

Din tushunchasi. Dinning mohiyati. Dinning paydo bo‘lishi haqidagi ta’limotlarning mohiyati.

**2-mavzu. Dinning turlari. (1 soat)**

Dunyo dinlarining tasnifi: urug‘-qabila, milliy va jahon dinlari.

### **3-mavzu. Ilk diniy tasavvurlar. (1 soat)**

Qadimgi diniy tasavvurlar: animizm, totemizm, fetishizm, shamanizm, sehrgarlik va ularning zamonaviy ko‘rinishlari.

### **4-mavzu. Ibtidoiy mifologiya. (1 soat)**

Miflarning kelib chiqishi. Miflarning turlari. Misopatamiya, Qadimgi Yunon, Rim, Xitoy va Hindiston miflari.

## **II BOB. QADIMGI DINLAR**

### **5-Mavzu. Misr dinlari. (1 soat)**

Qadimgi Misr dinlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Fir‘avnlarning ilohiy lashtirilishi. Diniy e‘tiqodlar.

Misr dinlarining arxitektura va san‘at va fanga ta‘siri. Fir‘avn va Muso payg‘ambar munosabatlari haqidagi rivoyatlar.

### **6-mavzu. Mesopotamiya dinlari. (1 soat)**

Mesopotamiya dinlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Babil minorasining qurilishi. Mesopotamiya dinlarining dinlarining arxitektura va san‘at va fanga ta‘siri. Ibrohim payg‘ambar haqidagi rivoyatlar.

### **7-mavzu. Yunon dinlari. (1 soat)**

Qadimgi Yunon dinlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Yunon faylasuflarining asarlarida diniy e‘tiqodlar haqidagi ma‘lumotlar. Qadimgi Yunon dinlarining arxitektura va haykaltaroshlik san‘ati, adabiyot va sport ilm-fanga ta‘siri.

### **8-mavzu. Rim dinlari. (1 soat)**

Qadimgi Rim dinlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Xristianlikning paydo bo‘lishi. Iso Masih haqidagi rivoyatlar.

## **III BOB. MARKAZIY OSIYO DINLARI**

### **9-mavzu. Zardushtiylik. (1 soat)**

Ashoga Spitama zardushtiylik dini asoschisi. Zardushtiylik ta‘limoti, marosimlari. Avesto – zardushtiylikning manbasi.

### **10-mavzu. Avesto-zardushtiylikning muqaddas kitobi. (1 soat)**

Avestoning bo‘limlari. Ezgulikka, ma‘rifatga chorlovchi g‘oyalar. Avestoda Amudaryo bo‘yidagi muqaddas shaharlar haqidagi ma‘lumot.

### **11-mavzu. Moniylik. (1 soat)**

Moniylikning kelib chiqishi, ta‘limoti, asoschisi. Bugungi kundagi ko‘rinishi.

## **IV BOB. MILLIY DINLAR VA ULARNING TARIXI**

### **12- mavzu. Hindiston dinlari. (1 soat)**

Hinduiylik, jayniylik, sikxiylik. Vedalarning Hindiston hududiga kirib kelishi va tarqalishi.

### **13- mavzu. Yahudiylik. (1 soat)**

Yahudiylik tarixi. Yahudiylik ta'limoti va uning tarqalishi. Mamlakatimiz hududiga yahudiylarning kirib kelishi. Yahudiylikning muqaddas manbalari. Payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar.

**14- mavzu. Xitoy dinlari. (1 soat)**

Konfutsiylikning din sifatida shakllanishi, tarqalishi, bugungi kundagi ko'rinishi.

**15- mavzu. Yaponiya dinlari. (1 soat)**

Daochilik, sintoiylik dinlari va ularning ta'limoti, manbalari. Bugungi kundagi ko'rinishlari.

## **V BOB. JAHON DINLARI**

**16- mavzu. Buddaviylik tarixi. (1 soat)**

Buddaviylik dinining asoschisi, muqaddas manbalari, tarqalishi, yo'nalishlari. Mamlakatimiz tarixida buddaviylik dini.

**17- mavzu. Buddaviylik ta'limoti va yo'nalishlari (1 soat)**

Buddaviylikning jahon diniga aylanishi. Buddaviylik ta'limoti va marosimlari. Bugungi kundagi ko'rinishlari.

**18- mavzu. Xristianlik dini tarixi. (1 soat)**

Xristianlikning vujudga kelishi. Iso Masih hayoti va faoliyati. Xristianlikning muqaddas kitoblari, xristianlik diniy marosimlari va bayramlari ta'limoti. Bibliya.

**19- mavzu. Xristianlik dini ta'limoti va yo'nalishlari. (1 soat)**

Xristianlikning katolik va pravoslav cherkovlariga bo'linishi. Katolik va pravoslav ta'limotlari. Martin Lyuter ta'limoti va protestantlikning kelib chiqishi.

**20- mavzu. Islom dini tarixi. (1 soat)**

Milodiy VI asrigacha Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy hayot. Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati. Islom dini ta'limoti va bayramlari.

**21- mavzu. Islom dini ta'limoti va yo'nalishlari. (1 soat)**

6	Narziyev Nabijon Normurodovich	Toshkent shahar XTXQTMOI katta o'qituvchisi
7	Krasilov Andrey Vasilovich	Yashnobod tuman 307 –sonli umumiy o'rta ta'lim maktab tarix fani o'qituvchisi
8	Qurbonova Nigora Mannopovna	Toshkent shahar Yashnobod tumani 255-sonli umumta'lim maktab tarix fani o'qituvchisi
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Xodjayev Begzod Xudayberganovich	A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti pedagog qadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori, t.f.n.
2	Polvonov Jo'rabek Ne'matovich	O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya institutining tarix fani o'qituvchisi.
3	Tillaboyev Soyibjon Bakievich	Nizomiy nomidagi TDPU Milliy istiqloq g'oyasi kafedra katta o'qituvchisi

**6-§. Davlat va huquq asoslari (Huquqshunoslik) fani**  
**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida davlat va huquq asoslari va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida huquqshunoslik fanini oʻrganish bosqichlari**

<b>Taʼlim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy oʻrta taʼlim</b>	Umumtaʼlim maktablarining 8-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Davlat va huquq asoslari fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumtaʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Davlat va huquq asoslari fanini oʻrganishning tayanch darajasi
	Davlat va huquq asoslari fani chuqur oʻrganiladigan ixtisoslashtirilgan umumtaʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2+</b>	Davlat va huquq asoslari fanini oʻrganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
<b>Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi</b>	Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilari	<b>B1</b>	Huquqshunoslik fanini oʻrganishning umumiy darajasi

**Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini oʻqitishning maqsad va vazifalari**

**Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini oʻqitishning maqsadi:**

davlat va huquq asoslari fani oʻquvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish;

oʻquvchilarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat

oʻquvchilarda tayanch huquqshunoslik faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir

**Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini oʻqitishning asosiy vazifasi:**

oʻquvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish koʻnikmasini hosil qilish;

oʻquvchilarda oʻz xatti-harakatlarini belgilangan meʼyorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat.

**Umumiy oʻrta taʼlimi muassasalarida davlat va huquq asoslari va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida huquqshunoslik fani boʻyicha taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**1. Huquqiy ongga ega boʻlish kompetensiyasi**

**A1**

Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini bila oladi;

huquq va huquqqa zidlik haqida maʼlumot bera oladi;

axloq va huquq qoidalarini biladi;

bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini bila oladi.

## **A2**

Jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma'lumot bera oladi;

inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;

hokimiyat va uning bo'linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;

O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi;

huquq sohalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib bera oladi;

kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi.

## **A2+**

huquq manbalarini biladi;

voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini tushuntira oladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib beradi.

## **B1**

jamiyat, davlat, huquq, huquq sohalari, normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati va belgilarini tushuntira oladi;

xalqaro umume'tirof etilgan konvensiyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi;

davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish tartibi va qoidalarini biladi;

tanlagan kasbining huquqiy asoslari haqida ma'lumot bera oladi;

o'z kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashni biladi.

## **2. Huquqiy madaniyatli bo'lish kompetensiyasi**

### **A1**

axloq va huquq qoidalariga amal qiladi;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlarida belgilangan huquqlarini hurmat qiladi;

huquqiy ko'nikma hosil qiladi;

huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza oladi.

### **A2**

voyaga yetmaganlarga oid qonunchilikda belgilangan me'yorlarga rioya etadi;

o'quvchilarning ongi va tafakkurida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq, burch va majburiyatlariga rioya qilish refleksi shakllanadi (kundalik faoliyatiga aylanadi);

o'z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi;

qonunchilikda belgilangan tartibda o'z huquq va manfaatlarini himoya qila oladi;

korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni namoyon eta oladi.

**A2+**

huquqiy qoidalarni bajaradi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi;  
huquqiy voqea va hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy madaniyatini namoyon eta oladi.

**B1**

fuqarolik burchlari va majburiyatlarini anglaydi, ularga rioya qiladi;  
huquq manbalaridan foydalana oladi;  
o'z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qila oladi;  
huquqiy voqea va hodisalarga oid to'g'ri xulosa chiqara oladi;  
korrupsiyaning jamiyat hayotida salbiy oqibat ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni biladi, unga qarshi kurashishga oid huquqiy normalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishni his qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi;  
jamiyat va davlat hayotidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi;  
huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to'g'ri qaror qabul qila oladi.

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN**  
**O‘QUV DASTURI**  
**(8-9-SINF)**  
**UQTIRISH XATI**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Globalashuv sharoitida inson ongi uchun kurash tobora kuchayib borayotgan davrda, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish masalalari kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Shu ma'noda mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan ishlarning matniiy davomi sifatida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy ongini oshirish masalalari ham alohida tamoiyl sifatida 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida o‘z aksini topdi.

Davlat va huquq asoslari o‘quv fanini o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir.

Konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat mazkur masalani amalga oshirishda ta‘lim-tarbiya jarayonida davlat va huquq asoslari fani mazmuniga oid huquqiy ong hamda huquqiy mananiyatga ega bo‘lish kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Fanga oid kompetensiyalar orqali o‘quvchilarda kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari shakllantiriladi.

Davlat va huquq asoslari fani 8-sinf: “O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari” (34 soat), 9-sinf: “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” (34 soat)ni o‘z ichiga oladi. Quyi sinflarda; 1-4-sinflarda “Konstitutsiya alifbosi”(odobnoma, o‘qish, atrofimizdagi olam, tasviriy san‘at, musiqa, tarbiyaviy soat) mavzulari takibida (10 soatdan) jami 40 soat, V-VI-sinfda “Konstitutsiya olamiga sayohat” darslari “Vatan tuyg‘usi” fani dasturidagi takrorlash va umumlashtiruvchi mavzular hisobidan (17 soat), VII sinflarda esa, “Konstitutsiya olamiga sayohat” (sinflar kesimida 17 soat) maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan o‘qitiladi.

Shuningdek, me‘yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

## **I. TK-tayanch kompetensiya**

7. TK1-kommunikativ kompetensiya
8. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
9. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
10. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
11. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
12. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

## **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1 - Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi
2. FK2 - Huquqiy madaniyatli bo‘lish kompetensiyasi.

## **8-SINF UCHUN**

**(34 soat)**

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari: Kommunikativ kompetensiyasi:**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

o‘rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini bilish.

### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

Mavjud axborot manbalaridan foydalana olish;

### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;

ta‘lim muassasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qilish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

ta‘lim jarayonida faol ishtirok etish.

### **O‘zini –o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish;

ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo‘lib borish;

fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

o‘z hatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;

fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lay olish;  
**Matematik savodxonlik, fanva texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish.

## **I. BOB. JAMIYAT VA DAVLAT.**

**(8 soat)**

### **1-mavzu: Kirish. Mustaqillik - bu huquqdir. (1 soat)**

O'zbekiston Respublikasi - mustaqil davlat. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari fanining o'ziga xos xususiyatlari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

### **2-mavzu: Jamiyat. (1 soat)**

Jamiyat haqida tushuncha. Jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari va tuzilishi. Inson va jamiyat.

### **3-mavzu: Davlat. (1 soat)**

Davlat tushunchasi. Davlatning belgilari. Davlat shakli va uning tarkibiy tuzilishi. Yurtimiz mutafakkiralarining davlat haqidagi qarashlari.

### **4-mavzu: Davlat funksiyalari. (1 soat)**

Davlat maqsadi, vazifalari. Davlat funksiyasi tushunchasi. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari.

### **5-mavzu: Davlat boshqaruv shakli (1 soat)**

Davlat boshqaruv shakli tushunchasi. Monarxiya va respublika shaklidagi davlatlar. Mutloq va cheklangan monarxiya davlatlari va ularning belgilari.

### **6-mavzu: Davlat tuzilish shakli (1 soat)**

Davlat tuzilish shakli tushunchasi. Unitar va federativ davlatlar belgilari. Konfederatsiya.

### **7-mavzu: Siyosiy (rejim) tartibot (1 soat)**

Siyosiy tartibot tushunchasi. Demokratik va g'ayridemokratik tartibot tushunchasi. Vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya. O'zbekiston Respublikasida demokratik tamoyillar.

### **8-mavzu: Davlat mexanizmi. (1 soat)**

Davlat mexanizmi va uning tuzilishi. Davlat organlari. Davlat idorasi va muassasalari.

## **II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT.**

**(4 soat)**

### **9-mavzu: Fuqarolik jamiyati. (1 soat)**

Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Fuqarolik jamiyatining belgilari. Fuqarolik jamiyati institutlari. Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni.

### **10-mavzu: O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi. (1 soat)**

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy - huquqiy asoslari. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni.

**11-mavzu: Huquqiy davlat. (1 soat)**

Huquqiy davlat tushunchasi. Huquqiy davlat belgilari.

**12-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi..

**III BOB. AXLOQ VA HUQUQ (7 SOAT)**

**13-mavzu: Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. (1 soat)**

Huquqiy ong tushunchasi va uning tuzilishi. Huquqiy negilizm va huquqiy idealizm. O‘zbekistonda aholini huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan islohotlar.

**14-mavzu: Huquq. (1 soat)**

Huquqning vujudga kelishi. Huquq tushunchasi. Huquqning funksiyalari.

**15-mavzu: Huquq normasi. (1 soat)**

Huquq normasi tushunchasi. Huquq normasining tarkibiy tuzilishi va turlari.

**16-mavzu: Huquq tarmoqlari (sohalari). (1 soat)**

Huquq sohasi tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquq sohalari.

**17-mavzu: Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi. (1 soat)**

Huquqiy munosabat tushunchasi. Huquqiy munosabatlarning sub'ektlari va ob'ektlari. Huquqiy munosabatlarning mazmuni. Sub'ektiv huquq va yuridik majburiyat. Huquqiy layoqat va muomala layoqati. Yuridik fakt.

**18-mavzu: O‘zbekistonning huquq manbalari. (1 soat)**

Huquq manbalari tushunchasi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, Qonunlar. Qonun osti hujjatlari. Xalqaro shartnomalar.

**Amaliy mashg‘ulot (1 soat)**

**IV-BOB. HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK.  
(3 SOAT)**

**19-mavzu: Huquqbuzarlik. (1 soat)**

Huquqbuzarlik tushunchasi. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari. Ijtimoiy xavflilik. Huquqqa zidlik. Ayblilik, jazo, hulq-atvor qoidalari. Huquqbuzarlik turlari.

**20-mavzu: Yuridik javobgarlik. (1 soat)**

Huquqiy javobgarlik tushunchasi. Huquqiy javobgarlik turlari.

**21-mavzu: Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari. (1 soat)**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida tushuncha. Sud. Prokuratura. Militsiya. Tergov idoralari. Advokatura.

**V-BOB. VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA BURCHLARI  
(12 soat)**



**22-mavzu: Fuqarolik huquqi (1 soat)**

Fuqarolik huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari. Fuqarolik huquqi tushunchasi. Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Fuqarolik huquqining himoya qilinishi.

**23-mavzu: Fuqaroning fuqarolik huquqiy holati (1 soat)**

Fuqarolik huquqiy layoqati. Huquq layoqatining boshlanishi va tamom bo'lishi. Fuqarolarning muomala layoqati. Fuqarolik holati hujjatlari.

**24-mavzu: Fuqarolik huquqining ob'ektlari. (1 soat)**

Mol-mulk tushunchasi. Intellektual faoliyat natijalari. Bitimlar. Shartnoma tushunchasi. Voyaga yetmaganlar bilan tuziladigan shartnomalar va uning asosiy shartlari.

**25-mavzu: Jinoyat qonunchiligi. (1 soat)**

Jinoyat huquqining prinsiplari. Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilish. Qonunning orqaga qaytish kuchi. Qonunning o'z kuchini yo'qotishi. Jinoyat va uning belgilari. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqlari.

**26-mavzu: Voyaga yetmaganlarga oid jinoiy javobgarlikning o'ziga xos hususiyatlari. (1 soat)**

Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining umumiy qoidalari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi va turlari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash.

**27-mavzu: Jinoyat protsessual qonunchiligida voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga doir ishlarning yuritilishi (2 soat)**

Voyaga yetmagan ayblanuvchi, gumon qilinuvchini tergov qilish shartlari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar. Tergov va so'roq vaqtida ishtirok etishi mumkin va shart bo'lgan shaxslar.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish tartibi. Voyaga yetmagan ayblanuvchilarga qo'llaniladigan ehtiyot choralari Dastlabki tergovni tamomlash va voyaga yetmagan shaxsni ish materiallari bilan tanishtirish.

**28-mavzu: Voyaga yetmaganlarning jinoiy harakatlarini sudda ko'rilishi. (1 soat)**

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni sudda ko'rish tartibi. Sud tergovida voyaga yetmaganlarning ishtiroki. Voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukum chiqarish.

**29-mavzu: Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari. (1 soat)**

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari. Oilada bola manfaatlari. Oilada voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari. Bolalarning turar joyga bo'lgan huquqi.

**30-mavzu: Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari. (1 soat)**

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari. Voyaga yetmaganlarning mehnatiga haq to‘lash, ularning ish vaqti va dam olish vaqti. Xalqaro huquqda voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqi.

**Nazorat ishi 1 soat**  
**Takrorlash 1 soat**

**Mavzularni o‘rganish uchun- 31 soat**  
**Nazorat ishi uchun- 1 soat**  
**Takrorlash uchun- 1 soat**  
**Amaliy mashg‘ulot uchun- 1 soat**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**1. Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi:**

axloq va huquq qoidalarini bir-biridan farqlay oladi;

oila-jamiyat-davlat oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini bila oladi;

davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, davlat boshlig‘i, haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

huquqbuzarlik, ayb, ayb shakllari, huquqbuzarlikning tarkibiy elementlari, turlari, huquq sohalari, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari haqida ma'lumot bera oladi;

shartnoma, bitm, shartnoma shartlari, fuqarolik, turar joyga bo‘lgan huquq, mehnat shartnomasi, ish vaqti, ish vaqti, dam olish vaqti, jinoyat, jinoyat belgilari, isbotlash, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jazo, jazo turlari haqida ma'lumot bera oladi.

**2. Huquqiy madaniyatli bo‘lish kompetensiyasi**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-117-moddalarini mazmunini biladi;

ta'lim muassasasida qabul qilingan odob-axloq qoidalarini hurmat qiladi va ularga itoat etadi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining tuzilishini biladi;

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni biladi, qonunlarga itoat etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-17, 16-27, 106-116, 118-121-moddalari mazmunini biladi, qonunlarga itoat etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-31, 36-42, 47-50, 54, 64-66-moddalarining, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodekslarining voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy holatlarini belgilovchi qoidalarining mazmunini biladi, qonunlarga itoat etadi;

oila-jamiyat-davlat oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini bajaradi;

o‘z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi;

huquqiy hodisalarga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi.

## **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiyasi:**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya oladi va javob beradi;

ijtimoiy moslasha oladi, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila biladi, uni ishontira biladi;

o'rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini biladi

### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

Mavjud axborot manbalaridan foydalana oladi;

### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladi;

o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qiladi;

ta'lim muassasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qiladi.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etadi;

ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

### **O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantiradi;

ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo'lib boradi;

fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib boradi;

o'z xatti-harakatini adekvat baholaydi, o'zini nazorat qila biladi, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'ladi;

fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lay oladi;

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy oladi va foydalana oladi.

## **9-SINF UCHUN**

**(A2:34 soat, A2+: 34 soat)**

### **Kommunikativlik kompetensiyasi:**

#### **A2**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

## **A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

o'rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini bilish.

## **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

### **A2**

mavjud axborot manbalaridan foydalana olish;

axborotga ega bo'lish, uni tasarruf etish va uni tarqatish qoidalariga rioya qilish.

### **A2+**

Turli axborot manbalaridan Xuquq faniga oid ma'lumotlarni izlab topish va saralay olish;

## **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

### **A2**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

### **A2+**

Diniy e'tiqodi, milliy qadriyatlar va marosimlarini hurmat qilish;  
ta'lim muassasasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qilish.

## **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

### **A2**

jamiyatda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

ta'lim jarayonida faol ishtirok etish.

### **A2+**

Atrofda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etadi;

ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

## **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;

ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo'lib borish;

fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

### **A2+**

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lay olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish.

## **I-BO'LIM. KONSTITUTSIYA-DAVLATNING ASOSIY QONUNI (5 soat)**

### **1-mavzu: Konstitutsiyaviy huquq. (1 soat)**

Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi. Konstitutsiyaviy huquqning boshqa huquq sohalari bilan o'zaro bog'liqligi. Konstitutsiyaviy huquq asoslari.

### **2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilishining asosiy omillari. (1 soat)**

O'zbekistonda davlat mustaqilligining huquqiy asoslari. Konstitutsiyani qabul qilish zarurati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Konstitutsiyaning belgilari.

### **3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalari va xususiyatlari. (1 soat)**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi. Muqaddima. Konstitutsiyada e'lon qilingan umuminsoniy qadriyatlar: inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikka intilish, diniy bag'rikenglik. Konstitutsiyaning o'ziga xos hususiyatlari.

### **4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. (1 soat)**

Davlat suvereniteti. Davlat ramzlari. O'zbekiston Respublikasi – mustaqil suveren davlat. Demokratiya – xalq hokimiyatchiligi. Konstitutsiyaviy prinsiplar.

### **5-mavzu: O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati. (1 soat)**

O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki.

## **II-BO'LIM. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI (9 soat)**

### **6-mavzu: Inson va fuqarolar huquqlari, erkinliklari va burchlari. (1 soat)**

Inson va davlatning o'zaro bog'liqligi. Inson huquqlariga oid xalqaro va milliy qonunchilik. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.

**7-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi. (1 soat)**

Fuqarolik tushunchasi. Fuqarolikka qabul qilish asoslari va uni to‘xtatish shartlari. O‘zbekiston fuqarosining huquqiy maqomi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomi.

**8-mavzu: Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari. (1 soat)**

Yashash huquqi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi. Qadr-qimmat va shaxsiy hayotga tajovuzdan himoyalanih huquqi. Turar joy dahlsizligi. Vijdon erkinligi.

**9-mavzu: Siyosiy huquqlar. (1 soat)**

Siyosiy huquq tushunchasi. O‘zbekiston fuqarolarining saylov huquqi, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va jamoat birlashmalariga uyushish huquqi. Yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish erkinligi.

**10-mavzu: Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari. (2 soat)**

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar tushunchasi. Mulkdor bo‘lish huquqi. Mehnat qilishi va erkin kasb tanlash huquqi. Voyaga yetmaganlarning mehnatini muhofaza qilish. Ijtimoiy ta‘minot olish huquqi. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

**11-mavzu: Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari. (1 soat)**

Konstitutsiya va qonunlarda inson huquq va erkinliklari kafolatlari. Konstitutsiya va qonunlarda inson huquq va erkinliklari kafolatlarining ta‘minlanishi.

**12-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari. (1 soat)**

Konstitutsiyaviy burch va majburiyat tushunchasi. Huquq va burchlar birligi. Qonun oldida barchaning tengligi. Konstitutsiyaviy huquq va burchlarni buzganlik uchun javobgarlik.

**Takrorlash (1 soat)**

**III-BO‘LIM. SHAXS - JAMIYAT VA DAVLAT. (14 SOAT)**

**13-mavzu: Jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati. (1 soat)**

Jamoat birlashmalari tushunchasi. Jamoat birlashmalarini tashkil etish va faoliyatining huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari.

**14-mavzu: Siyosiy partiyalar. (1 soat)**

Demokratik huquqiy davlatda siyosiy partiyalarning o‘rni. Yakka partiyaviylik va ko‘ppartiyavilik tizimlari. O‘zbekiston Respublikasida ko‘p partiyaviylik tizimining shakllanishi.

**15-mavzu: Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. (1 soat)**

Oila davlat himoyasida. Jamiyatda oila. Oilaning jamiyat oldidagi asosiy huquq va burchlari. Ota-onalar va farzandlarning huquq va burchlari. Nikoh tuzish shartlari.

**16-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. Viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar, ovullar, ularning hududiy tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari.

**17-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tashkil etilishi. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida davlat xokimiyati tizimi. Davlat hokimiyatning bo‘linish prinsipi. O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlari.

**18-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning vakolatlari. (1 soat)**

Oliy Majlis va uning tarkibini shakllantirish tartibi. Oliy Majlis palatalarining mutlaq vakolatlari. Qonunchilik jarayoni va uning bosqichlari.

**19-mavzu: O‘zbekiston Prezidenti. (2 soat)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshlig‘i. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash tartibi.

**20-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat. (1 soat)**

Vazirlar Mahkamasi – mamlakat hukumati. Hukumat tarkibi. Bosh vazir va uning vakolatlari. Hukumat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

**21-mavzu: Mahalliy davlat hokimiyati organlari. (1 soat)**

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari. Viloyat, tuman va shahar hokimliklari. Hokimning huquqiy holati.

**22-mavzu: Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (1 soat)**

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tushunchasi. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tarkibiy tuzulmasi.

**23-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi. Konstitutsiyaviy sud. Oliy sud va uning takribi. Oliy sudylar Kengashi.

**24-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida sud faoliyatini tashkil etish. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida sudlar faoliyatining huquqiy asoslari. Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy tamoyillar. Sud'yalarning huquq va majburiyatlari.

**Amaliy mashg‘ulot uchun- 1 soat**

#### **IV-BO‘LIM. KONSTITUTSIYA – MAMLAKATDA DEMOKRATIYANI RIVOJLANTIRIS‘H KAFOLATI. (6 SOAT)**

**25-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida saylov tizimi. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida saylov tizimi. Saylov jarayoni va demokratik prinsiplar. Referendum va uni o‘tkazish tartibi. Saylov huquqini buzganlik uchun javobgarlik.

**26-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining Prokuraturasi. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida prokuratura tizimi. Prokuror – qonun himoyachisi. Prokuratura organlarining tuzilishi.

**27-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida moliya va kredit. (1 soat)**

Huquq va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi. O‘zbekiston Respublikasining moliya va pul-kredit tizimi. Soliqlar. Davlat byudjeti.

**28-mavzu: Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish tartibi. (1 soat)**

Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish zarurati. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi va xalqaro tajriba.

**Nazorat ishi. 1 soat**

**Takrorlash 1 soat**

**Mavzularni o‘rganish uchun- 30 soat**

**Nazorat ishi uchun- 1 soat**

**Takrorlash uchun- 2 soat**

**Amaliy mashg‘ulot uchun- 1 soat**

**O‘quvchilarda fanga oid quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:**

**1. Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi:**

**A2**

Axloq va huquq qoidalarini bir-biridan farqlay oladi;  
xalqaro va milliy hujjatlarning farqini bila oladi;



inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinlik, burch, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, ijtimoiy ta'minot olish huquqini biladi;

ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, konstitutsiya, qonun, huquq va erkinlik, konstitutsiyaviy burch, majburiyat, mudofaa, xavfsizlik kabi huquqiy atamalar haqidagi savollarga javob bera oladi;

oila-jamiyat-davlat oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini bila oladi.

**A2+**

fuqaro, jamiyat, demokratik jamiyat, davlat, axloq, huquq, qonun, saylov demokratik prinsiplar, kabi huquqiy atamalar haqida tasavvurga ega bo'ladi, oddiy huquqiy savollarga javob bera oladi;

xalqaro va milliy hujjatlarning farqini bila oladi;

inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinlik, burch, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, ijtimoiy ta'minot olish huquqini biladi;

ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, konstitutsiya, qonun, huquq va erkinlik, konstitutsiyaviy burch, majburiyat, mudofaa, xavfsizlik kabi huquqiy

## **2. Huquqiy madaniyatli bo'lish kompetensiyasi:**

**A2**

### **Quyidagi qonunlar va qoidalarining mazmunini biladi:**

“O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kuni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”giva “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksinin 159-moddasi,

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18, 242—248va 558-moddalarining;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-31-52-moddalari;

O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining V bo‘limiga tegishli bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksinin 199, 202—204-moddalari;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-61, 67, 76-77, 89-93, 112, 117-moddalari;

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi,

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlari,

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi;

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlarning mazmunini biladi;

oila-jamiyat-davlat oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini bajaradi;

o‘z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi.

**A2+**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”giva “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksinin

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-61, 67, 76-77, 89-93,112, 117-moddalari;

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi,

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlari,

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi,

O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi;  
“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi;  
“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi;  
“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlarning mazmunini biladi;

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI**  
**VOYAGA YETMAGANLARNIN HUQUQ, BURCH VA**  
**MASULIYATLARI**  
**(A2+: 34-soat)**

**1-mavzu. Inson huquqlari uchun kurashish kerak. (1 soat)**

Inson qadr-qimmati. Qonunlarga bo‘lgan ehtiyoj. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning vazifalari. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi.

**2-mavzu. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2 soat)**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning vazifalari. BMTning mahkamalari va ular tomonidan amalgam oshiriladigan vazifalar. BMTga a'zo mamlakatlar amal qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar. O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar tashkiloti.

**3-mavzu. Erkinlik va tenglik.(2 soat)**

Erkinlik va tenglik tushunchalari. Irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish haqida Konvensiya. Inson huquqlarining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan salbiy omillar.

**4-mavzu Qonun oldida tenglik.(1 soat)**

Tenglik. Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomida katta va kichik millatlar tengligi haqida. Qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan insonlar o‘rtasidagi tenglikning aloqadorligi.

**Amaliy mashg‘ulot. (1 soat)**

**5-mavzu. Kamsitmaslik tamoili. (1 soat)**

Irqchilik. Kamsitishlar. Bola mehnatining yomon shakllari. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi.

**Amaliy mashg‘ulot .(1 soat)**

**6-mavzu.Erkin ko‘chib yurish va boshpana huquqi. (2 soat)**

Yashash joyi. Turar-joy turlari. Turar-joyga bo‘lgan huquqlar. Erkin ko‘chib yurish huquqi.

**7-mavzu.Huquq va burch.(2 soat)**

Inson huquqlari tushunchasi. Burch. Huquqlar bilan burchlarning o‘zaro bog‘liqligi. Xalqaro va milliy qonunlarda keltirilgan asosiy burchlar.

**8-mavzu. Odil sudlov huquqi.(2 soat)** Odil sudlov va uni amalgam oshirish. udlarning menaqilligi. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsgadoir huquqlar. Odil sudlovni amalga oshirishda sud idoralarining faoliyati.

**9-mavzu. Farovon turmush darajasiga erishish huquqi. (2 soat)**

Insonlarning turmush darajasi. Farovonlikni ta'minlovchi eng asosiy xususiyatlar.

### **10-mavzu. Ijtimoiy himoya huquqi.(2 soat)**

Mamlakatimizdagi ijtimoiy tizimi va uning vazifalari. Har bir insonning ta'minlanish huquqiga. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya turlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlarga davlatdan tashqari ko'rsatiladigan yordam.O'zbekiston Respublikasi Aholini 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi.

### **11-mavzu. Ta'lim olish va o'rganish huquqi.(1 soat)**

Xalqaro va milliy qonun hujjatlarida ta'lim olish huquqining e'tirof etilishi. Bolaning ilm olish huquqini ta'minlashda davlat zimmasidagi vazifalar. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim turlari.

### **12-mavzu. Sog'lom bo'lish huquqi.(1 soat)**

Sog'liqni saqlash tizimi va uning asosiy vazifalari. Davlatlar tomonidan sog'liqni saqlash huquqini to'la amalga oshirilishi uchun ko'riladigan choralar. Davlat tomonidan bolani zararli odatlardan himoya qilish uchun maxsus cheklovlar.

### **13-mavzu. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari.(1 soat)**

Ijtimoiy himoyadan foydalanish huquqi. Nogiron bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining kafolatlari.

### **14-mavzu. Dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqi.(1 soat)**

Bo'sh vaqt va undan foydalanish. Mamlakatimizdagi dam olish va bayram kunlari. Voyaga yetmaganlarning mehnat soatlaridagi farqlar.

### **15-mavzu. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi.(2 soat)**

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi. Davlat tomonidan himoya qilinadigan sirlar va qonun bilan belgilangan cheklovlar. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining asosiy maqsadi. Mazkur huquqning kafolatlari va shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalash huquqlari.

### **16-mavzu. Nikoh va oila qurish huquqi.(1 soat)**

Nikoh tuzish tartib va qoidalari. Oila va oilaviy huquq munosabatlari. Oila munosabatlarining vujudga kelishi shartlari.Nikohning huquqiy ahamiyati. Mamlakatimizda nikoh yoshi.

### **17-mavzu. Yig'ilishlar o'tkazish va uyushmalar tuzish erkinligi.(1 soat)**

Qonun tomonidan himoya qilinadigan yig'ilishlar va uyushmalar. Ijtimoiy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan uyushma va jamoat birlashmalari.

### **18-mavzu. Davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqi. (1 soat)**

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt. Davlat ishlarida qatnashish huquqining bir-biridan ajralmas ikki jihati. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylash va turli lavozimlarga saylanish huquqlari.

### **19. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish huquqi. (1 soat)**

Ommaviy axborot vositalari va ularning turlari. Bolaning axborotlardan bahramand bo'lishi uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan e'tibor. Tarqatilishi O'zbekiston Respublikasi axborot olish huquqi kafolatlari to'g'risidagi qonunga binoan taqiqlanadigan vositalar va adabiyotlar.

## **20-mavzu. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi.(1 soat)**

Huquqbuzarlik va uning ko‘rinishlari. O‘zbekiston Respublikasida bolalar nazoratsizligi va huquqbuzarligini oldini olish.

### **Amaliy mashg‘ulot. (1 soat)**

## **21. Voyaga yetmaganlar javobgarligi.(1 soat)**

Jinoyat qonunlarining vazifalari. Xalqaro va milliy hujjatlarda bolani ozodlikdan mahrum etilishi yuzasidan belgilangan meyorlar.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunlarida voyaga yetmaganlar jinoyatlari uchun belgilangan javobgarliklar. Jarima jazosi. Axloq tuzatish ishlari. Qamoq jazosi. Ozodlikdan mahrum qilish.

## **22-mavzu. Voyaga yetmagan shaxsga ayb e‘lon qilish. (1 soat)**

Voyaga yetmagan qonunbuzarlarni hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish kabi noiloj choralarning amalga oshirilishi. Jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan yoki ayblanayotgan bola huquqlarining kafolatlari.

### **Nazorat ishi. 1 soat**

**Mavzularni o‘rganish uchun- 30 soat**

**Nazorat ishi uchun- 1 soat**

**Amaliy mashg‘ulot uchun- 3 soat**

## **O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi.**

### **Kommunikativlik kompetensiyasi:**

#### **A2**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya oliadi va javob beradi;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi;

#### **A2+**

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira biladi;

o‘rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini biladi.

### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

mavjud axborot manbalaridan foydalana oladi;

axborotga ega bo‘lish, uni tasarruf etish va uni tarqatish qoidalariga rioya qiladi.

#### **A2+**

Turli axborot manbalaridan Xuquq faniga oid ma'lumotlarni izlab topadi va saralay oladi;

### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

#### **A2**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) biladi, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladi;  
o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qiladi;

**A2+**

Diniy e'tiqodi, milliy qadriyatlar va marosimlarini hurmat qiladi;  
ta'lim muassasasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qiladi.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

jamiyatda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;

ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

**A2+**

Atrofda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etadi;

ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;  
ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo'lib borish;

fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

**A2+**

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lay olish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

### 1. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.
- 1.2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 380 b.
- 1.3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 366 b.
- 1.4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T. 4. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 394 b.
- 1.5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 384 b.
- 1.6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 429 b.
- 1.7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 413 b.
- 1.8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 525 b.
- 1.9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masulmiz. T. 9. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 439 b.
- 1.10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 432 b.
- 1.11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T. 11. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 320 b.
- 1.12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 400 b.
- 1.13. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 448 b.
- 1.14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T. 14. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – 280 b.
- 1.15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. T.15. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.
- 1.16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 368 b.
- 1.17. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. – 174 b.
- 1.18. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”. 19-tom, T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011

1.19. Mirziyoyev, Shavkat. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.– Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –488 b.

1.20. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marsosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. –48 b.

1.21. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. –56 b.

### **Qonun va qonun osti hujjatlar**

2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015 – 40 b.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 2014 yil. “O‘zbekiston”

2.3. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – 1992. – № 2. – B. 42–43.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 13 iyundagi “Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to‘plami. 1994. –№6. –B.204-205

2.5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida” gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1997. –№. –225-modda.

2.6. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. –№8. B. 23-33.

2.7. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. –№8.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari. to‘plam T.: “Adolat” 2014. - 1056 bet.

2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida” gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. –№7. –179-modda.

2.10. Davlat va huquq asoslaridan umumiy o‘rta ta'lim o‘quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. 1999 y, 2-son, 264-301 betlar.

2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2001. –5 yanvar.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 23 iyundagi “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi 107 sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2005. –№6

2.13. O‘z DSt 1157:2008 Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo‘lgan talablar.



2.14. Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirligi 2013 yil 4 iyun 28/qq, Xalq taʼlim vazirligi 2013 yil 04. № 27, Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim markazlarining 2013 yil 04. № 30/qq.

2.15. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisidagi 187-qarori.

### 3. Maxsus adabiyotlar

3.1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: Oʻqituvchi, 1992. – B. 33.

3.3. Абзалов Э. М. Правовое воспитание и формирование правовой культуры молодёжи. – Т.: Академия МВД РУз, 1996. – 24 с.

3.4. Аграновская е. В. Правовая культура и обеспечение прав личности. – М.: Наука, 1988. – 142 с.

3.5. Azizxoʻjaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. - T.: Sharq, 1997. - 112b.

3.10. Белский К. Т. Формирование и развитие правового сознания в гражданском обществе. – М.: Изд-во МГУ, 1992. – С. 30–31.

3.23. Joʻraev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – T.: TDSHI, 2003.– 364 b.

3.26. Зокиров Х. Правовая культура и правовые правосудия. – Т., 1998. – 28 с.

3.27. Зокиров Э. Правовое воспитание и формирование правовой культуры молодёжи. – Т.: Академия МВД РУз, 2002. – С. 67.

3.29. Исломов З. Механизм существования государственной власти. – Т.: Адолат, 1997. – 56 с.

3.30. Islomov Z. M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. – T., 2002. – 84 b.

3.31. Islomov Z. M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi. – T., 2005. – 188 b.

3.45. Матузов Н. Н. Правовая система и личност. – Саратов, 1997. – 222 с.

3.46. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: Oʻzbekiston, 2000. – 77 b.

3.47. Milliy gʻoya va mafkura tushunchalarining oʻziga xos xususiyatlari. – T.: OʻzLiDep, 2006. – 88 b.

3.48. Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002. – 320 b.

3.57. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T. 1. – T., 1998. – 316 b.

3.58. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T. 2. – T., 1998. – 448 b.

3.61. Turdiboeva R. Talaba yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari. – T.: Adolat, 2002. – 164 b.

- 3.71. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi/Prof. A. Saidovning umumiy tahririda. – T.: Adolat, 2005. – 479 b.
- 3.73. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, madaniyatlar va mafkuralar. – T.: Sharq, 1997. – 160 b.
- 3.74. Husanov O.T. O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari. -T.: Adolat, 1996.-181b.
- 3.75. Tuychieva H.N. Huquqni o‘qitish metodikasi. –T.: Toshkent islom universiteti, 2008. – 78 b.
- 3.76. Nasiriddinova O.T. Huquqiy madaniyat – fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil (yoshlar misolida): Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: TDYuI, 2009, -22 b.
- 3.77. A. Saidov. U.Tojixonov “Huquqiy madaniyat nazariyasi”. Darslik IIV Akademiyasi-1998 yil.
- 3.78. Zokirov I. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. darslik. T.: “Adolat” 1996. 296 b.
- 3.79. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: “Ilm ziyo” 2005 -480 b.
- 3.80. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (Maxsus qism) Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2000.- 528 b.

**Umumiy o'rta ta'limning Davlat va huquq asoslari fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Ismatova Nargiza Qamaritdinovna	RTM bo'lim boshlig'i
2	Usmonov Muxammadi Baxriddinov	A.Avloniy nomli XTXMOQTM "xuquq kafelra"si o'qituvchisi professor. yu.f.d.
3	Xidirov Sadriddin	Toshkent shahar sud Departamenti. yurist
4	To'ychieva Hamida Nabievna	TIU kafedra mudiri dotsent. yu.f.n.
5	Abdullaeva O'lmasoy Asadovna	Toshkent shahar Sergeli tumani 267- umumta'lim maktabning huquq fani o'qituvchisi
6	Begimova Robiya Safarovna	JIDU qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi huquq fani o'qituvchisi
7	Muhammedov Sardor	Toshkent pedagogika kolleji huquq o'qituvchisi
8	Tojiboev Husniddin Abdumalipovich	Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 144 umumta'lim maktabning huquq fani o'qituvchisi
9	Shermuamedova Saodat Badriddinovna	Toshkent shahar PKQTMOMI Ijtimoiy fanlar kafedراسi huquq o'qituvchisi
10	Ochilov Samariddin Kamoliddinovich	O'rta Maxsus Kasb hunar ta'lim o'quv metodika markazi metodisti
11	Amirov Zafar Akmalovich	Prezident akademiyasi katta ilmiy xodimi
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Najimov Mahmud	Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. dotsenti. yu.f.n.
2	Ahmedova Muhayyo Yulchievna	Toshkent sh Sergeli t 303- umumta'lim maktabning huquq fani o'qituvchisi

**7-§. Iqtisodiy bilim asoslari fani**  
**Umumiy oʻrta taʼlimi muassasalarida Iqtisodiy bilim asoslari oʻquv fanini**  
**oʻrganish bosqichlari**

<b>Taʼlim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy oʻrta taʼlim</b>	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Iqtisodiy bilim asoslarini oʻrganishning boshlangʻich darajasi

**Iqtisodiy bilim asoslari oʻquv fanining maqsad va vazifalari**

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida iqtisodiy bilim asoslari fanini oʻqitishning asosiy maqsadi:**

oʻquvchilarda iqtisodiy savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish; ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va toʻgʻri qaror qabul qilishga oʻrgatishdan iborat.

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida iqtisodiy bilim asoslari fanini oʻqitishning asosiy vazifasi:**

oʻquvchilarda kundalik faoliyatda qoʻllash, fanlarni oʻrganish va taʼlim olishni davom ettirish uchun zarur boʻlgan iqtisodiy bilimlarni shakllantirish;

tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, ongli ravishda kasb tanlashga yoʻnaltirishdan iborat.

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**1. Iqtisodiy savodxonlik kompetensiyasi**

**A1**

asosiy iqtisodiy tushunchalarning mazmun va mohiyatini zarur vaziyatlarda bayon qilib bera oladi;

iqtisodiyotga oid asosiy atamalarni hayotiy va taʼlimiy vaziyatlarda oʻz oʻrnida, ogʻzaki yoki yozma nutqda qoʻllay oladi;

iqtisodiy hodisa va jarayonlarni shaxs va jamiyat manfaatlarini nuqtai nazaridan tahlil qila oladi;

bozor iqtisodiyotining amal qilishi qonuniyatlarini tushuntira oladi;

odatiy va noodatiy hayotiy va taʼlimiy vaziyatlarda vujudga kelishi mumkin boʻlgan muammolarga maqbul yechim topa oladi;

asosiy milliy va xalqaro darajadagi iqtisodiy koʻrsatkichlarni tahlil qilishda modellar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, iqtisodiy xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan oʻrinli foydalana oladi;

iqtisodiy taʼlimga oid bilimlarini boshqa fanlar bilan bogʻlay oladi.

**2. Iqtisodiy madaniyatga ega boʻlish kompetensiyasi**

**A1**

Oʻz ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarga maqbul ravishda egalik qiladi, ulardan samarali foydalanadi va tasarruf eta oladi;

ijtimoiy neʼmatlarga tejamkor va oqilona munosabatda boʻladi;

iqtisodiy faoliyati jarayonida ekologiya va atrof muhit muhofazasiga ustuvor munosabatda bo‘ladi;

iste’molchi huquqlari, burchlari va majburiyatlarini biladi va ularga amal qiladi;

shaxsiy iqtisodiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlikda ro‘yobga chiqarish usul va vositalarini biladi;

mavjud iqtisodiy va ta’limiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oladi, eng maqbul yechim topa biladi;

iqtisodiy munosabatlarga amaldagi qonunchilik doirasida kirisha oladi.

## **IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANIDAN O‘QUV DASTURI (8–9-sinf)**

### **UQTIRISH XATI**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shirishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillar 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida o‘z aksini topdi. Bu borada mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shirish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash,

ishsizlik darajasini kamaytirish, shu bilan birga kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash vazifalari ham alohida ta'kidlanib, bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Shu ma'noda o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda iqtisodiy bilim asoslari fanining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishning asosiy maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– o'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

– ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

– o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni shakllantirish;

– tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Mazkur maqsad-vazifalar ta'lim-tarbiya jarayonida iqtisodiy bilim asoslari fani mazmuniga iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy madaniyatga ega kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning soliqlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida 1–4-sinflarda “Iqtisod va soliq alifbosi” (integratsion yondashuv asosida ona tili, o'qish, matematika, mehnat, atrofimizdagi olam darslari tarkibi asosida sinflar kesimida 10 soatdan jami – 40 soat); 5–7-sinflarda “Iqtisod va soliq saboqlari” o'quv qo'llanmalari (integratsion yondashuv asosida matematika, mehnat, konstitutsiya olamiga sayohat, geografiya, tarix, Vatan tuyg'usi) fanlar tarkibida sinflar kesimida 17 soatdan jami – 51 soat dars o'tiladi. Iqtisodiy bilim asoslari fani 8-sinfda 34 soat, 9-sinfda 34 soat bo'lib, jami – 68 soat hajmda o'qitiladi.

Iqtisodiy bilim asoslari fani ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar elementlari shakllantiriladi.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

#### **I. TK-tayanch kompetensiya**

13. TK1-kommunikativ kompetensiya
14. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
15. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
16. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

17. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiyasi
18. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1- Iqtisodiy savodxonlik kompetensiyasi:
2. FK2- Iqtisodiy madaniyatga ega bo'lish kompetensiyasi:

### **8-SINF**

(34 soat, haftasiga 1 soatdan)

## **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiya:**

- o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;
- jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish;
- iqtisodiy bilim asoslariga oid umum tomonidan qabul qilingan iqtisodiy atamalar mazmunini bilish;
- iqtisodiy ta'limga oid formulalarni tushuntira olish.

### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

- mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni topa olish;
- statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy grafiklar, diagrammalar, jadvallar, chizmalarni tayyorlay olish;
- tovarning shtirx kodini o'qiy olish.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

- halollik, to'g'riqlik, tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'lish;
- kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda oshirib borish;
- o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil iqtisodiy qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tuta olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

- xaridor, mijoz bilan faoliyat yurita olish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- ta'lim-muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

- ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

- kundalik faoliyati rejalarini tuza olish;
- ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- iqtisodiy jadvallar, grafiklar, diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish.

**I BOB. IQTISODIYOTGA KIRISH**  
**(6 soat)**

**1-mavzu: Iqtisodiyot bilan tanishuv. (1 soat)**

Iqtisodiyot. Iqtisodiyot fani. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari. Iqtisodiyotga oid qarashlar. Mikro va makroiqtisodiyot.

**2-mavzu: Cheklanganlik muammosi. (1 soat)**

Ehtiyoj va uning cheksizligi. Resurslar va ularning turlari. Resurslarning cheklanganligi. Iqtisodiyotning asosiy muammosi.

**3-mavzu: Tanlov va uning muqobil qiymati. (1 soat)**

Tanlov zaruriyati. Muqobil qiymat. Murosali tanlov.

**4-mavzu: Ishlab chiqarish va uning omillari. (1 soat)**

Ishlab chiqarish. Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar: tabiiy omil, kapital omil, mehnat omili, tadbirkorlik omili.

**5-mavzu: Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv. (1 soat)**

Mehnat unumdorligi. Mehnat taqsimoti. Mehnat taqsimotining ijobiy va salbiy tomonlari. Ixtisoslashuv. Ixtisoslashuvni cheklovchi omillar.

**6-mavzu: Iqtisodiy tizimlar. (1 soat)**

Iqtisodiyotning uch asosiy savoli. Iqtisodiy tizim. Iqtisodiy tizim turlari. An'anaviy iqtisodiyot. Markazlashgan rejali iqtisodiyot. Bozor iqtisodiyoti. Aralash iqtisodiyot.

**II BOB. BOZOR**  
**(4 soat)**

**7-mavzu: Ayirboshlash va pul. (1 soat)**

Ayirboshlash. Tovar tushunchasi. Pul tizimi va uning elementlari. Pul aylanishining tarkibiy qismlari. Pulning xususiyatlari va funksiyalari. Pulning turlari. Pul massasi. Keyns modeli.

**8-mavzu: Bozor va uning turlari. (1 soat)**

Bozor. Bozorning vazifalari. Bozorning turlari. Xalq iste'moli tovarlari bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori, mehnat bozori, moliya bozori, intellektual tovarlar bozori.

**9-mavzu: Bozorlar va narxlar. (1 soat)**

Narx. Bozorda narxning shakllanish mexanizmi. Narxlarning vazifalari. Adam Smit narx haqida.

**10-mavzu: Bozor qatnashchilari. (1 soat)**



Bozor ishtirokchilari. Bozor sharoitida tovar-pul munosabatlari. Resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag'larining aylanma harakati. Bozor infratuzilmalari.

### **III BOB. OILA VA UY XO'JALIKLARI IQTISODIYOTI** (6 soat)

#### **11-mavzu: Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari. (1 soat)**

Iste'molchi. Iste'molchi daromadlari. Ish haqi. Oylik maosh. Ishbay ish haqi. Vaqtbay ish haqi. Iste'molchi xarajatlari. Oila byudjeti. Majburiy xarajatlar. Erkin xarajatlar. Engel qonuni.

#### **12-mavzu: Mulk va xususiylashtirish. (1 soat)**

Mulk tushunchasi va uning belgilari. Mulk obyektlari va subyektlari. Mulk shakllari: xususiy va ommaviy (davlat) mulki. Ashyolar. Intellektual mulk. Xususiylashtirish. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayoni.

#### **13-mavzu: Daromad va boylik. (1 soat)**

Inson kapitali. Moddiy kapital. Boylik. Daromadlar. Tadbirkorlik foydasi. Real va nominal daromad.

#### **14-mavzu: Jamg'arish va sug'urta. (1 soat)**

Jamg'arma. Jamg'arish usullari. Omonat. Inflyatsiya. Sug'urta.

#### **15-mavzu: Iqtisodiy qaror qabul qilish. (1 soat)**

Iqtisodiy qaror. Iqtisodiy qaror qabul qilish bosqichlari. Qarorning qadr-qimmati va nafi. Ratsionallik va maksimallik.

#### **16-mavzu: Iste'molchilarning huquqlari va majburiyatlari. (1 soat)**

Iste'molchi huquqlari va majburiyatlari. Reklama. Tovarning shtrix kodi.

#### **Takrorlash: (1 soat)**

### **IV BOB. TALAB VA TAKLIF** (7 soat)

#### **17-mavzu: Talab va talab qonuni. (1 soat)**

Talab. Talab miqdori. Talab chizig'i. Talab qonuni. Daromad va almashtirish omili.

#### **18-mavzu: Talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar. (1 soat)**

Narxga bog'liq bo'lmagan omillar. Normal tovarlar. Past tabaqali tovarlar. Bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar. O'zaro bog'liq tovarlar. Bir-birining o'rnini to'ldiruvchi tovarlar. Talab chizig'ining o'zgarishi.

#### **19-mavzu: Taklif va taklif qonuni. (1 soat)**

Taklif. Taklif miqdori. Taklif chizig'i. Taklif qonuni. Bozorning ko'rinmas qo'li.

#### **20-mavzu: Taklifga ta'sir etuvchi boshqa omillar. (1 soat)**

Taklifga ta'sir etuvchi boshqa omillar. Taklifning o'zgarish mexanizmi.

#### **21-mavzu: Tovarining bozor narxi. (1 soat)**

Talab va taklifning o‘zaro ta’siri. Muvozanat narx va muvozanat miqdor. To‘yingan va taqchil bozor. Muvozanatlashgan bozor. Qat’iy narxlar.

**22-mavzu: Talab va taklif qonunlariga doir amaliy mashg‘ulot. (1 soat)**

Talab va taklif jadvallari orqali muvozanat narxni aniqlash. Talab va taklif funksiyalari orqali muvozanat narxni aniqlash.

**23-mavzu: Talab va taklif o‘zgarishining bozor narxiga ta’siri. (1 soat)**

Talab va taklif o‘zgarishining muvozanat narxga ta’siri. Narxlarning muvozanat narx atrofida tebranishi.

**Amaliy mashg‘ulot: (1 soat)**

## V BOB. RAQOBAT VA BOZOR IQTISODIYOTI

(4 soat)

**24-mavzu: Raqobat. (1 soat)**

Raqobat. Raqobatning bozordagi o‘rni. Raqobatning turlari. “Kimoshdi” savdosi – auksion.

**25-mavzu: Monopoliya va monopollashgan bozorlar. (1 soat)**

Bozorning monopollashganlik darajasiga qarab turlanishi. Sof raqobat bozori, monopolistik raqobat bozori, oligopoliya, sof monopol bozori. Tabiiy monopoliyalar. Davlat – bozor munosabatlari himoyachisi. Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

**26-mavzu: Bozor iqtisodiyoti. (1 soat)**

Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotining noqobilligi.

**27-mavzu: O‘zbekiston bozor iqtisodiyoti sari. (1 soat)**

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning O‘zbekiston modeli. O‘zbek modelining asoslari. Bozor islohotlari. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi.

## VI BOB. SOLIQ TIZIMI

(3 soat)

**28-mavzu: Soliqlar va ularning turlari. (1 soat)**

Soliq va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonun hujjatlari. Soliq Kodeksi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar turi. Bevosita va bilvosita soliqlar. Davlat va mahalliy soliqlar.

**29-mavzu: Soliqqa tortish asoslari. (1 soat)**

Soliqqa tortishning asosiy tamoyillari. Soliq subyektlari va obykti. Soliq stavkasi. Proporsional soliq stavkasi. Regressiv soliq stavkasi. Progressiv soliq stavkasi. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq.

**30-mavzu: Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari. (1 soat)**

Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari. Soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lamaganlik uchun javobgarlik.

**Takrorlash: (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat**

**Nazorat ishi uchun – 1 soat**

**Takrorlash uchun – 2 soat**

**Amaliy mashg‘ulot – 1 soat**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Iqtisodiy savodxonlik kompetensiyasi:**

**A1**

– iqtisodiyotning tarkibiy qismlari, iqtisodiy tizimlar, resurslar va ularning turlari, cheklanganlik muammosi, mulk va uning shakllari, tanlov va uning turlari, mehnat taqsimoti, tadbirkorlik, texnologiya va mehnat unumdorligi, mahsuldorlik, pulning vazifalari, ishlab chiqarish va uning omillari, bozorning vazifalari va turlari, tovarlar va ularning belgilari, xarajatlar, jamg‘arish va uning usullari, taklifga ta’sir etuvchi omillar, ish haqi va uning turlari, soliqlar, soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, soliqqa tortish asoslari, sug‘urta, bozorning ko‘rinmas qo‘li, raqobat, monopoliya, bozor iqtisodiyoti tushunchalari haqida ma’lumot bera oladi;

– iqtisodiy sohada yuzaga kelgan asosiy muammolarning yechimini topa oladi;

– iqtisodiy qaror qabul qila oladi;

– tanlovning muqobil qiymati, talab va taklif qonuni, real daromad, talab va taklif, talabga ta’sir etuvchi boshqa omillar, talab chizig‘ining o‘zgarishi, talab va taklifning o‘zaro ta’siri (Marshall qaychisi)ga oid jadvallarni o‘qiy oladi, qoidalarini biladi;

– tovarning shtrix kodini o‘qiy oladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-55-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-, 25-, 28-, 31-, 32-, 34-, 48-, 106-, 107, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 184-, 187-, 188-, 189-moddalari mazmunini biladi.

**Iqtisodiy madaniyatga ega bo‘lish kompetensiyasi:**

**A1**

– resurslardan oqilona foydalanadi;

– o‘z imkoniyatlarini (resurslar: aqliy faoliyat, jismoniy, intellektual faoliyat, moddiy mablag‘lari) to‘g‘ri yo‘naltira oladi;

– iqtisodiy munosabatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladi;

– iste’molchi sifatida o‘z huquq va burchlariga amal qiladi;

– o‘zida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, omilkorlik xislatlarini rivojlantiradi.

**9- SINF**  
**(34 soat, haftasiga 1 soatdan)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiyasi:**

- o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;
- jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish;
- iqtisodiy bilim asoslariga oid umum tomonidan qabul qilingan iqtisodiy atamalar mazmunini bilish;
- iqtisodiy ta'limga oid formulalarni tushuntira olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

- mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni topa olish;
- statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy grafiklar, diagrammalar, jadvallar, chizmalarni tayyorlay olish;
- tovarning shtirx kodini o'qiy olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

- halollik, to'g'rilik, tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'lish;
- kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil iqtisodiy qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tuta olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

- xaridor, mijoz bilan faoliyat yurita olish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- ta'lim-muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

- ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

- shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalar tuza olish;
- ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- iqtisodiy jadvallar, grafiklar, diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish.

**I BOB. TADBIRKORLIK VA ISHLAB CHIQRISH**  
**(10 soat)**

**1-mavzu: Tadbirkorlik. (1 soat)**

Tadbirkorlik va uning asosiy xususiyatlari. Tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'рни. Biznes g'oya va biznes reja. Tadbirkorlik faoliyatining turlari: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, vositachilik va sug'urta faoliyati.

**2-mavzu: Firma va uning turlari. (1 soat)**

Korxonalar va firma. Xususiy firma. Shirkat. Sherikchilik firmalari. Yakka tartibdagi xususiy tadbirkor. Ularning tashkiliy asoslari va bir-biridan farqi.

**3-mavzu: Aksiyadorlik jamiyati. (1 soat)**

Aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi. Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati. Oddiy va imtiyozli aksiyalar. Aksiyaning nominal qiymati va kursi.

**4-mavzu: Firma tashkil qilish. (1 soat)**

Firma nizomi va ta'sis shartnomasi. Firma ochishning tashkiliy yo'l-yo'riqlari. Firmaning taniqlilik belgilari. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning huquqiy asoslari.

**5-mavzu: Firma mablag'lari va xarajatlari. (1 soat)**

Firma mablag'lari. Asosiy va aylanma mablag'lar. Amortizatsiya va amortizatsiya ajratmasi. Moliyaviy mablag' manbalari. Firmaning umumiy xarajatlari. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar. O'rtacha xarajat. Mahsulotning tannarxi, ishlab chiqarish narxi.

**6-mavzu: Yalpi daromad, foyda va zarar. (1 soat)**

Korxonalar daromadi. Korxonalar foydasi va zarari. Foydaning ahamiyati va uni oshirish usullari.

**7-mavzu: Iqtisodiy faoliyat tahlili. (1 soat)**

Firma faoliyatining moliyaviy tahlili. Sof foyda, foydaning nominal va real qiymatini aniqlash, samaradorlik, bankrotlik, firmani tugatish. O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuni.

**8-mavzu: Firmani boshqarish – menejment. (1 soat)**

Menejment va uning mazmuni. Menejning vazifalari. Firmaning boshqaruv tuzilmalari. Boshqaruv uslublari.

**9-mavzu: Marketing. (1 soat)**

Marketing tushunchasi. Marketing tadqiqotlari. Tovarni sotish yo'llari va narxlar.

**Amaliy mashg'ulot: (1 soat)****10-mavzu: Ishlab chiqarish va ekologiya. (1 soat)**

Ishlab chiqarish. Ekologik muammolar va ularning kelib chiqish sabablari. Ekologiya va iqtisodiyot orasidagi munosabatlar. Atrof-muhitning ifloslanishi. Atrof-muhit ifloslanishini nazorat qilish. O'zbekistonda ekologik muammolar va ularning yechimi.

**II BOB. DAVLAT VA IQTISODIYOT****(4 soat)****11-mavzu: Davlatning iqtisodiy vazifalari. (1 soat).**

Davlatning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlari. Bozorning noqobilligi. Davlatning iqtisodiy vazifalari.

**12-mavzu: Davlat byudjeti. (1 soat).**

Davlat byudjeti. Davlat byudjetining daromad va xarajat qismlari. Davlat byudjeti kamomadi va profitsiti.

**13-mavzu: Bank tizimi. (1 soat).**

Banklarning paydo bo'lish tarixi. O'zbekistonning bank tizimi. Markaziy bank va tijorat banklari. Bank krediti, kredit foizi, foiz stavkasi.

**14-mavzu: Davlatning iqtisodiy siyosati. (1 soat)**

Davlatning iqtisodiy siyosati. Davlatning byudjet-soliq siyosati. Davlatning pul-kredit siyosati. Kredit foiz stavkasi va pul massasi. Bank zaxira normasi va zaxira mablag'i.

**Takrorlash: (1 soat)**

### **III BOB. SOLIQ TURLARI**

**(4 soat)**

**15-mavzu: Daromad solig'i. (1 soat)**

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i. Daromad solig'ini hisoblash. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad solig'i.

**16-mavzu: Mol-mulk solig'i. (1 soat)**

Mol-mulk solig'i. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i. Mol-mulk solig'i stavkasi. Mol-mulk solig'idan imtiyozlar. Mol-mulk solig'i obyekt va subyektlari.

**17-mavzu: Yer solig'i. (1 soat)**

Yer solig'i. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkasi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i. Yer solig'i stavkasi. Yer solig'idan imtiyozlar. Yer solig'i obyekt va subyektlari.

**18-mavzu: Aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i. (1 soat).**

Aksiz solig'i. Aksiz solinadigan tovarlar. Aksiz solig'i obyekt. Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekt. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash formulasi.

### **IV BOB. IQTISODIY O'SISH**

**(3 soat)**

**19-mavzu: Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. (1 soat)**

Yalpi ichki mahsulot. Yalpi milliy mahsulot. Sof ichki mahsulot. Milliy daromad. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (yalpi milliy mahsulot).

**20-mavzu: Iqtisodiy o'sish va rivojlanish. (1 soat)**

Real va nominal qiymatlar. Iqtisodiy davr. Iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Aholining turmush darajasi.

**21-mavzu: O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyati. (1 soat)**

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyati: yer maydoni, aholisi, tabiiy resurslari, sanoati, qishloq xo‘jaligi.

## **V BOB. INFLYATSIYA VA ISHSIZLIK**

**(4 soat)**

### **22-mavzu: Inflyatsiya va uning turlari. (1 soat)**

Muomaladagi pul miqdori. Pul massasi. Pulning aylanish tezligi. Fisher tenglamasi. Inflyatsiya. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari.

### **23-mavzu: Inflyatsiya oqibatlari. (1 soat)**

Inflyatsiya darajalari. Giperinflyatsiya. Inflyatsiyaga qarshi choralar.

### **24-mavzu: Ishchi kuchi bozori va ishsizlik. (1 soat)**

Ishchi kuchi bozori. Ish haqi va uning miqdori. Ish haqining bir xil emasligi. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasi va uni hisoblash.

### **25-mavzu: Ijtimoiy himoya vositalari. (1 soat)**

Ishsizlik oqibatlari. Mehnat birjalari. Kasaba uyushmalari. Tabiiy ishsizlik va to‘la bandlik. Ijtimoiy himoya vositalari.

## **VI BOB. JAHON IQTISODIYOTI**

**(5 soat)**

### **26-mavzu: Xalqaro savdo. (1 soat)**

Jahon iqtisodiyoti bozori va uning ishtirokchilari. Resurslarning notekis taqsimlanishi. Mutlaq ustunlik nazariyasi. Nisbiy ustunlik nazariyasi. Import. Eksport. Savdo balansi.

### **27-mavzu: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. (1 soat)**

Tashqi savdoga to‘siqlar. Bojxona boji. Kvota. Tashqi savdo litsenziyasi. Proteksionizm. Tashqi savdoni erkinlashtirish. Xalqaro savdo tashkilotlari. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasining iqtisodiy munosabatlari.

### **28-mavzu: Valyuta kursi. (1 soat)**

Valyuta bozori. Valyuta kursi. Valyuta kursini aniqlash. Valyuta kursining o‘zgarishi.

### **29-mavzu: Jahon iqtisodiyoti muammolari. (1 soat)**

Yer yuzida tinchlikni saqlash. Atrof-muhitning ifloslanishi. Xomashyo va energiya tanqisligi. Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi. Oziq-ovqat tanqisligi, ochlik va qashshoqlik. Jahon iqtisodiyotining turli inqirozlarga moyilligi.

### **30-mavzu: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. (1 soat)**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlari. Inqirozning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. Inqirozni bartaraf etish yo‘llari va choralari.

### **Takrorlash: (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat**

**Nazorat ishi uchun – 1 soat**

**Takrorlash uchun – 2 soat**  
**Amaliy mashg‘ulot – 1 soat**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Iqtisodiy savodxonlik kompetensiyasi:**

– Biznes g‘oya, biznes reja, firmalar va ularning turlari, ekologik muammolarni iqtisodiyotga ta’siri, davlat byudjeti, daromad va xarajat, O‘zbekistonning bank tizimi, jismoniy va yuridik shaxs, mol-mulk solig‘i va uning stavkasi, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, import, eksport, mahsulotning tannarxi, bankrotlik va uning sabablari, foyda, inflyatsiya, aksiya, aksiyadorlik, valyuta kursining o‘zgarishi haqida ma’lumot bera oladi;

– aylanma mablag‘, amortizatsiya jamg‘armasi, doimiy o‘zgaruvchan xarajatlar, yalpi daromad, foyda va zarar, samaradorlik, kredit foizi va stavkasi, daromad solig‘i formulalarini biladi;

– asosiy milliy va xalqaro darajadagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda modellar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, iqtisodiy xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan o‘rinli foydalana oladi;

– iqtisodiy ta’limga oid bilimlarini boshqa fanlar bilan bog‘lay oladi.

**Iqtisodiy madaniyatga ega bo‘lish kompetensiyasi:**

– o‘z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarga maqbul ravishda egalik qiladi, ulardan samarali foydalanadi va tasarruf eta oladi;

– ijtimoiy ne’matlarga tejamkor va oqilona munosabatda bo‘ladi;

– iqtisodiy faoliyati jarayonida ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga ustuvor munosabatda bo‘ladi;

– iste’molchi huquqlari, burchlari va majburiyatlarini biladi va ularga amal qiladi;

– shaxsiy iqtisodiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlikda ro‘yobga chiqarish usul va vositalarini biladi;

– mavjud iqtisodiy va ta’limiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oladi, eng maqbul yechim topa biladi;

– iqtisodiy munosabatlarga amaldagi qonunchilik doirasida kirisha oladi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

– o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi;

– o‘z pozitsiyasini himoya qila oladi;

– iqtisodiy bilim asoslariga oid umum tomonidan qabul qilingan iqtisodiy atamalar mazmunini biladi;

– iqtisodiy ta’limga oid tushunchalarni gapira oladi.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**



- mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni topa oladi;
- statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy grafiklar, diagrammalar, jadvallar, chizmalarni tayyorlay oladi;
- tovarning shtirx kodini o'qiy oladi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

- halollik, to'g'rilik, tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'ladi;
- kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib boradi;
- o'z xatti-harakatini muqobil baholaydi va mustaqil iqtisodiy qaror qabul qila oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

- xaridor, mijoz bilan faoliyat yurita oladi;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok eta oladi;
- ta'lim muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'la oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

- ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

- shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza oladi;
- ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritadi;
- iqtisodiy jadvallar, grafiklar, diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. 1999 yil, 3 –maxsus son.”SHARQ” nashriyot- matbaa konserni.
2. O‘zbekiston, milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Islom Karimov, I Tom “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.
3. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Islom Karimov, II Tom “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.
4. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Islom Karimov, III Tom “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.
5. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 yil.
6. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Islom Karimov. Toshkent- O‘zbekiston-1998yil.
7. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi “Umumiy o‘rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi PF-3431.
11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to‘g‘risida”gi 6G`2G`4G`1-sonli qo‘shma hay'at majlisi qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta'lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta'lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori.
16. Internet saytlari yoziladi **Lex.uz. Soliq.uz. rtm.uz.**(Singapur, Koreya va hk. tajribasi)

17. O'tkazilgan Forum tavsiyalari "Ijtimoiy fanlarni o'qitish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda o'quv-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligi: muammolar va echimlar". 2017 yil. 24-25 mart kunlari.

**Umumiy o‘rta ta’limning Iqtisodiy bilim asoslari fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Gafurov Ubaydullo Vohidovich	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi o‘qituvchisi, i.f.d.
2	Oripov Ilxomjon Ma‘murovich	Toshkent Bank-hisob kredit kolleji iqtisod o‘qituvchisi.
3	Do‘stmurodova Nazokat Tursunovna	Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 28-umumta’lim maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi
4	Sherjanova Yulduz Komilovna	Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 1-ixtisoslashgan maktabning iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi
5	Rasulov Akbar	Toshkent bank kolleji iqtisod o‘qituvchisi
6	Zufarova Shoista	Toshkent iqtisodiyot kolleji iqtisod o‘qituvchisi
7	Ermatova Shohista Abduvakilovna	Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 212-sonli umumta’lim maktabi iqtisodiy bilim asoslari o‘qituvchisi
<b>Ekspert guruhi</b>		
8	Baranbaeva Saodat Xasanovna	Toshkent shahar Yashnobod tumani 166-umumta’lim maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi
9	Jo‘raeva Malika Rustamxonovna	XTV Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi
10	Salomova Barchinoy Vasievna	TVXTXQTMOI iqtisod o‘qituvchisi

**14-§. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlar**

**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘rganish bosqichlari**

<b>Ta’lim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy o‘rta ta’lim</b>	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlar (Odobnoma)ni o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlar (Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari)ni o‘rganishning tayanch darajasi
<b>O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi</b>	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari	<b>B1</b>	«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», «Ma’naviyat asoslari» fanlarini o‘rganishning umumiy darajasi

**«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi o‘quv fanlarini o‘qitishning maqsad va vazifalari**

**«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishning maqsadi:**

o‘quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘quvchilar qalbi va ongiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g‘oyasining mohiyatini singdirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va mafkuraviy immunitetini, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishning vazifasi:**

O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatish, ularda faol fuqarolik nuqtai nazarini, milliy g‘urur, bag‘rikenglik va sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishdan iborat.

**«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga  
kiruvchi o‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va  
yetarlicha darajasi hamda ta’lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan  
qo‘yiladigan malaka talablari**

**1. Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi**

**A1**

Odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o‘zini tutish) madaniyatiga ega bo‘ladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni angelaydi va hurmat qiladi.

**A2**

Oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas’uliyatni angelaydi va ularga rioya qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an’analar, urf-odatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladi;

Vatan ravnaqi yo‘lida jismoniy va intellektual imkoniyatlarini safarbar eta oladi;

milliy va diniy munosabatlarda bag‘rikenglikni o‘zida namoyon eta oladi;

muammolarni vazminlik va tinch yo‘l bilan hal etadi;

hissiyotlarga berilmaydi, har qanday jarayonda aql bilan ish yuritishga harakat qiladi;

jamoatchilik ishlarida faol bo‘ladi.

**B1**

Burch hamda mas’uliyat hissini angelaydi va ularga rioya qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy o‘zlikni angelaydi va unga munosib bo‘lishga harakat qiladi;

o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi va o‘zgalar tanqidini to‘g‘ri qabul qiladi;

millatlararo hamjihatlik va diniy bag‘rikenglikni o‘zida namoyon eta oladi;

shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda sog‘lom-ma’naviy muhitni shakllantiradi;

nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi idora qila oladi;

ma’naviy-axloqiy fazilatlarni targ‘ib qila oladi.

**2. Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish kompetensiyasi**

**A1**

yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlaydi, ularga fikrini bayon eta oladi;

yon-atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira oladi;

ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlaydi.

**A2**

O‘zbekistondagi demokratik islohotlar va dunyoda kechayotgan ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarga munosabat bildira oladi;

ma’naviy tahdidlarni anglaydi va baholay oladi;

fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyilini o‘zida namoyon eta oladi;

axborot va media madaniyatga ega.

**B1**

turli ma'naviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni anglaydi va to'g'ri baholay oladi, munosabat bildiradi;

mamlakatimizdagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda ishtirok etish va baholashda faol fuqarolik pozitsiyaga ega;

tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetadi va ta'minlanishiga hissa qo'sha oladi;

fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha oladi.

**“MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA  
TAMOYILLAR” TURKUMIGA KIRUVCHI FANLARDAN  
(1-4-sinf Odobnoma, 5-6-sinf Vatan tuyg‘usi,  
7-9-sinf Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari)  
O‘QUV DASTURLARI  
(1-9 SINFLAR)**

**UQTIRISH XATI**

Bugungi globallashuv jarayonlarida inson ongi va tafakkuri uchun kurash masalalari jiddiy tus olib bormoqda. Dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg‘ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo‘lmoqda.

Shu sababli Sharq yoki G‘arb mamlakatlari, olis Afrika yoki Osiyoda ma’naviyatga qarshi tahdidlar paydo bo‘lsa, bugungi va ertangi istiqbolini o‘ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq yoki millat tashvishga tushishi tabiiydir.

Shuning uchun ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish uchun qurollantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ushbu maqsad vazifalardan kelib chiqqan holda **Umumiy o‘rta ta’limda «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishning maqsadi** o‘quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘quvchilar qalbi va ongiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g‘oyasining mohiyatini singdirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va mafkuraviy immunitetini, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishning vazifasi esa,** o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatish, ularda faol fuqarolik nuqtai nazarini, milliy g‘urur, bag‘rikenglik va sog‘lom e’tiqodni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko‘ra, «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda fanga oid **ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik va mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish** kompetensiyalari shakllantirilib boriladi. Bu kompetensiyalar oddiydan murakkablik tamoyiliga ko‘ra, A1, A2 darajalari orqali amalga oshiriladi.

**1-4 sinfda “Odobnoma”** (A1 daraja; 1-sinfda 33 soat, 2-4 sinflarda esa 34 soat o‘qitiladi).



Mazkur fan orqali o'quvchilarga jamiyatda o'rnatilgan odob va axloq qoidalari o'rgatiladi: jumladan, Vatan, oila, jamiyat oldidagi insoniy burchlar, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'zaro munosabatlarni shakllantirish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, atrof-muhitga oqilona munosabat, tejamkor bo'lish, turli ekstrimal vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va hokazo.

**5-6 sinf “Vatan tuyg‘usi”** (A2 daraja; 5-6-sinfda 34 soat, tarkibida 17-soat Konstitutsiya olamiga sayohat darslari o'tiladi).

Mazkur fan o'quvchilarda quyi sinflarda olgan bilimlari mustahkamlanib, Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalari kengaytirilib, hayotiy tushunchalar bilan bog'lab o'qitiladi. Shu bilan birga Vatanimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlar, mamlakatimiz yoshlarining yutuqlari haqida ma'lumotlar beriladi. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, huquqiy madaniyatni shakllantirish, dahldorlik, ijtimoiy faollik kabi tushunchalar shakllantirib boriladi.

**7-8-9 sinflarda “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”** (A2 daraja; 7-8-9-sinfda 34 soat).

Ushbu fan Odobnoma, Vatan tuyg'usi fanlarining uzviy davomi bo'lib, inson ma'naviyatining shakllanishiga ta'sir etadigan me'zonlar, ma'naviyatning mustahkam tayanchi, ma'naviy tahdidlar, ma'naviy jasorat, komil inson, qonun ustuvorligi, milliy g'oya tushunchasi, uning falsafiy asoslari, milliy g'oya va ma'naviyat haqida mutafakkirlarning qarashlari, g'oyaga qarshi g'oya-fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish asoslari tushuntirib boriladi.

Mazkur darslar aynan ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lganligi sababli, mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savol va topshiriqlar hayotiy voqealardan olinishi maqsadga muvofiqdir. Har bir dars jarayoni xalqimizning bunyodkorlik, komillik uchun intilishi, yuksak ma'naviyatli xalqimizning ma'naviy jasoratlari haqidagi qisqacha hikoyalar bilan boyitib borilishi lozim. O'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish, ularda dahldorlikni kuchaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash, shu bilan birga axborot bilan ishlash, nutq madaniyati, muomala madaniyati, huquqiy madaniyatni shakllantirib borish zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida”gi F-1322 sonli Farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida, Odobnoma fani tarkibida “Konstitutsiya alifbosi”, 5-6 sinf “Vatan tuyg'usi” fani tarkibida “Konstitutsiya olamiga sayohat” o'quv kurslari singdirilgan.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

#### **I. TK – tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## **II. FK – fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1- Ma'naviy axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi
2. FK2- Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi

### **1-SINF** **“ODOBNOMA”** **(33 soat, haftasiga 1 soat).**

#### **A1**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

halollik, to'g'rilik sifatlarga ega bo'lish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;

tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'lish;

ta'lim muassasasi jihozlariga, ma'naviy, moddiy va tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) ni hurmat qilish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, milliy hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **1-BOB. O'ZBEKISTON – OZOD VA OBOD DIYOR (3 SOAT)**

**1-mavzu: 1-sentyabr – Mustaqillik kuni (1 soat).**

1-sentyabr – Mustaqillik kuni yurtimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, mamlakatimizning nomi O'zbekiston deb atalishi va Vatan haqida matn.

**2-mavzu: Bobolardan meros yurt (1 soat).**

Vatan mehri. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida matn.

**3-mavzu: Odob-axloq me'yorlarining dastlabki talablari (1 soat).**

Xulq-odob tushunchasi. Biz qanday insonlarni odobli deymiz.

## **2-BOB. ODOB – INSON UCHUN OFTOB (7 SOAT)**

### **4-mavzu: Etiketning asosiy qoidalari (1 soat).**

Etiket nima va u qanday muammolarni hal etadi? Etiketni kim o‘ylab topgan. Hushmuomalalikning asosiy qoidalari.

### **5-mavzu: Etiket nimaga o‘rgatadi? (1 soat).**

Odob-axloq qoidalari nima? Xushmuomala insonning nutqi qanday bo‘lishi kerak?

### **6-mavzu: Etiketning asosiy talabi (1 soat).**

Tarbiyali bo‘lish sirlari. Tarbiyali odamni qanday aniqlash mumkin? Insonlarga e‘tiborli bo‘lish.

### **7-mavzu: Yaxshilik va yomonlik (1 soat).**

Bizning yaxshi ishlarimiz. Mening harakatlarim boshqalarga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Nima yaxshi-yu, nima yomon? Ezgulik nima? Yaxshilik doimo yomonlikka qarshi turadi va uni yengadigan kuch.

### **8-mavzu: Mas’uliyat (1-soat).**

Ma’suliyat nima? Menda qanday mas’uliyatlar bor? Kimni mas’uliyatli odam deyish mumkin? O‘quvchining mas’uliyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

### **9-mavzu: Rahmdillik va bag‘rikenglik (1 soat).**

Insonlarning kundalik munosabatlarida insonparvarlik. Boshqalar manfaati uchun o‘z manfaatlaridan kecha olish.

### **Takrorlash (1 soat).**

## **3-BOB. INSON VA JAMIYAT (9 SOAT)**

### **10-mavzu: Salomlashish qoidalari (1 soat).**

Nutq insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi. Salomlashish etiketning muhim belgisi. Salomlashishning o‘ziga xos qoidalari.

### **11-mavzu: Salomlashish odobi (1 soat).**

Biz bir-birimiz va kattalar bilan salomlashishni bilamizmi?

### **12-mavzu: Ovqatlanish qoidalari va madaniyati (1 soat).**

To‘g‘ri ovqatlanish qoidalari. Qaysi ovqatlar qachon iste’mol qilinadi? Nimalar mumkin-u, nimalar mumkin emas? Sog‘ligimizni qanday asrashimiz kerak?

**13-mavzu: Odobli bola elga manzur (1 soat).**

Muloyimlik – umumiy madaniyat belgisi. Har qanday sharoitda o‘zini munosib tuta olish. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘lish.

**14-mavzu: Minnatdorlik va jonkuyarlik (1 soat).**

Minnatdorlik degani nima? «Sehrli so‘zlar» kuchi. Qachon va kimga rahmat aytamiz? Bizning zahiramizda qancha yaxshi so‘zlar bor? Atrofdagilarga nisbatan hurmatda, sezgir va e‘tiborli bo‘lish.

**15-mavzu: Uyda va ta‘lim muassasasida odob-axloq qoidalari (1 soat).**

Ta‘lim muassasasida intizom. Oilamizdagi qoidalar. Biz ularga nima uchun amal qilamiz? Muloqot shakllari, uzr so‘rash va minnatdorlik bildirish qoidalari.

**16-mavzu: Jamoat joylarida o‘zini tutish (1 soat).**

Notanish kishilar bilan salomlashish, muloqot qilish qoidalari. Insonning tashqi ko‘rinishi.

**17-mavzu: Xavfli vaziyatlarda tartibli va to‘g‘ri harakat qiling (1 soat).**

Havfli vaziyatlarda harakat qilish tartibi.

**Takrorlash (1 soat).**

**4-BOB. INSONNING SALOMATLIGI – YURT BOYLIGI (2 SOAT)**

**18-mavzu: Shaxsiy gigiyena qoidalari (1 soat).**

Gigiyena nima? U nima uchun zarur, biz nima uchun gigiyenaga rioya qilamiz?

**19-mavzu: Badan tarbiya – sog‘lik garovi (1 soat).**

Badanni chiniqtirish, sog‘ligimizni saqlash, mavsumga qarab kiyinish tartibini bilamizmi? Jismoniy kamolot.

**5-BOB. BILIM OL, HUNAR O‘RGAN (5 SOAT)**

**20-mavzu: “Kitob – bilim chirog‘i” (1 soat).**

Kitob o‘qish odobi. Ilm hosiyati haqida donolar o‘g‘itlari. O‘z imkoniyatlari va qobiliyatini qanday rivojlantirish kerak? Qo‘l bilan uddasidan chiqmagan ishni aql bilan yengish mumkin.

**21-mavzu: Bilim ol, hunar o‘rgan (1 soat).**

Hunarli kishi xor bo‘lmas. Kasblarning o‘ziga xos xislatlari haqida.

**22-mavzu: Inson mehnati bilan sharaflidir (1 soat).**

Oltin o‘tda bilinadi, odam mehnatda. Vatan va inson manfaatlari uchun mehnat qilish. Insonning mehnatga ehtiyoji. Mening sevimli mashg‘ulotim.

**23-mavzu: Mening qo‘g‘irchoqlarim (1 soat).**

Milliy o‘yinchoqlar. Qo‘g‘irchoqlar mamlakatiga sayohat. Milliy qo‘g‘irchoqlar haqida matn.

**Kim bo‘lsam ekan? (Amaliy mashg‘ulot) (1 soat).**

**6-BOB. AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR (2 SOAT)**

**24-mavzu: Xotira va qadrlash kuni (1 soat).**

9-may – Xotira va qadrlash kuni. Tinchlik – aziz ne‘mat ekanligi haqida matn.

**Ziyorat qilish odobi (Amaliy mashg‘ulot) (1 soat).**

**7-BOB. TABIAT VA BIZ (5 SOAT)**

**25-mavzu: Tabiat qo‘yniga sayohat odobi (1 soat).**

Tabiatga sayohat madaniyati? Non aziz. U qanday yetishtiriladi? Tabiatga sayohatga chiqqanda biz o‘zimizni qanday tutishimiz kerak? Bizdan nimalar talab qilinadi?

**26-dars: Jonivorlarga g‘amxo‘rlik – ezgu fazilat (1 soat).**

Jonivorlarga g‘amxo‘r bo‘lish haqida matn.

**27-mavzu: Tabiat ne‘matlarini tejash (1 soat).**

Suv, elektr quvvati va tabiiy gazni nima uchun tejashimiz kerak. Maktabimizdagi ichimlik suvi va elektr quvvatini qanday tejaymiz?

**Nazorat ishi (1 soat).**

**Umumlashtiruvchi dars (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun - 27 soat**

**Nazorat ishi uchun - 1 soat**

**Takrorlash uchun - 2 soat**

**Amaliy mashg‘ulot - 2 soat**

**Umumlashtiruvchi dars – 1 soat**

**Jami 33 soat**

**A1**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalarning elementlari:**

**Ma‘naviy axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi:**

o‘quvchining xulq-odobini biladi va unga amal qiladi;  
atrofdagilar bilan hushmuomala bo‘la oladi;

atrofidagilarga e'tiborli bo'ladi;  
ma'suliyat, rahmdillik va bag'rikenglik nima ekanligini tushunadi va uni namoyon qiladi;  
salomlashishning o'ziga xos qoidalarini biladi va salomlashish qoidalariga rioya qiladi;  
to'g'ri ovqatlanish qoidalarini biladi va unga rioya qila oladi;  
o'z sog'ligini asrashga harakat qiladi;  
har qanday sharoitda o'zini munosib tuta oladi;  
muloqot shakllari, uzr so'rash va minnatdorlik bildirish qoidalarini biladi va unga amal qiladi;  
notanish kishilar bilan salomlashish, muloqot qilish qoidalarni biladi;  
havfli vaziyatlarda harakat qilish tartibini biladi;  
kitob o'qish odobiga rioya qiladi;  
ziyosat qilish odobini biladi va unga amal qiladi;  
tejamkorlik madaniyatiga riyao qiladi.  
**Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi:**  
yaxshi va yomon odatlar va ishlarni ajrata oladi.

### **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

halollik, to'g'rilik sifatlarga ega bo'ladi.

#### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi;

tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'ladi;

ta'lim-muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va.h.k.) hurmat qiladi;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, milliy hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qiladi;

ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

## **2-SINF**

### **“ODOBNOMA”**

**(34 soat, haftasiga 1 soat).**

#### **A1**

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

halollik, to'g'rilik sifatlarga ega bo'lish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;

tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'lish;

ta'lim muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) hurmat qilish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, milliy hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

## **1-BOB. BIZNING VATANIMIZ – O‘ZBEKISTON (3 SOAT)**

### **1-mavzu: Ona Vatan (1 soat).**

Bizning ona Vatanimiz O'zbekiston deb nomlanishi. Vatanning onadek muqaddas va mo'tabar ekanligi. Insonning tug'ilib o'sgan mahalla, qishloq va shahri Vatan ichidagi kichik Vatan.

### **2-mavzu: Ajdodlar merosi – faxr va iftixorimiz (1 soat).**

O'zbek xalqining ma'naviy-madaniy boyligi. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros.

### **3-mavzu: Buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari (1 soat).**

Yurtimizdan tug'ilib, voyaga yetgan, dunyo ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan allomalar. Ularning ibratli fazilatlarini.

## **2-BOB. OILA – MUQADDAS DARGOH (3 SOAT)**

### **4-mavzu: Ota-ona – aziz va mo'tabar (1 soat).**

Farzandlik burchi. Ota-onaga va oila a'zolariga bo'lgan hurmat odobi. Ota-onani qadrlash va ularga g'amho'rlik qilish.

### **5-mavzu: Oilada mening o'rnim (1 soat).**

Oilada mening o'rnim. Aka-uka, opa-singil va oilaning boshqa a'zolariga munosabat odobi. Oilaviy an'analar.

### **6-mavzu: Qarisi bor uyning parisi bor (1 soat).**

Oilada bobo va buvilar bilan munosabat odobi. Kattalarga hurmat va ehtirom ko'rsatish.

## **3-BOB. ODOB KISHINING ZEBU ZIYNATI (13 SOAT)**

### **7-mavzu: Jamoat joylarida o'zini tutish odobi (1 soat).**

Ko'chada, transportda, tadbirlarda va boshqa jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerak.

**8-mavzu: Hushmuomalalik va samimiy munosabat (1 soat).**

Hushmuomala bo'lishlik va suhbatdoshga samimiy munosabatda bo'lish odobi.

**9-mavzu: So'zlashish odobi (1 soat).**

Suhbatlashish odobi va qoidalari. Suhbatdoshni tinglash madaniyati. Odob bilan yoqimli so'zlashish, shirin so'zli bo'lish. Nutq madaniyati.

**10-mavzu: Muloqot madaniyati va telefonda so'zlashish odobi (1 soat).**

Telefonda so'zlashish odobi. Muloqot madaniyati.

**11-mavzu: Tashqi ko'rinish va orastalik (1 soat).**

Insonning tashqi ko'rinishi. Toza va ozoda kiyinish. Tashqi ko'rinishda tartiblilik.

**12-mavzu: Yaxshi fazilat – insonga ziynat (1 soat).**

Sabrlilik – go'zal fazilat. Sabr-qanoat va boshqa insoniy fazilatlar. Yaxshi taassurot qoldirish qoidalari.

**13-mavzu: Saxiy va kamtar bo'ling (1 soat).**

Saxiylik – yuksak insoniy fazilat. Saxiylik va xasislik. Xasislik – odatlarning eng yomoni. Kamtarga – kamol, manmanga – zavol. Kamtarlik va manmanlikning farqi. Yaxshi xislatlar va yomon odatlar haqida.

**14-mavzu: O'z-o'zingizga xizmat qilishni o'rganing (1 soat).**

Mustaqil bajariladigan ishlar. O'z-o'ziga xizmat qilish odobi.

**15-mavzu: Mehmondo'stlik – yaxshi odat (1 soat).**

Mehmon kutish va mehmonga borish odobi. Mehmonda o'zini tutish odobi.

**16-mavzu: Jamoat tadbirlarida ishtirok etish odobi (1 soat).**

Oilaviy va boshqa tadbirlarda, marosimlarda o'zini tutish hamda ishtirok etish odobi.

**17-mavzu: Kishinish madaniyati (1 soat).**

Kundalik kiyiladigan kimlarga qo'yiladigan talablar. Tantalalar va boshqa tadbirlarda kiyiladigan kiyimlar.

**“Mehmon-mehmon” o'yini. Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

**Takrorlash (1 soat).**



#### 4-BOB. O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH (9 SOAT)

**18-mavzu: Do‘stlikni qadrlang (1 soat).**

Do‘stlashish odobi. Do‘sti ko‘pning yaxshi fazilatlari ham ko‘p. Millatlararo totuvlik va do‘stlik.

**19-mavzu: Do‘st tanlash va tanishuv qoidalari (1 soat).**

Yangi do‘st bilan tanishishda o‘zini tutish qoidalari. Do‘stlik shirin so‘z va yordam ko‘rsatishdan boshlanadi.

**20-mavzu: Tartibli va tadbirli bo‘ling (1 soat).**

Tartiblilik va tadbirlilikning foydasi. Jamoat joylarida o‘zini tutish qoidalari.

**21-mavzu: Mulkini saqlagan xor bo‘lmas (1 soat).**

Mol-mulk va boshqa barcha buyumlar ota-onaning mehnati natijasi. Uni avaylab-asrash va ehtiyot qilish.

**22-mavzu: Dam olish, sog‘liqni saqlash, bilim olish huquqlari (1 soat).**

Fuqarolarning bosh Qomusimizda belgilab berilgan huquqlari.

**23-mavzu: Sog‘ligingiz – boyligingiz (1 soat).**

Jismoniy mehnat va badantarbiya – sog‘ligingiz garovi. Qat’iy kun tartibiga rioya qilishning salomatlikka foydasi.

**24-mavzu: Quvonchli kunlarni nishonlang (1 soat).**

Halqimiz tomonidan nishonlanadigan milliy bayramlarimiz va urf-odatlar.

**25-mavzu: Oilaviy tadbirlar va qutlug‘ bayramlar (1 soat).**

Tug‘ilgan kun, to‘y, mehmon kutish qoidalari. Hotira va qadrlash kuni.

**26-mavzu: Ona tabiatni ardoqlang (1 soat).**

Daraxtlar, o‘simlik, jonivorlarni asrab-avaylash. O‘quvchilarda ekologik madaniyatning boshlang‘ich elementlari.

#### 5-BOB. ESTETIKA (6 SOAT)

**27-mavzu: Bizning hayotimizda teatr (1 soat).**

Qo‘g‘irchoq teatri va uning bolalar tarbiyasidagi.

**28-mavzu: Ertaklar yaxshilikka yetaklar (1 soat).**

Xalq ertaklari. Bolalar ertaklari. Ertaklarda insoniy fazilatlar.

**29-mavzu: Inson kamolotida tasviriy san‘atning o‘rni (1 soat).**

Goʻzallik va betakrorlik haqida. Insonning goʻzallikka boʻlgan ehtiyoji. Goʻzallikni qanday anglash kerak? Qalb goʻzalligi nimada?

**Tarbiyalilar tanlovi. Amaliy mashgʻulot (1 soat).**

**Takrorlash (1 soat).**

**Nazorat ishi (1 soat).**

**Mavzularni oʻrganish uchun - 29 soat**

**Nazorat ishi uchun - 1 soat**

**Takrorlash uchun - 2 soat**

**Amaliy mashgʻulot - 2 soat**

**Jami: 34 soat**

**A1**

**Oʻquvchilarda shakllantirilgan fanga oid kompetensiyalarning elementlari:**

**Maʼnaviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasi:**

ajdodlarimiz qoldirgan maʼnaviy meros haqidagi dastlabki tushunchlarni biladi; oila oldidagi burchini anglaydi. Ota-onani va kattalarni hurmat qiladi, qadrlaydi va ularga gʻamxoʻrlik qiladi;

koʻchada, transportda, tadbirlarda va boshqa jamoat joylarida oʻzini qanday tutish zarurligini biladi va ularga amal qiladi;

nutq va muomala madaniyati, telefonda soʻzlashish odobiga amal qiladi;

mehmon kutish va mehmonga borish, mehmonda, oilaviy va boshqa tadbirlarda, marosimlarda oʻzini tutish odobiga rioya qiladi.

ekologik madaniyatning boshlangʻich elementlari shakllanadi.

**Mafkuraviy immunitetga ega boʻlish kompetensiyasi:**

yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlay oladi;

odobli boʻlishga shaxsiy namuna koʻrsata oladi;

oʻzining bilimini oshirib borishga harakat qiladi;

sinfdozlarini ham odobli boʻlishga undash elementlari shakllanadi.

**Oʻquvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

halollik, toʻgʻrilik sifatlariga ega boʻladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

taʼlim jarayonida faol ishtirok etadi;

tejamkorlik kabi sifatlariga ega boʻladi;

taʼlim-muassasasi jihozlariga, moddiy va maʼnaviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda boʻlish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va.h.k.) hurmat qiladi;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, milliy hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qiladi;

ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

### **3-SINF**

### **“ODOBNOMA”**

**(34 soat, haftasiga 1 soat)**

#### **A1**

**O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllantiriladi:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

jamoat joylarida o'zini tutish odobiga rioya qilish;

xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so'zlarni aniq va tushunarli bayon qila olish;

nutq va muomala madaniyatiga rioya qilish;

#### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari (televizor, telefon)dan foydalana olish.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish va o'zini nazorat qila bilish.

#### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'zining o'quvchilik burch va huquqlarini bilish va unga rioya qilish, jamiyatda (maktabda, oilada, mahallada) bo'layotgan jaryonlarda ishtirok etish;

Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish;

ta'lim muassasida o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo'lish elementlari shakllantirish;

jamoat joylarida o'zini tutish odobiga rioya qilish;

kattalar bilan so'rashishda odob-axloq bilan muloqotga kirishish;

## **1-BOB. VATAN MUQADDAS (6 SOAT)**

### **1-mavzu: O'zbekiston Respublikasi – Mustaqil davlat (1 soat).**

Mustaqillik – ulug' ne'mat. Mustaqillik yillarida yoshlar uchun yaratilgan imkoniyat va sharoitlar.

### **2-mavzu: Mustaqillikni qanday tushunamiz (1 soat).**

Ozodlik nima? Mustaqillik va erkinlik. Mustaqillik, ozodlik va erkinlik tushunchalari.

### **3-mavzu: Davlat ramzlari (1 soat).**

Davlat madhiyasi. Gerb va bayroq. Ularda nimalar aks etgan.

**4-mavzu: Tarixiy obidalar (1 soat).**

Yurtimizdagi tarixiy obidalar. Milliy madaniy meros.

**5-mavzu: Bolalarning huquq va erkinliklari. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (1 soat).**

Bolalarning kafolatlangan huquqlari. Bolalarning huquq va erkinliklari. Burch va majburiyatlar.

**Takrorlash (1 soat).**

**2-BOB. INSON ODOB-AXLOQI BILAN GO‘ZAL (7 SOAT)**

**6-mavzu: Keksalik – donolik (1 soat).**

Kattaga hurmat – kichikka izzat. Keksalarning duosi.

**7-mavzu: Donolar odob-axloq va do‘stlik haqida (1 soat).**

“Sharq rivoyatlari” kitobida odob haqida. Amir Temur, Alisher Navoiy va Kaykovus hikmatlari.

**8-mavzu: Mutolaa odobi (1 soat).**

Kitob – bilim manbai. Kitobning shaxs kamolotidagi o‘rni.

**9-mavzu: Mehr-shafqat va muruvvat (1 soat).**

Mehr va muruvvat tushunchasi. Yaqinlarimizga va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabat.

**10-mavzu: Saxiylik va baxillik. Sovg‘a berish va sovg‘a olish odobi (1 soat).**

Saxiylikning go‘zal odat. Baxilning bog‘i ko‘karmas. Yaqin insonlarimizga sovg‘a berish odobi.

**11-mavzu: Insonlarga hurmat bilan munosabat (1 soat).**

Yaqin insonlar va boshqalarga o‘zaro hurmat doirasida muomala qilish odobi. Haqorat va turli yomon so‘zlardan, yomon odatlardan saqlanish.

**Takrorlash (1 soat).**

**3-BOB. MEHNAT INSONNI ULUG‘LAYDI (5 SOAT)**

**12-mavzu: Mehnat inson hayotini bezaydi (1 soat).**

Mehnatkashlik va dangasalik. Mehnat insonni kamolga yetkazadi.

**13-mavzu: Kasblar olami (1 soat).**

Kasblar olami. Mehnatni ulug‘lash haqida rivoyat va ertaklar.

**14-mavzu: Men kim bo‘lishni xohlayman (1 soat).**

Bolalarni kasb va hunarlarning turlari bilan tanishtirish. Ularni kelajakda kim bo‘lishlari haqidagi suhbat.

**15-mavzu: Mening bo‘sh vaqtim (1 soat).**

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini qiziqarli tashkil etish. Ularning kasblar, hunarlar va san’at turlariga qiziqishlarini aniqlash.

**«Bo‘sh vaqt muammosi»ini olidini olishda kun tartibining ahamiyati. Amaliy mashg‘ulot (1 soat).**

**4-BOB. TASHQI KO‘RINISH ETIKASI VA INSONIY FAZILATLAR (5 SOAT)**

**16-mavzu: Tashqi ko‘rinish etikasi (1 soat).**

Kiyinish madaniyati. Maktab formasi. Toza va ozoda kiyinish madaniyati.

**17-mavzu: Orastalik – inson ko‘rki (1 soat).**

Ozodalik, yurish-turish, buyumlarni tartibli saqlash fazilati. Buyumlarni asrab-avaylash va tartibli saqlash. Tozalik – sog‘lik garovi.

**18-mavzu: Tabiat ne‘matlaridan oqilona foydalanish (1 soat).**

Tejamkorlik va isrofgarchilik. Ne‘matlarning qadriga yetish. Vaqtdan to‘g‘ri foydalanish.

**19-mavzu: Nonning ushog‘i ham non (1 soat).**

Non haqida rivoyat va ertaklar. Non – aziz ne‘mat. Nonni tayyorlash va saqlash qoidalar.

**Takrorlash (1 soat).**

**5-BOB. BIZ YASHAYOTGAN OLAM (6 SOAT)**

**20-mavzu: Bizni o‘rab turgan olam (1 soat).**

Yer – ona sayyoramiz. Tabiatni asrash qoidalari, suvni tejash va ifloslantirmaslik, jonivorlarga ozor yetkazmaslik.

**21-mavzu: Suv – hayot manbai (1 soat).**

Suvning bir tomchisini ham isrof qilmaslik. Qatra suvda hayot aks etadi.

**22-mavzu: Tabiat qo‘yniga sayohat (1 soat).**

Tabiat qo‘yniga sayr qilish odobi va qoidalari. Tabiatga oqilona munosabat nima degani? «Birni kessang o‘ngni ek».

**23-mavzu: Uy hayvonlariga munosabat (1 soat).**

Hayvonlarning vafodorligi va do'stligi. Hayvonlar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish qoidalari.

**Sayohat odobi. Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

**Takrorlash (1 soat).**

**6-BOB. SHARQONA MADANIYAT (5 SOAT)**

**24-mavzu: Milliy urf-odatlar va bayramlar (1 soat).**

Navro'z – yasharish va yangilanish fasli. Sumalak – shifobaxsh taom. Sumalak haqida rivoyat.

**25-mavzu: Xalq qo'shiqlari. Rivoyatlar va hikoyatlar (1 soat).**

Milliy bayramlarda kuylanadigan qo'shiqlar. Qo'shiq va kuy tinglash madaniyati.

**26-mavzu: Xalq o'yinlari (1 soat).**

Xalq o'yinlari va o'yin odobi. Jamoda ishitrok etishning qoidalari va odobi.

**Umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

**Nazorat ishi (1 soat).**

**Mavzularni o'rganish uchun - 26 soat**

**Nazorat ishi uchun - 1 soat**

**Takrorlash uchun - 4 soat**

**Amaliy mashg'ulot - 2 soat**

**Umumlashtiruvchi dars – 1 soat**

**Jami 34 soat**

**A1**

**Fanga oid xususiy kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Ma'naviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasi:**

odobli bo'lishga shaxsiy namuna ko'rsatadi;

O'zbekiston Vatani ekanligidan, O'zbekistonda yashayotganligidan faxrlanadi;

milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash tushunchalarini bilish elementlari shakllanadi.

mustaqillik, ozodlik va erkinlik tushunchalarini biladi;

Davlat madhiyasi. Gerb va bayrog'ida aks etgan elementalarning nomini biladi;

tarixiy obidalar va milliy madaniy merosni nima ekanligini tushunadi; bolalarning huquq va erkinliklari. Burch va majburiyatlar haqida ma'lumot bera oladi

kattaga hurmat – kichikka izzatda bo'la oladi;

kitob qo'ish odobiga rioya qiladi

Sovg'a berish va sovg'a olish odobini biladi

bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil eta oladi.

Kiyinish madaniyatiga rioya qiladi.

ozodalik, yurish-turish, buyumlarni tartibli saqlash fazilatiga ega bo'lib boradi.

tejamkorlik va isrofgarchilik yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

hayvonlar bilan munosabat qoidalarini biladi va unga amal qiladi.

Navro'z haqida rivoyatlar so'zlab bera oladi.

milliy bayramlarda kuylanadigan qo'shiqlarni biladi.

jamoda ishtirok etish odobi va qoidalarini biladi.

**Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi:**

haqorat va turli yomon so'zlardan, yomon odatlardan saqlana oladi.

**O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

jamoat joylarida o'zini tutish odobiga rioya qila oladi;

xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so'zlarni aniq va tushunarli bayon qila oladi;

nutq va muomala madaniyatiga rioya qiladi;

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari (televizor, telefon) dan to'g'ri foydalana oladi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

har qanday vaziyatda o'zini tuta biladi va o'zini nazorat qila oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'zining o'quvchilik burch va huquqlarini biladi va unga rioya qiladi, jamiyatda (maktabda, oilada, mahallada) bo'layotgan jarayonlarda ishtirok etadi;

Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatadi;

ta'lim muassasida o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo'lish elementlari shakllanadi;

jamoat joylarida o'zini tutish odobiga rioya qiladi;

kattalar bilan so'rashishda odob-axloq bilan muloqotga kirisha oladi.

**4-SINF**  
**“ODOBNOMA”**  
**(34 soat, haftasiga 1 soat).**

**A1**

**O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllantiriladi:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qilish;  
xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so‘zlarni aniq va tushunarli bayon qila olish;

nutq va muomala madaniyatiga rioya qilish;

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish va o‘zini nazorat qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini bilish hamda unga rioya qilish, jamiyatda (maktabda, oilada, mahallada) bo‘layotgan jaryonlarda ishtirok etish;

Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

ta‘lim muassasida o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish elementlari shakllantirish;

jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qilish;

kattalar bilan so‘rashishda odob-axloq bilan muloqotga kirishish;

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

shaxsiy rejalarini tuza olish elementlari shakllanish;

mamlakatimiz qachon mustaqil bo‘lganligini bilish.

**1-BOB. O‘ZBEKISTON – MADANIY VA MA’NAVIY**  
**MEROSLARGA BOY O‘LKA**  
**(5 SOAT)**

**1-mavzu: O‘zbekiston – mening Vatanim (1 soat).**

O‘zbekistonning ilm-fan, sport sohalarida erishilgan yutuqlari, olib borilayotgan qurilish-obodonlashtirish ishlari. Ona Vatan she‘ri.

**2-mavzu: Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik (1 soat).**

Vatan oldidagi burch nima? Qanday harakatlar bilan insonda vatanparvalik namoyon bo‘ladi? Kimlarni vatanparvar deyish mumkin?

**3-mavzu: O‘zbekiston – ko‘p millatli mamlakat (1 soat).**

O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar. Mehmondo‘st xalqimizning ezgu qadriyatlari. Tinchlik – totuvlik. Til bilgan – el biladi hikoyasi.



**4-mavzu: Yurt tinchligi uchun barchamiz mas'ulmiz (1 soat).**

Tinchlik – bebaho ne'mat. Baxtli va farovon turmush. Vatan posboni. Vatan himoyachilari kuni.

**Takrorlash (1 soat).**

**2-BOB OILAVIY MUNOSABATLARDA ETIKET QOIDALARI (3 SOAT)**

**5-mavzu: Oilada o'zaro munosabatlar (1 soat).**

Ota-ona va farzandalar munosabatlari. Farzandlar ota-onalariga qanday munosabatda bo'lishlari kerak? Oilaviy an'analar, kattalarga hurmat munosabatlari.

**6-mavzu: Oila shajarasi (1 soat).**

Insonlarning shajarasi va ularning kelib chiqishi. Oilamizning shajara daraxti. Biz buvilarimiz va bobolarimiz, ota-onalarimiz haqida nimalarni bilamiz?

**7-mavzu: Dasturxon atrofida o'tirish odobi. Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

**3-BOB BIZNING BOY VA BETAKROR O'LKAMIZ (3 SOAT)**

**8-mavzu: Ekologiya etiketi (1 soat).**

Inson va tabiat. Atrofimizdagi olamning go'zalligi. Mamlakatimizning tabiiy va betakror boyliklari.

**9-mavzu: Tabiatga sayohat (1 soat).**

Tabiatga sayohat odobi. Tabiatga turli transport vositalarida sayr qilish etiketi. Sayyohlarning tabiatdagi salbiy harakatlari.

**Takrorlash (1 soat).**

**4-BOB SOG'LOM AVLOD MAMLAKAT BOYLIGI (10 SOAT)**

**10-mavzu: Inson va uning salomatligi (1 soat).**

Salomat bo'lish insonning tabiiy ehtiyoji. Qanday qilib salomatlikni saqlash kerak? Sog'lom turmush tarzi. Nosog'lom turmush tarzining insonlar hayotiga ta'siri. Havfsizlik qoidalariga rioya qilish.

**11-mavzu: Fazilatlar – inson ko'rki (1 soat).**

To'g'ri so'zlik. Ezgulik komillikka yetaklaydi.

**12-mavzu: Inson kamoloti – yaxshilik bilan (1 soat).**

Yaxshilikka yaxshilik – barchaning ishi, yomonlikka yaxshilik – mardning ishi. Salbiy odatlar va illatlar. Inson sog‘ligiga yomon odatlarning salbiy ta’siri.

**13-mavzu: Tartibli bola – tadbirli bola (1 soat).**

Tartibli bo‘lish, buyumlarni asrab-avaylash va tartibli saqlash. O‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larni tejab sarflash qoidalari. Nima uchun va nimadan tejash kerak?

**14-mavzu: Odob-axloq va qonun-qoida tushunchalari (1 soat).**

Axloq qoidalari. Qonun doirasidagi hamda axloq qoidalari doirasidagi harakatlar.

**15-mavzu: Bizning huquq va burchlarimiz. Qonun, qoida, tartib tushunchalari (1 soat).**

Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi. «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun.

**16-mavzu: Tinglash va so‘zlashish qoidalari (1 soat).**

Suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish odobi. Nutq va muloqot madaniyati.

**17-mavzu: Sharq xalqlari rivoyatlarida odob-axloq qoidalari (1 soat).**

Odob-ahloq qoidalari to‘g‘risida rivoyatlar, hikoyatlar va ibratli fikrlar.

**18-mavzu: Ezgu so‘z, ezgu fikr, ezgu amal. Amaliy mashg‘ulot (1 soat).**

**Takrorlash (1 soat).**

**5-BOB. MA’RIFAT – EZGULIKKA YETAKLAYDI (13 SOAT)**

**19-mavzu: Bilim barcha tilsimlarning kaliti (1 soat).**

Bilimli inson xor bo‘lmas. Bilim olish qoidalari.

**20-mavzu: Kitob – inson kamoloti asosi (1 soat).**

Kitob insonni kamolotga yetkazuvchi asosiy omil. Kitoblarda odob va tarbiya haqida.

**21-mavzu: Ma’naviyat insonni ulug‘laydi (1 soat).**

Ma’naviyat va ma’rifiylik. Insonning dunyoqarashi uning ma’naviyatini belgilaydi.

**22-mavzu: Insonning dunyoqarashini uning ma’naviyati belgilaydi (1 soat).**

Ibratli hikoyatlarda insonning dunyoqarashi va ma’naviyatni yuksaltiruvchi omillar.

**23-mavzu: Yuksak insoniy sifatlar (1 soat).**

Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari. Inson kamolotidagi odob-axloqning ahamiyati. Madaniyatlilikni shakllantirish.

**24-mavzu: Biz bir-birimiz bilan qanday munosabatda bo'lamiz? Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

**25-mavzu: Sharq mutafakkirlari – yuksak ma'naviyat ramzi (1 soat).**

Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur asarlarida odob-axloq qoidalari.

**26-mavzu: Buyuk allomalarimiz. Ularning ma'naviy merosi (1 soat).**

Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sinolarning ma'naviy merosi haqida.

**27-mavzu: Hunarli kishi xor bo'lmas (1 soat).**

Hunarning foydasi. Amaliy san'at turlari (xalq hunarmandchiligi: kulolchilik, milliy liboslar, yog'och o'yakorligi, zargarlik).

**28-mavzu: Kitob o'qish madaniyati. Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

**Takrorlash (1 soat).**

**Nazorat ishi (1 soat).**

**Umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

**Mavzularni o'rganish uchun - 28 soat**

**Nazorat ishi uchun - 1 soat**

**Takrorlash uchun - 4 soat**

**Umumlashtiruvchi dars - 1 soat**

**Jami: 34 soat**

**A1**

**Fanga oid xususiy kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi:**

Odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o'zini tutish) madaniyatiga ega bo'ladi;

jumladan:

suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish odobini biladi va unga amal qiladi;

kitob o'qish qoidlari va odobiga amal qiladi;

Ezgu so'z, ezgu fikr va ezgu amal qoidalariga rioya qilishga harakat qiladi;

axloq-odob qoidalariga rioya qiladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydi va hurmat qiladi;  
jumladan:

olgan bilimlari asosida O‘zbekistonning ilm-fan, sport sohalarida erishilgan yutuqlar, qurilish-obodonlashtirish ishlari haqida ma’lumot bera oladi;

O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot ber oldi;  
ma’naviy meros va ularni asrab-avaylash haqida ma’lumot bera oladi;

Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sinolar haqida qisqacha ma’lumot bera oladi;

amaliy san’at turlari haqida ma’lumot bera oladi;

yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlarini biladi.

**Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish kompetensiyasi:**

yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlaydi, ularga fikrini bayon eta oladi;  
yon-atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira oladi;

jumladan:

qonun, qoida, tartib tushunchalarini biladi, ularning buzilishi yuzasidan munosabat bildira oladi.

yuksak insoniy sifatlar: madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari. inson kamolotidagi odob-axloqning ahamiyatini biladi va ularga munosabatini bayon qila oladi.

odobli bo‘lishga shaxsiy namuna ko‘rsata oladi;

salbiy odatlar va illatlar. Inson sog‘ligiga yomon odatlarning salbiy ta’siri.

tinchlik – bebaho ne’mat. baxtli va farovon turmush. Vatan posboni. Vatan himoyachilari kuni.

ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlaydi.

**O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qila oladi;

xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so‘zlarni aniq va tushunarli bayon qila oladi;

nutq va muomala madaniyatiga rioya qiladi;

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari (televizor, telefon) dan to‘g‘ri foydalana oladi.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

har qanday vaziyatda o‘zini tuta biladi va o‘zini nazorat qila oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini biladi va unga rioya qiladi, jamiyatda (maktabda, oilada, mahallada) bo‘layotgan jarayonlarda ishtirok etadi;

Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatadi;

ta’lim muassasida o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish elementlari shakllanadi;

jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qiladi;

kattalar bilan soʻrashishda odob-axloq bilan muloqotga kirisha oladi.

**5-SINF**  
**“VATAN TUYG‘USI”**  
**(34 soat, haftasiga 1 soat).**

**A2**

**O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda bayon qila olish, savollarni to‘g‘ri qo‘ya olish va unga javob berish;

jamoaviy (oilada, mahallada, maktabda) muloqotga kirisha olish, hamkorlikda ishlay olish;

turli vaziyatlarda o‘z fe‘l-atvorini boshqara olish;

muloqot madaniyatiga amal qilish;

suhbatdoshining fikrini hurmat qilgan holda o‘z fikrini tushuntira olish;

turli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqara olish.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari (televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, komputer) dan foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy rivojlantirib borish;

xatti-harakatini nazorat qila olish, o‘z hayotining havfsizligi, ogohlik hissini oshirish;

ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lish. O‘z hayotining havfsizligi, ogohlik hissini oshirish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;

maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko‘rik tanlovlar, hashar va h.k.) ishtirok etish;

jamiyat va oilasi manfaatlarini uchun xizmat qilish (kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish).

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

Vatanni sevish, insonlarga mehribon bo‘lish; orasta kiyinish va sog‘lom turmush tarziga (zararli odatlar, sport, tibbiy gigiena) amal qilish;

milliy qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

madaniy merosni avaylab asrash.

**1-BOB. ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM (14 SOAT)**

**Kirish (1 soat).**

Vatan tuyg‘usi tushunchasi. Kamil inson tarbiyasida Vatan tuyg‘usining ahamiyati.

**1-mavzu: Islom Karimov – mustaqil davlat asoschisi (2 soat).**

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston davlatchiligini tiklash va rivojlantirishdagi xizmatlari. O‘zbekistonning mustaqillikka erishish arafasida yuz bergan voqealar, siyosiy holat haqida qisqacha tushuncha.

**2-mavzu: Vatanni anglash (2 soat).**

Vatanni sevish. Vatan uchun jasorat ko‘rsatish. Vatanni himoya vilish

**3-mavzu: Inson manfaatlari oliy qadriyat (2 soat).**

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash, davlat va xalq o‘rtasidagi muloqot.

**4-mavzu: Vatanimiz timsollari (2 soat).**

Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u. Vatan tuyg‘usining vorislik tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liqligi. Vorislikning ta’rifi. Shajara va nasl-nasab haqida.

**5-mavzu: Oila – Vatan timsoli (2 soat).**

Ona bag‘ri inson uchun dastlabki Vatan ekani. Farzandlar kamoli – Vatan boyligi. Oila jamiyat negizi. Mustaqillik yillarida oilaga e’tibor.

**6-mavzu: Vatanga muhabbat (2 soat).**

Vatanga muhabbat – eng ulug‘ tuyg‘u. Vatan himoyasi. Dunyo xalqlarining ertak, rivoyat, doston va she’rlarida qahramonlik, mardlik va fidoyilik fazilatlarining madh etilishi.

**Takrorlash (1 soat).**

**2-BOB. JAMIYAT VA DAVLAT (12 SOAT)**

**7-mavzu: Inson va jamiyat (2 soat).**

Jamiyat tushunchasi. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatining tashkil topishi.

**8-mavzu: Inson jamiyatda kamol topadi (2 soat).**

Inson kamolotida jamiyat va muhitning o‘rni. Oila va mahalla – tarbiya maskani.

**9-mavzu: Davlat – hokimiyatining asosi (2 soat).**

Hokimiyat va uning asosi. Mamlakat fuqarolarining davlat boshqaruvidagi o‘rni.

**10-mavzu: Milliy suverenitet (2 soat).**

O‘zbekistonning milliy suvereniteti, chegaralar yahlitligi. Mintaqada havfsizlikning barqarorligi kafolatlari.

**11-mavzu: Biz – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosimiz (2 soat).**

Fuqarolik tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari, majburiyatlari va erkinliklari.

**12-mavzu: Fuqarolik jamiyati (2 soat).**

O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati. Inson huquqlarining himoyasi.

**3-BOB. ONA VATANIMIZ – G‘URUR-IFTIXORIMIZ  
(8 SOAT)**

**13-mavzular: O‘zbekiston xalqi (2 soat).**

“Inson” va “fuqaro”, “O‘zbek xalqi” va “O‘zbekiston xalqi” degan tushunchalar haqida, xalq va millat so‘zlarining ma’nalari. O‘zbek xalqi dunyoning eng qadimiy xalqlaridan biri ekani. O‘zbekistonning ko‘p millatli mamlakat ekani to‘g‘risida.

**14-mavzu: Muqaddas burch (2 soat).**

Mustaqillik (istiqlol), suverenitet so‘zlarining ma’nosi. Istiqlol, erkin va ozod hayot o‘z-o‘zidan kelmagani. Mustaqillikni asrash va mustahkamlash yo‘lida xizmat qilish har bir yurtdoshimizning muqaddas burchi ekani.

**15-mavzu: Ona Vatanga farzandlik burchi (2 soat).**

“Buyuk xizmatlari uchun” va “El-yurt hurmati” ordenlarining ta’sis etilishi. Orden va medallar bilan taqdirlangan yurtdoshlarimiz haqida.

**Takrorlash (1 soat).**

**Nazorat ishi (1 soat).**

**Mavzularni o‘rganish uchun- 30 soat**

**Kirish darsi – 1 soat**

**Nazorat ishi uchun- 1 soat**

**Takrorlash uchun- 2 soat**

**Jami 34 soat**

**A2**

**Fanga oid xususiy kompetensiyalarning quyidagi elementlari shakllanadi:**

**Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi:**

Oila, Vatan, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatni anglaydi va unga amal qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydi, qadrlaydi va ularga amal qiladi;

ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi;

Vatan ravnaqi yo'lida jismoniy va intellektual imkoniyatlarini safarbar eta oladi;

millatlararo munosabatlarda hamjihatlik va bag'rikenglikni o'zida namoyon eta oladi.

**Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi:**

yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldor bo'la oladi;

hushyorlik va ogohlikni kundalik amaliy harakatiga aylantira oladi;

ma'naviy tahdidlarni anglaydi va ularga munosabat bildira oladi;

Vatan oldidagi burch va mas'uliyatni xis qiladi;

xalqimizning ma'naviy-madaniy merosini asraydi va rivojlantirishga hissa qo'shadi;

jamiyatda bo'layotgan jarayonlarga dahldorlikni his etadi.

**O'quvchilarda shakllantirilgan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon qila olish, savollarni to'g'ri qo'ya olish va unga javob bera oladi;

jamoaviy (oilada, mahallada, maktabda) muloqotga kirisha olish, hamkorlikda ishlay oladi;

turli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqara oladi;

muloqotda muomala madaniyatiga amal qildi;

suhbatdoshining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini tushuntira oladi;

turli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqara oladi.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana oladi;

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy rivojlantirib boradi;

